- bemorlar,
- tashrif buyuruvchilar,

- muassasaning tibbiyot hodimlari.

Nazorat savollari:

1. Muolaja xonasi nima va uning jihozlanishi qanday bo'lishi kerak?
2. Xirurgik klinikada tibbiyot hodimini o'zini tutishini 8 qoidasi nimalardan iborat?
3. Xirurgik bo'lim tarkibiga qanday xonalar kiradi?
4. Bemorxonaning xavo muxiti deganda nimani tushunasiz?
5. Shifoxona o'rni (koyka) deganda nimani tushunasiz?
6. Krovat oldi tumbochkasi deganda nimani tushunasiz?
7. Bog'lov xonasi nima va uning tuzilishi qanday?
8. Bo'limni yig'ishtirish qanday amalga oshiriladi?
9. Yig'ishtirish jihozlari deganda nimalarni tushunasiz?
10. Shifoxona ichi infeksiyasi deganda nimani tushunasiz?
11. Shifoxona ichi infeksiyasidan kelib chiqadigan kasalliklarni ko'rsating?
12. Nozokomial infeksiyaning o'ziga xosligi nimadan iborat?
13. Shifoxona ichi infeksiyasi profilaktikasi qanday o'tkaziladi?
14. Xirurgik bo'lim davolash profilaktika rejimiga 5 ta asosiy talablarni ko'rsating?

Test savollari:

1. **Xirurgiya bo'limida bemorlar jundan tayyorlangan kiyim-kechak va oyoq-kiyim kiyishi nima uchun mumkin emas?**
 - A. faqat palatalarda kiyish mumkin.
 - B. jundan tayyorlangan kiyim-kechak va oyoq-kiyim kiyish mumkin
 - C. dezinfeksiya qilish va ularni yuvib olish qiyin.
 - D. xirurgiya bo'limida bemorlar xoxlagan kiyimda yurishi mumkin.
2. **Xirurgiya bo'limida hamshira muntazam ravishda nimalarni nazoratga olish kerak?**
 - A. bemorlarni qon guruhini aniqlashi kerak
 - B. tumbalarni va muzlatgichlarni tekshirishi kerak
 - C. bemorlarni qon guruhini aniqlash hamshira vazifasiga kirmaydi
 - D. xirurgiya bo'limida yotgan bemorlarni kiyimlarni kuniga almashtirishini nazorat qilishi kerak.

3. Shifoxonalarda kirish eshiklari oldida infeksiyalarning kirishini oldini olish uchun namlangan gilamchalarning necha xili bo'ladi?

- A. 2
- B. 3
- C. 4
- D. 5

4. Shifoxonalarda kirish eshiklari oldida infeksiyalarning kirishini oldini olish uchun namlangan gilamchalar ishlatiladi. Bunday gilamchalarni qanday turlari mavjud?

- A. toza va kir
- B. rezinali va nam
- C. rezinali va porolonli
- D. aseptik va antiseptik

5. Xirurgik bo'limlar tozaligiga ko'ra necha guruhga bo'linadi?

- A. Shoshilinch va rejali
- B. Toza va ifloslangan
- C. Shoshilinch va yiringli
- D. Toza va yiringli

6. Xirurgik bulim sturukturasiga kirmaydi?

- A. Bog'lov xonasi
- B. EKG xonasi
- C. Muolaja xonasi
- D. Xo'qna xonasi

7. Operatsion blok sturukturasiga kirmaydi?

- A. Bog'lov xonasi
- B. Operatsiya xonasi
- C. Insturmentlar saqlanadigan
- D. Narkoz apparatlari saqlanadigan xona

Rasmi testlar:

1. Operatsion blok strukturasi qanday bo'ladi?




- A. Bog'lov xonasi
- B. Operatsiya xonasi
- C. Instrumentlar saqlanadigan
- D. Narkoz apparatlari saqlanadigan xona

2. Xirurgik bo'lim strukturasi qanday bo'ladi?



- A. Xo'qna xonasi
- B. Bog'lov xonasi
- C. Muolaja xonasi
- D. EKG xonasi

3. Operatsion blok zonalariga kiradi:



- A. umumiy rejim zonasi;
- B. qa'tiy steril rejim zonasi;
- C. chegaralangan steril rejim zonasi;
- D. steril rejim zonasi;
- E. bo'sh rejim zonasi.

4. Operatsiya xonasini ylg'ishtirishning asosiy turlari:



- A. dastlabki;
- B. davomiy;
- C. operatsiyadan keyingii;
- D. yakuniy;
- E. umumiy.

XIRURGIYADA TIBBIY ETIKA VA DEONTOLOGIYA

Tibbiy etika - tibbiyot hodimlarining axloqiy me'yorlari to'plami.

Deontologiya - tibbiy mutaxassislarning o'z vazifalarini bajarishdagi axloqiy me'yorlar to'plami.

Shifokor va bemor. Shifokorning asosiy maqsadi - bemorning sog'lig'ini yaxshilashdir. Shifokor har bir bemorga individual yondashishi kerak. Shifokor munosabatida har bir bemorning umumiy holati, harakteri, madaniyati, ma'lumoti xisobga olinishi kerak. Ba'zi bir gurux insonlarga, ayniqsa yosh ayollarga e'tiborli, hushmuomala bo'lish, kerak bo'lganda hushomad qilish kerak. Boshqalarga, ayniqsa armiyada xizmat qilgan erkaklarga, qattiq, buyruq oxangida gapirish kerak. Uchinchi guruxga, intellektual darajasi past insonlarga, kasalini, bajariladigan operatsiyasini oddiy, bemor tushunadigan so'zlar bilan tushuntirish kerak. Eng asosiysi xirurg bemorga, uning tuzalishini xoxlayotganini, davolay olishiga ishonishini va davolash samarali bo'lishini ko'rsata bilishi kerak. Hamma holatlarda bemorlarga dalda kerak, lekin shifokor albatta bemorga uning axvoli jiddiyligini, asoratlar bo'lishi mumkinligini aytib o'tishi kerak. Istisnoli holatlar ham bor, bular onkologik bemorlarda bo'ladi. Shifokor, hattoki eng kichik o'zgarishlarni ham bemorga bildirishi kerak, bu bemorga dalda bo'ladi. Shuni e'tiborga olish kerakki, har qanday invaziv muolajalar uchun bemorning yozma roziligi kerak va u kasallik tarixiga qo'shib qo'yiladi. Kasallik tarixida bemorning imzosi bo'lmasa, bemorning qarindoshlari tomondan ish sudda yuridik ko'rib chiqilishi mumkin.

Shifokor va bemorning qarindoshlari. Bemorning eng yaqin qarindoshlariga (1-qator qarindoshlariga) shifokor kasallik harakteri, operatsiya turi, bo'lishi mumkin bo'lgan asoratlar, operatsiyaning xavfi tomonlari haqida ma'lumot berishi kerak.

Eng yaqin qarindoshlar quyidagilar hisoblanadi:

- Bemorning ayoli;
- Bemorning farzandlari;
- Bemorning ota-onasi.

Bulardan boshqa qarindoshlar va tanishlarga, ulardan tomonidan so'rov bo'lganda, bemor holati haqidagi umumiy ma'lumotlar beriladi. Quyidagi qoidaga qat'iy amal qilish kerak: yuridik kuchga ega bo'lgan operatsiyaga rozilikni faqat bemorning o'zi berishi mumkin. Faqatgina

bemor hushsiz holatda bo'lganda, huxiy kasallik natijasida mustaqil qaror qabul qila olmaganda, voyaga yetmagan bolalarda operatsiya qilishga rozilikni yaqin qarindoshlar beradi. Shifokor-xirurg bemorning yaqin qarindoshlari bilan doimiy kontaktda bo'lishi kerak. Bu letal holatlarda turli xildagi shikoyatlar va ko'ngilsizliklarning oldini oladi.

Onkologiyada deontologiya masalasi. Shifokor-xirurg rak bilan kasallangan bemor bilan suxbatining dastlabki daqiqalaridayoq bemorni tuzalishi mumkinligiga ishontira olishi kerak. Hozirgi kunda bemorga rak bilan kasallanganligini aytish- aytmaslik to'g'risida diskussiyalar ketmoqda. Yuridik nuqtai nazardan bemor o'zining kasalligi to'g'risida barcha ma'lumotlarni bilishga xaqqi bor. G'arbiy Yevropa davlatlari va Amerikada bemorga u rak bilan kasallanganligi to'g'risida aniq habar berishadi. Lekin ko'pgina rak bilan kasallangan bemorlar kasallik rivojlanib borishi mumkinligini o'ylab psihologik tushkunlikka tushib qolishadi. Shuning uchun ko'pgina xirurglar avval qo'llanilgan usulni qo'llab, bemordan kasalligining harakterini yashirishadi. Tibbiy ma'lumotnomalarda diagnoz lotin tilida yoziladi, bemorlar ximioterapiyani o'tash uchun umumiy profilli palatalarga gospitalizatsiya qilinadi.

Shifokor siri. Shifokor va boshqa tibbiyot hodimlari o'zlarining kasbiy burchlarini bajarayotgan vaqtlarida ularga ma'lum bo'lgan bemorning kasalligi, oilaviy va jinsiy hayoti haqidagi ma'lumotlarni tarqatmasliklari kerak.

Ilmiy izlanishlarida bemorning familiyasini, uning rasmlarini yuzini yashirmagan holda demonstratsiya qilmasliklari kerak.

Shu bilan bir qatorda shifokor infeksiyon, venerik kasalliklarda, zaharlanishlarda sanitar organlarga habar berishi kerak. Qotillik yuz berganda, travmalarda, o'q otar va boshqa qurollar bilan jarohatlangan bemorlar bo'lganida tergov hodimlariga habar berishi kerak.

Shifokor bemor ishxonasiga, agar u bu soxada kasalligi tufayli ishlamasligi kerak bo'lsa habar berishi kerak (ozuq-ovqatlar bilan bog'liq soxalarda tuberkulyoz (sil) va venerik kasallikli bemorlar, xaydovchilarda epilepsiya aniqlansa).

Tibbiy muassasada hodimlar o'rtasidagi munosabatlar. Tibbiyot muassasalari hodimlari o'rtasidagi munosabatlar umuminsoniy axloqning quyidagi tamoyillariga muvofiq bo'lishi kerak:

- halollik,

- samimiylik,
- tajribali va o'zidan katta hamkasbiga hurmat va bo'ysinish va x.k

Tibbiyot muassasalarida bemorning iloji boricha ruxiy holatini shikastlamaydigan va shifokorga ishonch muhitini yaratadigan vaziyat bo'lishi kerak. Raxbarlarning surbetligi va hurmatsizligi, hodimlarning unga ko'r-ko'rona bo'ysinishi, xatolarni ko'rmasligi tibbiy xizmat sifatini pasaytiradi. Bir tomondan, shifokor xatosini bemor qarindoshlari bilan muxokama qilmasligi kerak, boshqa tarafdin har xil konferentsiyalarda shifokor taktikasini muxokama qilish xatolarni to'g'irlashga va tibbiy yordam sifatini oshirishga olib keladi. Jarrohlik klinikasida zamonaviy ilmiy yutuqlarni amaliyotga tatbiq etish jarayoni doimo bo'lishi kerak.

Ustozlik tamoyiliga rioya qilish kerak: tajribali jarroh yosh mutaxassisga ta'lim beradi. Quyidagi asosiy tamoyil - qaror qabul qilishda mantiqiy javobgarlik: tashxis noaniq bo'lsa, u holda professional tajribali mutaxassis taklif qilinadi. Shu bilan birga, agar jarroh mustaqil qaror qabul qila olmasa, uning bemorlari qolmaydi. Yuqori, o'rta va kichik tibbiy hodimlar o'rtasidagi munosabatlar o'zaro ishonch va bir-biriga hurmatga asoslangan bo'lishi kerak. Shu bilan birga, qarorni qabul qilishda tanish-bilishchilikka yo'l qo'yilmasligi lozim.

Shifokor va jamiyat. Tibbiy deontologiyaning eng jiddiy muammolaridan biri tibbiyot hodimlari va jamiyat o'rtasidagi munosabatdir. Tibbiyot muassasalarida mas'ul hodimlarni, tibbiy muassasaga moddiy yordam ko'rsatishga qodir bo'lgan sanoat va yirik qishloq xo'jaligi korxonalarini vakillarini o'z ichiga oladigan tibbiy muassasalarda vasiylik kengashlarini tashkil etish zarur. O'z navbatida, tibbiy muassasalar korxonalar hodimlarini davolash va diagnostika qilish bo'yicha majburiyatlarni oladi.

Tibbiy hodimlarning korporativ etikasini, shifoxonada har xil mutaxassislardan tashkil topgan jamoa ishlashini, tibbiyot muassasasining ijobiy baholanishi barcha hodimlarning yaxshi nomidan kelib chiqishini unutmaslik kerak.

Tibbiy hodimlarning o'zini tutish qoidalari.

Tibbiy hodimlarning o'zini tutishi quyidagi umumiy qoidalardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Tibbiyot hodimlari did bilan, tartibli kiyingan bo'lishi kerak;

2. Sochni tibbiy qalpoq tagiga yig'ib olish kerak;
3. Timoqlar kalta olingan bo'lishi kerak;
4. Ortiqcha kosmetika va taqinchoqlarga yo'l qo'ymaslik kerak;
5. Parfyumlardan foydalanishni cheklash kerak, ayniqsa o'tkir hidli bo'lganlarni (sub'yektiv yoqimsiz hissiyotlarga qo'shimcha ravishda, bemorda allergik reaksiyani rivojlanishi, bronxial astma huruji va boshqalarga sabab b'lishi mumkin bo'lganlarni);
6. Tibbiy hodim o'zining yuz ifodasini, suxbat va xatti-harakatlarning uslublarini doimo nazorat qilishi juda muhim; shifokor o'zini mehribon va hotirjam tutishi bemorning ruxiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va davolashning muvaffaqiyatiga ishonch hosil qiladi;
7. Ta'sirchan, osongina jaxli chiqadigan yoki aksincha, kontaktsiz, depressiya bilan og'rigan bemorga g'amxo'rlik qilayotganingizda, sabr-toqatli bo'lishingiz kerak, bemorning ahvolini yaxshilash uchun hamma narsa qilinayotganligini qayta-qayta ta'kidlashingiz kerak. Bunday bemorlar bilan aloqa qilishda bemorni sog'ayishi haqidagi har xil ma'lumotlarni turli nuqtai nazarlardan qayta-qayta takrorlash kerak.

Og'ir, tuzalish imkoniyati yo'q, atrof-muxitga befarq bemorlar bilan aloqa qiyinchiliklar tug'diradi (onkologik profildagi nooperabel yoki inkurabel bemorlar, yurak qon-tomir og'ir patologiyasi bilan og'rigan bemorlar, insult natijasida harakatlana olmaydigan bemorlar va x.k.). Bunday bemorlar bilan, ular tibbiy hodim tomonidan parvarish qilinayotganda aloqa o'rnatilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu bilan birga, bemorning kayfiyatini har tomonlama ko'tarishga harakat qilish kerak.

Hamshira hech qachon bemorga yoki davolanish jarayonida ishtirok etmayotgan boshqa shaxsga kasallik tarixini ko'rsatmasligi kerak. Tibbiy hodimlar davolayotgan shifokor ruxsatisiz uning kasali haqida ma'lumot berganda nohush holatlar bo'lgani ko'p kuzatilgan.

"Shifokor siri" degan tushuncha bo'lib, uni hech kim bekor qilmagan, bu tushuncha nafaqat shifokorlar, balki davolash jarayonida qatnashadigan barcha sog'liqni saqlash hodimlari uchun ham amal qiladi.

Tibbiy hodim telefon qilgan shaxs o'zini qanday tanishtirishidan qat'iy nazar, telefon orqali bemor haqida hech qanday ma'lumot bermasligi kerak.

Nazorat savollari:

1. Tibbiyot etikasi va deontologiyasi nima?
2. Onkologiyada deontologiyani o'ziga xosligi nimadan iborat?
3. Shifokor va bemor qarindoshlari o'rtasidagi munosabatlar qanday bo'lishi kerak?
4. Tibbiyot muassasasida hodimlarning o'zaro munosabatlari qanday bo'lishi kerak?
5. Shifokor va jamiyat o'rtasidagi munosabat deganda nimani tushuniladi?
6. Shifokor siri nima?

BEMORLARNI JARROHLIK AMALIYOTIGA TAYYORLASH. JARROHLIK AMALIYOTIDAN KEYINGII DAVRDA BEMORLAR PARVARISHI.



Umuman olganda, bemorning shaxsiy buyumlari to'plami o'rtacha miqdorda kamaytirilishi kerak. Shunday qilib, iloji bo'lsa, yangi foydalaniladigan elementlardan va yangi ishlatiladigan narsalar, eski kitoblar o'rniga yangi gazeta va jurnallar, qog'oz salfetkalari mato tolalarining o'rniga yangilari bo'lishi lozim. Bemorning shaxsiy buyumlari yopiq eshikli tumbalarda saqlanadi. Bemorning doimo ishlatiladigan shaxsiy buyumlari (ko'zoynak, sochlar, tish cho'tkasi, tish pastasi, sovun idishida sovun, karlarga eshitiladigan eshitish moslamasi, qaychi va boshqa) dezinfeksiya qilinadi. Zarurat tug'ilganda, bemorga shaxsiy tibbiy buyumlar beriladi: chiqindilar uchun idish, tupurish

uchun idish va hokazo. Bu idishlar ishlatilganidan keyin darxol xonadan olib tashlanadi va yaxshilab yuviladi. Bemor muolajasi tugatilgandan so'ng, individual parvarishlash vositalari qabul qilingan usullardan biriga ko'ra dezinfeksiyalanadi. Xirurgiya bo'limida bemorlar jundan tayyorlangan kiyim-kechak va oyoq-kiyim kiyishi mutlaqo mumkin emas, chunki bunday kiyimlarni dezenfektsiya qilish va ularni yuvib olish qiyin. Bemorning shaxsiy narsalarini kundalik kuzatuv palata hamshiralari va katta hamshirasi tomonidan nazoratda bo'ladi.

Oziq - ovqat va kiyimlarini bemorlarga tarqatish gigiyenasi. Bo'lim o'rta tibbiyot hodimlari tomonidan xirurgik bemorlar uchun shifoxona idorasi tomonidan berilgan ovqatlar va narsalar uzatishni qat'iy nazorat qiladi. Har bir bo'limda har bir bemorning diyetali jadvali bo'lgan bemorlar ro'yxati keltirilgan. Bemorlar dam olayotgan joylarda, qabul qilish va qabul qilish punktlarida ko'rsatmalar ko'rsatilib, bemorlarga yuborilishi mumkin bo'lgan maxsulotlarni ko'rsatuvchi ko'rsatmalar joylashtiriladi.

Har bir bo'limda dezinfeksiya qilinmasligi kerak bo'lgan eski kitoblar va sarflanmagan narsalarni o'tkazish, maxsulotlar uchun tegishli saqlash sharoitlarini ta'qiqlanadi. Yangi polietilen paketlarda olingan yuqori kaloriyali va tez buziladigan maxsulotlarni bir va ikki kunlik muddat ichida ortiqcha vazn orttirmaslik va oziq-ovqat bilan zaharlanishining oldini olish maqsadida ta'qiqlanadi. Spirtli ichimliklar va achchiq ovqatlardan mutlaqo istisno bo'lishi kerak. Ovqatni yopiq tumbalarda saqlash qat'iyan ta'qiqlanadi. Hamshira muntazam ravishda kasalxonada tumbalarni va muzlatgichlarni tekshirishi kerak.

Bemorga tashrif buyurish gigiyenasi. Jarrohlik bo'limida infektsiyani tarqalishini oldini olish va kasallik infektsiyasini chegaralash maqsadida qarindosh-urug'lar bilan bemorning aloqalarini maksimal darajada kamaytirish tavsiya etiladi. Bemorlarni va tashrif buyuruvchilarni himoya qilish uchun muayyan qoidalar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi doimiy nazoratda bo'lishi kerak. Foydalanuvchilarning bemor palatasiga kirishlari bittadan va maxsus xalat hamda baxillalardan foydalanish kichik va o'rta tibbiyot hodimlari tomonidan qat'iy nazorat ostida amalga oshirilishi lozim. Mexmonlarga bemorlar ta'sir qiladigan xavf darajasini, ayniqsa, yuqumli kasalliklar kabi mintaqada epidemiya xavfini tushuntirishi kerak. O'tkir respirator kasalliklarning yuqori davrlarida bo'limdagi bemorlarga tashriflar iloji

boricha cheklangan. Xirurgik bo'limga yosh bolalar bilan tashrif buyurish ta'qiqlanadi. To'g'ridan-to'g'ri bevosita kirish faqat bo'limda yotadigan kasallarga ruxsat etiladi. Reanimatsiya bo'limida davolanayotgan bemorlarni oldiga kirish kat'iyan ma'n etiladi. Shifoxonalarda kirish eshiklari oldida infeksiyalarning kirishini oldini olish uchun namlangan gilamchalar ishlatiladi. Ular yuqumli kasalliklarning tarqalishiga to'sqinlik qiladi. Ikkita turdagi gilamchalar bo'ladi: rezinali va porolonli. Ularga ishlov berishda quyidagi eritmalardan foydalaniladi: 1) Xloramining 0,75% eritmasi. 2) 0,75% xloramin eritmasida, 0,5 gramm miqdorida yuvish vositasi bilan 2% dixlor-1 yoki 0,5% xlorodin eritmasida 30 minutga ivitib qo'yiladi. 3) Vodород peroksidning 3% eritmasi 0,5 gramm detarjen bilan. Tashrif buyuruvchilar, ayniqsa, yuqumli kasallikka chalingan yoki infeksiyaga chalinish ehtimoli yuqori bo'lgan bemorlarni tashrif buyurayotganda qo'l yuvish yoki himoya kiyim kiyish kabi ehtiyot choralarini ko'rish haqida ogohlantiriladi. Kiraverishdagi jarrohlik bo'limlariga tashrif buyuruvchilar o'z poyabzallarini almashtirib, maxsus liboslar va kostyumlarni kiyishlari kerak.

Kasal tanasi gigiyenasi. Shaxsiy gigiyenani, palatalarni va to'shaklarni tozalikda saqlash bemorlarning tezroq sog'ayishiga sharoit yaratib beradi. To'g'ri parvarishning ahamiyati katta. Kasal qanchalik og'ir bo'lsa uni parvarish qilish shunchalik qiyin, va unga g'amxo'rlik qilish ham qiyinchilik tug'diradi, og'iz bo'shlig'ini, quloqlarni parvarish qilish qiyin bo'ladi. Manipulyatsiya metodlarini aniq bilish kerak, ularning bajarishlarini bilib olish shart. Og'ir bemorlarni to'g'ri parvarish qilish, bemorlarga g'amxo'rlik qilish - bemorning ahvolini yaxshilash va uning tiklanishiga yordam beradigan tibbiy tadbirlar ularning sog'ayishiga eng qisqa yo'ldir. Bemorlarni parvarish qilish vaqtida kasalning shaxsiy gigiyenasining tarkibiy qismlari bemor kasalligi tufayli o'zini ta'minlashga qodir bo'lmagan atrof-muxitni qamrab oladi. Ayni paytda qo'lda ishlashga asoslangan jismoniy va kimyoviy usullar asosan qo'llaniladi. Bemorlarni parvarish qilish umumiy va maxsusga bo'linadi. Umumiy parvarishlashda mavjud patologik jarayonning tabiatiga (bemorni oziqlantirish, kiyimini almashtirish, shaxsiy gigiyena, diagnostika va davolash ishlariga tayyorgarlik) qaram bo'lmagan bemor uchun zarur bo'lgan tadbirlar mavjud.

Maxsus parvarish bemorlarning muayyan toifasiga (xirurgik, kardiologiya, nevrologik va b.) qo'llaniladigan bir qator tadbirlardir. Jarrohlik parvarish - bemorga uning asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirish va patologik sharoitda yordam berishga mo'ljallangan kasalxonada shaxsiy va klinik gigiyenani amalga oshirishdagi tibbiy faoliyat. Shunday qilib, jarrohlik yordamining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: 1) bemor uchun maqbul turmush sharoitlarini ta'minlash, kasallikning ijobiy yo'nalishiga yordam berish; 2) shifokor tayinlagan muolajalarning bajarilishi; 3) bemorni tiklashni jadallashtirish va asoratlarni kamaytirish. Jarrohlik parvarish umumiy va maxsusga bo'linadi. Umumiy jarrohlik parvarishi bo'limda sanitariya-gigiyena va tibbiy-himoya rejimlarini tashkil etishdan iborat. Sanitariya-gigiyena rejimiga quyidagilar kiradi: 1. Binolarni tozalashni tashkil qilish; 2. Bemorning gigiyenasini ta'minlash; 3. Nozokomial infektsiyani oldini olish. Davolash-himoya rejimi: 1. Bemor uchun qulay muxit yaratish; 2. Dori vositalari bilan ta'minlash, ularning to'g'ri dozalari va tabib tomonidan belgilangan tartibda qo'llanilishi; 3. Patologik jarayonning tabiatiga muvofiq bemorning sifatli ovqatlanishini tashkil etish; 4. Bemorlarni muayyan va jarrohlik aralashuvga to'g'ri manipulyatsiya qilish va tayyorlash.



1- rasm. Bemor foydalanadigan buyumlar

Burun bo'shlig'ini parvarish qilish. Agar bemor zaif bo'lsa va burun bo'shligini o'zi tozalay olmasa, parvarish qilayotgan odam har kuni hosil bo'lgan qobiqlarni olib tashlashi kerak. Buning uchun burun yo'llarida vazelin yog'i, glitserin yoki yog'li eritma bilan namlangan doka bo'lagi burun bo'shliqlariga muloyimlik bilan kiritiladi va 2-3 daqiqaga qoldiriladi, shundan so'ng aylanma harakatlar bilan doka

bo'lagi chiqariladi va u burun bo'shlig'idagi qobiqlarni o'zi bilan olib chiqadi. Bemorga dastro'molchaga burnini qoqish taklif qilinadi. Burun bitib qolganda 2-3 tomchi adrenalin yoki boshqa vazokonstriktor tomizish mumkin.

Og'iz bo'shlig'ini parvarish qilish. Kundalik tishlarini yuvish va og'zini chayish imkoniyati bo'lmagan bemorlarni, og'iz bo'shlig'ini muntazam ravishda parvarishlash kerak. Kasal qulay sharoitda o'tqiziladi yoki yon tomonga buriladi; ko'kragiga kleyonka fartuk kiydirib, uni pastki qismi choyshab bilan yopiladi va tizzasiga tog'ora qo'yiladi. Korntsangga maxkamlangan va eritmalarning biriga namlangan salfetka bilan chapdan o'ngga va yuqoridan pastga harakatlar bilan tishlarga ishlov beriladi. Shpatel bilan tilning ildizini pastga bosib, tomoq va tilni parvarish qilinadi. Agar bemorlar hushida bo'lsa, unda suyuqlikni tog'ora ichiga tupurish taklif etiladi, og'zini yuvish va tartibni takrorlash uchun suv berish tavsiya etiladi. Agar bemor bexush bo'lsa, og'iz bo'shlig'ini va tomoqni salfetka bilan quritiladi. Barcha holatlardan so'ng lablar, til va og'iz moy bilan yog'lanishi kerak (o'simlik, oblepixa, va boshqalar). Agar bemor tilni oldinga chiqara olmasa – unda salfetkani bilan til uchudan ushlab ko'tariladi va to'liq amalga oshiriladi. Bemor har ovqatlangandan so'ng, kaliy permanganat, borat kislota, sodali suv kuchsiz eritmasi yoki qaynatilgan suvda namlangan paxta bilan og'iz bo'shlig'i va tishlardagi ovqat qoldig'i tozalanib artib olinadi. Dokali tamponda til, og'iz artiladi va undan keyin og'iz chayiladi. Og'iz bo'shlig'ini o'tirgan holatda ham yuvishingiz mumkin. Chiqariladigan protez kechqurin chiqariladi, sovun bilan yuviladi va bir stakan suvda saqlanadi. Og'iz chayish uchun soda eritmasi (natriy gidrokarbonat), natriy karbonati, bor kislotasi, vodorod peroksidi (3% dan ortiq bo'lmagan eritma), kaliy permanganati (1 :1000) va mineral suvlar qo'llaniladi. Chayish uchun qo'llaniladigan suyuqlik Harorati 20-40 °C bo'lishi kerak, bemorga tupurush uchun maxsus idish beriladi. Og'iz va tilning shilliq qavati glitserin yoki romashka damlamasi 1%li eritmasi bilan namlangan bir parcha doka bilan artiladi. Yuvishdan tashqari, applikatsiya va sanatsiyadan ham foydalanish mumkin. Applikatsiya - furatsillin eritmasiga namlangan steril doka 3-5 minut davomida qo'yish. Bu muolajani bir kunda bir necha marta takrorlaniladi. Sanatsiya – Jane shpritsi yoki Esmarx krujkasi bilan amalga oshiriladi. Yarim yotgan holatida, bemorning

ko'kragiga klyonka qo'yiladi, bemorga uning qo'lga tog'oracha beriladi, u iyak ostiga ushlab turishi aytiladi chayilgan suv oqib tushishi uchun. Shpatel yoki qoshiqni dastagini navbatma-navbat, chapga, so'ngra o'ng lunj ochiladi va parvarishlovchi nayni kiritib og'iz bo'shlig'i chayiladi. Esmarx krujkasi bemorning boshidan 1 metr balandlikda bo'lishi kerak.

Teri parvarishi. Tavsiya etilgan kesma hududida infeksiyon o'choq mavjudligi rejalashtirilgan operatsiyaga qarshi ko'rsatma hisoblanadi va favqulodda shoshilinch choralar yuzaga kelganda, prognoz yomonlashadi. Ko'pincha, ayniqsa, keksa bemorlarda teri burmalarida qo'ltiq va chotda zamburug'li flora sabab dermatitlarni ko'rishimiz mumkun. Operatsiya oldi davrida barcha bu kabi jarayonlarga kundalik gigiyenik vannalar yordamida barham berilishi shart, zararlangan teri burmalari spirt bilan artilishi kerak. Nistatin va Levorin saqlovchi kukunli vositalarini surish zarur. Yotoq yarani profilaktikasi uchun tananing bir xil joylarida yotib qolmaslik uchun har 4 soatda ularning tanasi holatini o'zgartirish kerak.

Tirnoqlarni parvarish qilish. Tirnoqlar mayda qaychi bilan qisqartiriladi, spirt yoki 0,5% xloramin eritmasi bilan muolaja qilinadi.

Bemorni yuvish. Xaftalik gigiyenik hammomni qabul qilmaydigan bemorlar, shuningdek siydik va najasni ushlab turishdan azob chekayotganlar kuniga bir necha marta yuvilishi kerak. Bemorni yuvish uchun kerak boladi: 1. Issiq suv, dezinfeksiyali eritma (kaliy permanganatning kuchsiz eritmasi, furatsillin, rivanol va boshqalar); 2. korntsang, steril paxta to'pi; 3. klyonka; 4. to'shak. Jarayonning texnikasi: 30-35°C Haroratda eritmani tayyorlaniladi, bemor tizzalari bukilgan holda yotadi, dumba ostiga klyonka va sudno quyiladi. Chap qo'l bilan, parvarishlovchi idishni ushlab turadi, undan oraliq maydoniga dezinfeksiyali eritma quyiladi. O'ng qo'l bilan paxta shariki bilan 1-2 marta jinsiy organlardan anusga yo'naltiriladi, keyin paxta tashlab yuboriladi. Jarayon 2-3 marta takrorlanadi. Quruq paxta to'plamlari bilan terini xuddi shu yo'nalishda artiladi. Chov burmasi vazelin yog'i yoki chaqaloq kukuni bilan ishlov beriladi. Usha soxa vazelin yog'i yoki chaqaloq kremi bilan yog'lanadi.

Operatsiyadan keyingi davrda bemorlar parvarishi.

Qorin bo'shlig'idagi operatsiyadan so'ng bemorlarning parvarishi.

Xirurgiyada operatsiya bemor uchun eng muhim voqeadir. Operatsiya va og'riqsizlantirish bilan bog'liq har bir muolajalarning barchasi operatsion stress deb atalib, ularning asoratlari esa operatsiyadan keyingi holat yoki operatsiyadan keying kasallik deb qaraladi. Bunday stressga faqatgina bevosita operatsion jarohatgina sabab bo'lmasdan, balki turli xil murakkab ta'sirlar kompleksi natijasida yuzaga keladi: qo'rqish, ta'sirlanish, og'riq, narkotik vositalar ta'siri, travma, yara hosil bo'lishi, ovqat yemaslik, to'shak rejimining saqlanishi kerakligi va boshqalar. Operatsiyadan keyingi davr - operatsiyadan so'ng bemorni to'liq sog'ayishi yoki nogironlikka o'tkazishgacha bo'lgan davr. Operatsiyadan keyingi davrning ahamiyati katta bo'lib, aynan o'sha vaqtda bemorga maksimal e'tibor va g'amxo'rlik kerak bo'ladi. Operatsiyadan keyingi davrning asosiy maqsadi - operatsiyadan keyingi davrda bemorda kuzatiladigan regeneratsiya va adaptatsiya jarayonlarining rivojlanishiga imkoniyat yaratish, shuningdek yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asoratlarning oldini olish, erta aniqlash hisoblanadi. Asoratlanmagan operatsiyadan keying davrda organizmdagi asosiy organlar va tizimlarda qator funktsional o'zgarishlar yuz beradi. Bu quyidagilar bilan bog'liq: psixologik (huxiy) stress, operatsiyadan keyingi jarohat zonasidagi og'riq, operatsiya sohasidagi nekroz o'choqlari va to'qimalar jarohati, bemorning majburiy holati, gipotermiya, ovqatlanishning buzilishi kabi omillar ta'siri tufayli bo'ladi. Operatsiyadan keyingi davr normal kechganda organizmdagi reaktiv o'zgarishlar odatda mo'tadil ifodalangan bo'lib, taxminan 2-3 kun davom etadi. Operatsiyadan keyingi davrning asosiy vazifalari quyidagilardan iboratdir: 1. Organizmdagi o'zgarishlarning korrektsiyasi; 2. Organlar va tizimlarning funktsional holatini nazorat qilish; 3. Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asoratlarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish. Rejalashtirilgan operatsiyalardan so'ng operatsiyadan keyingi parvarishlashni tashkil etish bemorni doimiy va sifatli monitoringini talab qiladi. Ushbu kuzatuv operatsiyadan keyingi davrning salbiy kechishini yoki bemorning davolash muolajalariga noadekvat javob berishini bildirib, asoratlarni oldindan aniqlashga yordam beradi va shu bilan birga turli xil asoratlarning oldini oladi. Bemorning funktsional jixatdan ijobiy bo'lgan pozitsiyasiga alohida e'tibor qaratiladi. Operatsiyadan keyingi jarohat sohasidagi muskullarni

imkon qadar bo'shashtirish kerak. Qorin bo'shlig'i a'zolari operatsiyasidan so'ng, bemor yarim o'tirgan holatni egallaydi. Buning uchun boshi biroz ko'tarilgan krovatlar qo'llaniladi. Bandaj kiyish ham jarohat sohasidagi, ayniqsa harakatlanayotganda va yo'talayotganida kuzatiladigan, og'riqlarni kamaytirishga yordam beradi. Bemor tanasining parvarishiga, yuz -qo'llarini yuvish bilan birgalikda, terisiga kamforaning spirtli eritmasi bilan kuniga 1-2 marta ishlov berish ham kiradi. Lozim bo'lganda teri burmalariga talk yoki chaqaloq kukuni ham sepiladi. Bemorning erta faollashuvi juda muhimdir. Buning uchun yotoq holatidagi tananing pozitsiyasini tez- tez o'zgartirish, passiv va faol harakatlarni amalga oshirishni bajarish lozim. Operativ amaliyot o'tkazilgan soha parvarishiga jarohatning ustki qismiga aseptik bog'lamning to'g'ri qo'yilishini nazorat qilish, bog'lam qo'yganda aseptikaga qat'iy rioya qilish kiradi. Bog'lam qo'yish deganda jarohatdagi oldingi bintlarni (salfetkalarini) olib tashlash, infeksiyalar rivojlanishini profilaktikasi, diagnostik va terapevtik muolajalarni bajarish va yangi bog'lamni qo'yishdan iborat tibbiy-diagnostik muolajani nazarda tutamiz. Operatsiyadan keyingi dastlabki davrda bemorlarning umumiy parvarishi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Bemorning holatini kuzatish;
- Retseptlar ro'yxati bo'yicha dori vositalarini qo'llash;
- Yotoq rejimida bo'lgan bemorlarda siydik kateterlari va tuvaklarni qo'llash;
- Drenajning holatini nazorat qilish;
- Siydik kateterini nazorat qilish;
- Bemorlarni ovqatlantirish;
- Terini parvarish qilish, ich kiyim va choyshablarni o'z vaqtida almashtirish;
- Yotoq yaralarning oldini olish (bemor holatini o'zgartirish, yotoq yara yuzaga keladigan sohalarga kamfora spirti bilan tez- tez ishlov berish);
- Operatsion jarohat holatini nazorati: bintlarni qon bilan xaddan tashqari bo'kishi, yara chetlarining kengayishi, qorin bo'shlig'i a'zolarining jarohat bo'shlig'iga chiqib qolishi (eventratsiya), bintlarni yiring bilan, ichak suyuqligi bilan xaddan tashqari xo'l bo'lishiga yo'l qo'ymaslik;
- Drenaj ajratmasini nazorat qilish;

Operatsiyadan keyingi jarohatlarning parvarishi: Aseptik bog'lama, malhamli bog'lamlar qo'yish; • Jarrohlik amaliyoti turiga qarab, shifokor ko'rsatmasiga binoan u yoki bu manipulyatsiyani bajarish – kolostomali bemorlarni parvarishlash, bemorni aktivlashtirish, zondan ovqatlantirish va boshqalar.




2 - rasm. Eventratsiya

•. Keksa bemorlarga g'amxo'rlik qilganda quyidagi deontologik va psixologik jixatlari e'tiborga olinadi. Bemor bilan suxbatlashganda ko'pincha xotira buzilganligi, bunda uzoq muddatli xotira saqlangan va qisqa muddatli xotira susayganligi, eshitishning, ko'rishning pasayganligi ko'zga tashlanadi. Bunda nafaqat bemor bilan suxbatda qiyinchilik tug'iladi, balki dorilar qabul qilish vaqtining nazorati ham talab qilinadi.

Gastrostomali bemorlarning parvarishi.

Og'iz orqali ovqat qabul qilishning imkoniyati bo'lmasa – qizilo'ngach butunlay o'smalar yoki biriktiruvchi to'qimali hosilalar bilan berkilib qolganda gastrostoma (oshqozonga fistula) vaqtinchalik yoki doimiy ovqatlanish uchun qo'yiladi.



3 – rasm. *Gastrostoma*

Operatsiyadan so'nggi birinchi kuni oshqozon motor funksiyasi hali tiklanmaganligi sababi, uning dekompressiyasi uchun gastrostomik trubkaning oxiri ochiq qoldiriladi va bemor tanasidan pastroqda joylashgan bo'sh flakonga qo'yiladi. Gastrostoma naychasi tashqi qismining uzunligi teri ustidan kamida 20 sm bo'lishi kerak. Olingan oshqozon suyuqligining miqdori o'lchanadi va rangi aniqlanadi. Fistuladan ajralib chiqqan suyuqlikning miqdori odatda ko'p bo'lmaydi va uning o'rni suyuqlik va gipertonik eritmalarini tomir orqali yuborish yo'li bilan qoplanadi. Qoidaga ko'ra, bir kundan keyin oshqozon evakuatsiya funksiyasi tiklanadi va shuning uchun fistula orqali ajratma chiqishi keskin kamayadi. Shundan so'ng trubka bloklanadi va faqat oziqlantirish uchungina ochiladi. Buning uchun naycha bukilishi va doka yoki rezina xalqa bilan bog'lab qo'yilishi mumkin. Ikkinchi variant birinchisidan afzal, chunki doka tez ifloslanadi va uni tez-tez almashtirib turish kerak bo'ladi. Naycha og'zini rezina probka bilan berkitish lozim. Probka tiqinning oxiri naychadan chiqib turishi kerak, lozim bo'lganda ochib, qo'llash oson bo'lishi uchun. Naychaga metall qisqichlarni qo'llamaslik kerak, chunki ular nayga zarar keltiradi va sovuq kunlarda noqulayliklar keltirib chiqaradi. Gastrostoma germetikligi buzilgan bo'lsa, oshqozon suyuqligi naycha va qorin old devorlari orasidan oqa boshlaydi. Oshqozon shirasi xlorid kislota va proteolitik fermentlar saqlaydi va shuning uchun, ular teriga tushgandan so'ng, 2-3 soatdan keyin fermentativ dermatitni keltirib chiqaradi. Bu esa, keyinchalik terining qizarishi va shishishi, kichik yaralar paydo

bo'lishi bilan namoyon bo'ladi. Bemorga qo'shimcha azob beruvchi og'riqlar vujudga keladi. Rivojlangan dermatitda yallig'langan sohaga sink (rux) malhami, Lassar pastasi, taninning 10%- li suvli eritmasi surtiladi, quruq tanin kukuni, talk, gips sepiladi. Bu sohaga bog'lam qo'yilmaydi, havo bilan quritish uchun ochiq qoldiriladi. Bemor krovati yonida steril dokadan shariklar qoldiriladi va ular bilan stomadan oqqan maxsulot darrov artib olinadi. Agar bog'lam qo'yiladigan bo'lsa, bog'lam tezda oshqozon shirasi bilan to'yinib qoladi va dermatit belgilari chuqurlashib ketadi. Teri ustiga pasta va himoya malhamlari (kremlari) surtilayotganda, ular teriga maxkam yopishganligiga e'tibor berish kerak. Agar teriga jips yopishmasa, ular tagiga oshqozon shirasi oqib kirishi mumkin. Keyingi bog'lam qo'yishlarda pastaning yedirilgan qismlari olib tashlanadi va yangisi qo'yiladi. Bu usullar yordam bermaganda gastrostomani germetikligi turli xildagi obturatorlar – gastrostomik trubka va yoriq orasini bog'lovchilar qo'yish yo'li bilan ta'minlanadi. Ularning eng oddiylari - nay bo'ylab porolondan yasalgan tasma qo'yish bo'lib, u trubaning diametrini kerakli xajmga oshiradi. Gastrostoma trubkasi yoriqdan tashqariga chiqib ketganida, u darhol oshqozonning bo'shlig'iga qaytarib kiritilishi kerak. Agar bu ish o'z vaqtida bajarilmagan bo'lsa, bir necha soat ichida bu yo'l, uning tarkibidagi to'qimalarning qisqarishi va yemirilishi sababli yo'nalishini o'zgartiradi. Gastrostoma naychasini kiritish shifokor bajaradigan muolajadir. Dastlab, uzun, uchi qayrilgan qisqich (korntsang) yordamida yara yo'lining yo'nalishi tekshiriladi, undan keyin tushib ketgan gastrostoma trubkasi qayta o'z joyiga kiritiladi. Shu bilan birga juda ham ehtiyot bo'lish kerak. Chunki, sohta yo'l hosil qilib, nayni erkin qorin bo'shlig'iga kiritib qo'ymaslik lozim. Agar trubkani almashtirish kerak bo'lsa, avval avtoklavda yoki qaynatish yo'li bilan dezinfeksiyalash yoki kimyoviy antiseptik eritmasida sterilizatsiya qilish orqali trubkaning yangisini tayyorlab olish kerak.

Ileostoma parvarishi. Ileostoma polipoz yoki nospetsifik yarali kolit bilan og'rigan bemorlarda yo'g'on ichakni total olib tashlagandan so'ng hosil qilinadi. Yonbosh ichakning terminal qismi o'ng qovurg'a ravog'i bilan qorin orasidagi sohaga chiqarib qo'yiladi. Bunday bemorlarga parvarish ingichka ichak ajratmasini yig'ish, fermentativ dermatit profilaktikasi, ichak suyuqligini kamaytirishga, tuzlar va vitaminlar defitsitini oldini olishga qaratilgan parxezni (dietani)

tanlashdan iborat. Fistula ichidan chiqqan ichak suyuqligining miqdori odatda sezilarli miqdorda bo'lib, kuniga 1,5-2 litrni tashkil etadi va bo'tqasimon konsistentsiyaga ega bo'ladi. Agar teriga tushib qolsa, u bir soat ichida teri qizarishiga, 3-4 soatdan keyin esa - matseratsiyaga olib keladi. Ingichka ichak fermentlaridan terini himoya qilishdan tashqari, quyuq konsistentsiyali ovqatlanish, maxsus parhez, parenteral ovqatlanish, dori moddalari buyuriladi. Quruq ovqatlanish – bu quyuq konsistentsiyali ovqatlar iste'mol qilish, sutkalik suyuqlik miqdorini cheklash, og'iz orqali suyuqlikni ovqatdan 30 min -1soat oldin yoki keyin qabul qilish. Yaradan suyuqlik chiqishini kamaytiradigan ovqatlar - guruch pyuresi, dimlangan guruch, kartoshka, makaron maxsulotlari, oq non, olma sharbati kabilardir. Yaradan suyuqlik chiqishini ko'paytiradigan maxsulotlar man etiladi – yangi meva va sabzavotlar, ziravorli achchiq ovqatlar, kepakli non, olxo'ri qoqi, meva sharbatlari, pivo, spirt, shokolad va kofein saqlovchi ichimliklar kabilar. Yara atrofidagi teri ta'sirlanishiga quyidagilar olib kelishi mumkin: sitruslar, yangi olma, no'xat, selderey, yong'oq, shirin makkajo'xori, kokos yong'og'i. Yaradan suyuqlikning ko'p oqishida suyuqlik va oziq-ovqatni og'zidan iste'mol qilishni cheklash kerak. Ushbu cheklovlarni kompensatsiya qilish uchun vena ichiga natriy xlor eritmalari, oqsil preparatlari, yog' emulsiyalari (parenteral oziqlantirish uchun) yuborish kerak.

Kolostomani parvarishlash. Yo'g'on ichak oqmasi kolostoma deb ataladi va unga quidagilar sabab bo'ladi:




4 – rasm. Kolostoma

1. Asosan o'sma etiologiyasi tufayli (obstruksiyadan oldin) yo'g'on ichak tutilishida, gazlar va najasni olib tashlash uchun; 2. O'sma jarayoni natijasida yo'g'on ichakni to'liq olib tashlaganda, sigmasimon ichakni oraliqqa tushirish mumkin bo'lmaganda. Yo'g'on ichak oqmasi bir shoxli va ikki shoxli bo'lishi mumkin. Ko'r ichak oqmasi (sekostoma) dan asosan suyuq ajratma chiqadi, yo'g'on ichak oqmalaridan esa shakllangan najas ajralib turadi. Terining ta'sirlanishi (dermatit) faqat ko'r ichak oqmalarida paydo bo'ladi, chunki uning tarkibida ingichka ichak fermentlari mavjud. Operatsiyadan 3-5 kun o'tgach, ichak peristaltikasi odatda tiklanadi. Shu vaqtdan boshlab operatsiyadan keyingi jarohatni ichak maxsulotidan himoya qilish axlat (najas) qabul qiluvchilar yordamida amalga oshiriladi. Kolostomali bemorlarda muntazam ravishda ichak bo'shalishini ta'minlash kerak. Bu muolajani iloji bo'lsa har doim bir vaqtda bajarish lozim. Bunga parxez, dori-darmon, xo'qna (klizma) orqali erishiladi. Defekatsiyaning kuniga 1-2 marta, portsiyali bo'lishi eng maqbul holatdir. Agar najas tez-tez va suyuq holda ajralib chiqsa, bemorni mustaxkamlovchi parxezga o'tkaziladi. Uning tarkibiga mayda g'alladan tayyorlangan oq non, guruch, sariyog', tvorog, kartoshkali pyure, shakar, go'sht maxsulotlari kiradi. Ichni yumshatuvchi ta'sirga ega bo'lgan maxsulotlar cheklanadi: kepakli non, xom meva, sabzavot, sut, yangi kefir, asal. Najas kelishi to'xtaganda, o'simlik manbalaridan tayyorlangan ichni yumshatuvchilar beriladi (o'simlik yaproqlari, itshumurt po'stlog'i, shivit suvi) va ko'pincha xo'qna (klizma) qo'yiladi. Avval oqma ichiga vazelin surtilgan qo'lqop kiyilgan barmoq kiritiladi va ichak tutqichi yo'nalishi aniqlanadi. Shundan keyin o'sha yo'nalish bo'yicha nokchanning uchi yoki naycha kiritiladi. Yumshatish uchun 500-600 ml suv yoki 100-150 ml 10% osh tuzi eritmasi yoki 200 ml vazelin yog'i eritmasi qo'llaniladi. Ichakdan gazlar chiqaradigan yoqimsiz hidni yo'q qilish uchun filtrli najas to'plovchi (kalopriemnik) ishlatish, gaz hosil bo'lishiga to'sqinlik qiladigan parxezni (dietani), dezodorantlarni qo'llash kerak. Gazlar ajralishini pivo, mineral suv, gazlangan ichimliklar, sut maxsulotlari, yangi sabzavotlar, piyoz, quruq loviyalar oshiradi. Gaz ishlab chiqarishning ko'payishi bilan, bu maxsulotlarni ratsiondan chiqarib tashlash bilan birga, faol ravishda, kuniga 3 maxal 0,25-0,3 g miqdorda aktivlangan ko'mir buyuriladi. Najas to'plovchi (kalopriemnik) - ileostoma yoki kolostoma ajratmalarini yig'ish uchun

vositadir. Najas to'plovchilar (kalopriemniklar) yopishqoq bo'lib, bemor tanasiga yopishtirilib, belbog' bilan biriktiriladi. Yopishqoq kalopriemniklar uch xil bo'ladi: bitta komponentli, ikki komponentli (shaffof yoki yaltiramaydigan) va mini-kalopriemniklar. Bundan tashqari, oqma tashqi tuynugini (stoma) yopish uchun qopqoq ishlatiladi. Bir komponentli kalopriemnik unga biriktirib qo'yilgan yopishtiruvchi plastinka bilan qoplangan bo'lib, uning yordamida teriga o'rnatiladi. Ikki komponentli kalopriemnik ikki qismdan iborat: xaltacha va yopishqoq plastinka. Dastlab teriga "ikkinchi teri" vazifasini bajaruvchi plastinka yopishtiriladi, keyin unga xaltacha o'rnatiladi. Mini-kalopriemnik bitta komponentli kalopriemnik kabi tuzilgan bo'lib, lekin juda kichik o'lchamli xaltachasi bo'ladi. O'z-o'zidan yopishadigan kalopriemniklar bir marta ishlatiladi. Ular drenajlanadigan va drenajlanmaydigan turlarga bo'linadi. Drenajlanadigan kalopriemniklar to'lganda, xaltaning quyi qismidagi qulflash moslamasini yopiladi, kun davomida bir necha marta ochib bo'shatiladi. Qulflash moslamasi orqali xalta stomadan yechilmagan holatda oqar suv yoki nokchadan foydalanib yuviladi. Drenajlanadigan o'zi yopishuvchi kalopriemnik bir martalik bo'lib, 3-6 kunda almashtiriladi. Drenajlanmaydigan kalopriemnikni almashtirish ichak ajratmasi bilan yetarli darajada to'lgandan so'ng ko'p marta takrorlanadi. Ko'krak qafasidagi operatsiyalardan so'ng bemorlarni parvarishlash. Operatsiya xonasidan chiqqan bemor operatsiyadan keyingi palataga yotqiziladi. Kasalni tashiyotganda bemorda asoratlarni rivojlansa yordam ko'rsatish uchun anesteziolog hamrox bo'ladi. Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asoratlarni: qusish, aspiratsiya, nafasni, yurakni to'xtashi va boshqalar. Odatda, o'pkada operatsiya qilinganidan keyingi dastlabki ikki kun bemorga individual hamshira tayinlanadi. Har soatda qon bosimi, puls va nafas olishlar soni o'lchanadi, tizimli ravishda rentgenografiya o'tkaziladi, qon va siydik taxlillari bajariladi. Bu o'tkir yoki bosqichma-bosqich rivojlanayotgan asoratlarni aniqlashga imkon beradi. Ushbu ma'lumotlarning barchasi maxsus varaqqa yozilgan bo'lib, unda davolovchi shifokor tomonidan tuzilgan soatlik ko'rsatmalar bo'ladi. Bundan tashqari, birinchi ikki kunda diurez va iste'mol qilingan suyuqlik miqdori aniqlanadi. Operatsiya xonasidan olib kelingan bemor oldindan isitilgan to'shakka yotqiziladi, issiq yopiladi, oyoqlariga issiq grelka qo'yiladi. Gipoksiya bo'lishini xisobga olgan holda, o'pkada

jarrohlik amaliyotidan keyin kislorodli terapiya o'tkaziladi. Buning uchun rezina naychalar yordamida bemorning burunlariga namlangan kislorod beriladi. Kasal narkozdan keyin 6-8 soat o'tgach, krovatning boshini ko'tarib, bemor yarim o'tirgan holatga o'tkaziladi. Palatada yurish 2-3 kundan keyin tavsiya etiladi. 2-3 kundan so'ng o'pkaning qolgan qismini yaxshiroq kengaytirish uchun sharlarni shishirish (kuniga 3-4 marta) tavsiya etiladi. Ovqatlanishning hech qanday o'ziga xosligi yo'q. Jarrohlik amaliyotidan keyingi dastlabki 2-3 kun - parxez va sharbatlar tavsiya etiladi. Kasalning faollashishi va umumiy holatining yaxshilanishi bilan, parxez jadal ravishda kengaytiriladi. O'pka qisman rezektsiya qilinganidan keyin asosiy vazifalardan biri o'pkaning to'liq va tez kengayishini ta'minlashdan iborat. O'pka rezektsiyasidan so'ng plevral bo'shliqning drenajlanishi shart hisoblanadi. Standart nuqtalarga qo'yiladigan 2 ta drenajlar boshqalaridan ustunroq hisoblanadi: o'rta o'mrov chizig'i bo'yicha ikkinchi va orqa qo'ltiq osti chizig'i bo'yicha ettinchi qovurg'alar orasiga qo'yiladi. Yuqori drenaj plevral bo'shliqdan havoni evakuatsiya qilishi tufayli o'pka kengayishini ta'minlaydi.



5- rasm. Yuvivchi drenaj

Pastki drenaj yallig'lanish ekssudati va qonning chiqishi uchun kerak bo'ladi. Klinikada Bobrov apparati yordamida suv osti drenaji qo'llaniladi. Operatsiyadan so'ng o'pka to'g'rilana olmasa, kislorod

ta'minoti to'xtatilmaydi, kichik vakuum bilan faol aspiratsiya (kamida 15 sm suv ustuni bo'yicha) ishlatiladi. O'pka kengayishi nazorati drenajni kuzatish, shuningdek, auskultatsiya, perkussiya va rentgenoskopiya yo'li bilan kuzatiladi. Drenaj orqali havo oqimi o'pkaning kengaymaganligini va bronxial patologiya sezilarli darajada buzilmaganligini ko'rsatadi. Havo kelishining to'xtashi uchta sababga ko'ra bo'lishi mumkin: 1. To'liq o'pka kengayishi, 2. Atelektaz, 3. Aspiratsiya tizimidagi buzilishlar. Operatsiyadan keyingi erta davrda rentgenoskopiya usuli afzaldir. Bu bemorni bir necha proektsiyalarda tekshirishga, funktsional simptomlarni aniqlab olishga, gorizontaal suyuqlik darajasini aniq belgilashga va plevra punktsiyasi nuqtasini aniqlashga yordam beradi. Drenajlarni olib tashlashda, plevral bo'shliqqa havo kirmasligi uchun ehtiyot bo'lish kerak. Buning oldini olish uchun drenajlarni faqat faol aspiratsiya paytida olib tashlash kerak. Drenajni olib tashlagandan keyin teridagi jarohatga 1-2 ipak chokini qo'yish tavsiya etiladi. Jarrohlikdan keyin ko'krak qafasi germetik tikilgan bo'lishi kerak. Bu o'pkaning umumiy olib tashlanishida ayniqsa muhimdir. Yaraning nogermetikligi plevral bo'shliqdan havo yo'talayotganda teri ostiga chiqib, teri osti emfizemasining rivojlanishiga olib keladi. Teri osti emfizemasi ortishi sababli, qoldiq plevral bo'shliqda manfiy bosim oshib boradi, ko'ks oralig'i kasal tomonga siljiydi. Jarohat uchun keyingi parvarishlash infeksiyaning oldini olishni o'z ichiga oladi, chunki u plevral bo'shliqqa osongina kiradi va ko'pincha ikkilamchi empiemaga sabab bo'ladi. Infeksiyaning eng kichik belgisida ham teri choklari qisman yechilishi va yiringning tashqariga chiqishini ta'minlash kerak, aks holda u plevral bo'shliqqa tushishi mumkin. Bu kabi holatlarda jarohatning chekkalari antibiotikning eritmasi bilan artiladi. Bu esa boshlanayotgan infeksiyasiga qarshi kurashishga yordam beradi.

Og'riq bilan kurashish. Operatsiyadan keyingi og'riq sindromi kasallikning kechishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bemorlarda ko'krak qafasidagi operatsiyadan keyin kuzatilishi mumkin: 1) ortib borayotgan sianoz, yuzaki nafas olish; 2) bronxial sekretni ketma-ket yo'tal natijasida to'xtashi va keyinchalik asfiksiya rivojlanishi; 3) anoksemiya va ko'ks oralig'ining siljishi tufayli yurak zaifligining ortishi. Ushbu og'riqlarga qarshi kurashishning eng samarali choralari narkotik

analgeziyaning nonarkotik analgetiklar bilan birga qo'llanilishi hisoblanadi

Skelet cho'zilishi bo'lgan bemorlarni parvarishlash. Bunda samarali bo'lgan skelet cho'zuvchilar - bu yukning suyakka to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilishidir. Skelet cho'zilishi kerakli massa vaznini tortishga imkon beradi. Yonbosh cho'zilishlarda, uzunasiga yuk bilan bartaraf qilib bo'lmagan holatlarda, qo'shimcha yonbosh tarafdin yuk qo'yiladi. Skelet cho'zilishi metodi suyak bo'laklarini to'liq konsolidatsiyasi bo'lguncha fiziologik holatlarda ushlab turadi. Cho'zish uchun qo'llaniladigan yuk massasi, bemorning yoshi, muskulning rivojlanish darajasi, surilish kattaligiga qarab belgilanadi: son suyagi singanda cho'zish uchun taxminan tana massasining 5- dan bir qismi (8-12 kg-li yuklar), boldir suyaklari singanda- 2 4 kg- li yuklar qo'llaniladi. Yukni zanjir oxiriga osib qo'yish maqsadga muvofiq emas, yaxshisi ular o'rtasida metall prujina bo'lgani ma'qul. Yelkadagi sinishlarda, cho'zish odatda elastik rezina tomonidan ta'minlanadi. Kerakli yuk bir necha kun osib qo'yiladi. Traktsiyaning yo'nalishi shikastlangan suyakning bo'ylama o'qiga to'g'ri kelishi kerak. Cho'zishning davomiyligi 4 dan 8 xaftagacha davom etadi. Ushbu vaqt davomida suyak bo'laklarining holatini rentgenologik tekshirish takrorlanadi va agar lozim bo'lsa, korrektsiyalanadi. Dislokatsiya bartaraf etilgandan so'ng yuk massasi kamaytiriladi. Spitsa qo'yilgan sohalarda infeksiya rivojlanshidan ehtiyot bo'lish kerak. Skelet cho'zuvchi repozitsiya uch kun ichida bajarilishi kerak. Agar bu usul foyda bermasa operativ amaliyot haqida o'ylab ko'rish lozim. Skelet cho'zish doimiy kuzatuv va parvarishni talab qiladi. Spitsalar atrofi rivojlanishi mumkin bo'lgan infeksiyani oldini olish uchun spirt bilan artib turilishi kerak. Suyak bo'laklarining uzoq muddat yumshoq to'qimaga ta'siri natijasida ichkaridan epidermal pufaklar va yotoq yaralar rivojlanishi mumkin. Shuning uchun, deformatsiya aniqlangan taqdirda, uni lateral yo'nalishda qo'shimcha tortish yoki suyak bo'laklari ustiga qo'yiladigan qum xaltachalari yordamida olib tashlash kerak. Repozitsiyadan so'ng yuklarning og'irligini kamaytirish kerak. Ayniqsa yoshi kattalar yotoq holatida uzoq vaqt qolishi, pnevmoniya va yotoq yaralar kabi daxshatli asoratlarning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. O'pkada dimlanish holatlari profilaktikasi uchun bemor nafas gimnastikasini bajarishi, massaj olishi, uzoq muddat o'tirgan holatda

bo'lishi kerak. Kelib chiqqan asoratlarni vaqtida aniqlash uchun vaqti-vaqti bilan o'pkani eshitib turish kerak.

Yotoq yara rivojlanishining 4 bosqichida klinik ko'rinishlar:

1-chi - Terining butunligi saqlanib turgan xolda, bosim to'xtaganidan keyin ham o'tmaydigan terining giperemiyasi.

2 - Terining doimiy giperemiyasi, epidermisning ajralishi, teri butunligining yuzaki buzilishi.

3 -Mushak qavatigacha kirib borgan teri qoplamalari nekrozi.

4 - Barcha yumshoq to'qimalarning suyaklargacha nekrozi.

Maxsus tayyorgarlikdan so'ng hamshiralar yotoq yaralarga qarshi yetarli choralarni ko'rishadi. Profilaktik chora-tadbirlar quyidagilardan iborat: 1) Suyak to'qimalariga bosimni pasaytirish; 2) Bemorning harakatlari paytida yoki uning noto'g'ri joylashtirilishi natijasida matoga ishqalanish va shikastlanishlarning oldini olish; 3) Suyak do'ngliklari ustidagi terining kuzatuv; 4) Terining tozaligi va uning o'rtacha namligini saqlab turish (juda quruq va juda nam bo'lmasligi kerak); 5) Bemorni yetarli darajada ovqatlanishi va suyuqlik ichishini bilan ta'minlash; 6) Bemorga harakatlanayotganda o'z-o'ziga yordam berish usullarini o'rgatish; 7) Bemorning yaqinlariga o'rgatish. Ayniqsa, keksa yoshdagi va zaif bo'lgan bemorlarda tezda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan yotoq yaralar, tegishli parvarish va nazorat bilan bartaraf etilishi mumkin bo'lgan katta asoratdir: • Bemorni yotqizilgan holda muntazam harakatlanishini (bemor tez- tez o'tirishi kerak) ta'minlash. • Kuniga bir necha marta tanadagi muammoli joylarga kamforaning spirtli eritmasi bilan ishlov berish va massaj qilish. • To'shakni yaxshi sanitar holatda saqlab turish (to'shak quruq, burmalarsiz, choklarsiz, toza bo'lishi kerak). Tananing yotoq yara paydo bo'lishi mumkin bo'lgan soxalariga bosimni kamaytirish uchun shishirilgan valiklarni qo'llash.

Nazorat savollari:

1. Bemorlar parvarishi tushunchasi nima?
2. Umumiy parvarish degani nima?
3. Maxsus parvarish degani nima?
4. Xirurgik parvarish nima?
5. Umumiy xirurgik parvarish nima?
6. Xirurgik bemorlarni parvarishining o'ziga xosligi nimalardan iborat?

7. Bemorlarning shaxsiy jihozlari gigiyenasi o'ziga xosligi nimalardan iborat?

8. Og'ir yotgan bemorlarni choyshabini bo'ylama almashtirish qanday amalga oshiriladi?

9. Og'ir yotgan bemorlarni choyshabini ko'ndalang almashtirish qanday amalga oshiriladi?

10. Og'ir yotgan bemorlarni kiyimini (ko'ylagini) almashtirish qanday amalga oshiriladi?

Test savollari:

1. Kasal tanasi gigiyenasini qanday turlari mavjud?

- A. erta va kech
- B. umumiy va maxsus
- C. birlamchi va ikkilamchi
- D. o'tkir va surunkali

2. Bemorni yuvish uchun suv harorati kerak boladi?

- A. 20-25°C
- B. 25-30°C
- C. 30-35°C
- D. 40-45°C

3. Sanitariya-gigiyena rejimiga quyidagilardan qaysilari kiradi?

- A. hamma javoblar to'g'ri
- B. bemor uchun maqbul turmush sharoitlarini ta'minlash, kasallikning ijobiy yo'nalishiga yordam berish
- C. shifokor tayinlagan muolajalarning bajarilishi
- D. bemorni tiklashni jadallashtirish va asoratlarni kamaytirish

4. Sanitariya-gigiyena rejimiga quyidagilar qaysilari kiradi?

- A. Nozokomial infeksiyani oldini olish
- B. Binolarni tozalashni tashkil qilish
- C. Bemorning gigiyenasini ta'minlash
- D. Hamma javoblar to'g'ri

5. Bemorlarni kim parvarishlaydi?

- A. Kichik va o'rta tibbiy hodimlar, bemor qarindoshlari, ularning har birida o'zining vazifalari bor.
- B. Kichik tibbiy hodim.
- C. Bemor qarindoshlari.
- D. Vrach.

E. O'rtta tibbiy hodimlar.

6. «Maxsus» parvarish tushunchasi nimani anglatadi?

A. Iqtisodiy sharoitini hisobga olib bemor parvarishi.

B. O'ta yuqori darajada parvarishlash.

C. Maxsus sharoitlardagi parvarish.

D. Parvarish davomida qo'shimcha mutaxassislar ishtirokini talab etadi.

E. Spetsifik kasalligi bo'lgan bemorni parvarishlashda qo'shimcha choralarini qo'llash.

7. Yurak-tomir tizimi kasalligi bilan og'ir nafas qilishi bo'lgan bemorga nima maqsadda o'rinda yarim o'tirish holati tavsiya etiladi?

A. Kichik qon aylanishi tizimida dimlanish holati kamayadi.

B. Bunday holatda ovqatlantirish ma'qulroq.

C. Til orqaga ketishining oldi olinadi.

D. Asfiksiyaning oldi olinadi.

E. O'pka shishi rivojlanishi profilaktikasi.

8. Funktsional krovatni asosiy mohiyati nimadan iborat?

A. Uni yengil va tez harakatga keltirsa bo'ladi.

B. Bemorga eng maqbul va qulay holatni berishga imkon beradi.

C. Tibbiy hodimlarga davolash va parvarish qilish funktsiyalarini bajarishga yordam beradi.

D. Yotoq yaralar profilaktikasi.

E. Uni tez harakatga keltirsa bo'ladi.

9. Jarrohlik parvarish nechaga bo'linadi?

A. umumiy

B. ikkiga: umumiy va maxsus.

C. uchga: umumiy, kunlik va maxsus.

D. ikkiga: kunlik va maxsus.

10. Operatsiyadan keyingi davr

A. operatsiya sohasidagi nekroz o'choqlari va to'qimalar jarohati

B. psixologik (huxiy) stress

C. operatsiyadan keyingi jarohat zonasidagi og'riq

D. operatsiyadan so'ng bemorni to'liq sog'ayishi yoki nogironlikka o'tkazishgacha bo'lgan davr

Rasmi testlar:

1. Bemorni yuvish uchun suv harorati kerak boladi?



- A. 30-35°C
- B. 20-25°C
- C. 25-30°C
- D. 40-45°C

2. Sanitariya-gigiyena rejimiga quyidagilar qaysilari kiradi ?



- A. Nozokomial infektsiyani oldini olish.
- B. Binolarni tozalashni tashkil qilish;
- C. Bemorning gigiyenasini ta'minlash;
- D. Hamma javoblar to'g'ri

3. Rasmda ko'rsatilgan funksional krovat qaysi holatlarda qo'llaniladi?



- A. Shishlarda
- B. Bosh miya travmalarida
- C. Barcha og'ir bemorlar uchun
- D. Yurak kasalliklarida
- E. Yuqori isitma vaqtida

4. Rasmda ko'rsatilgan jarayon nima deb ataladi?



- A. Infeksiya profilaktikasi
- B. Bemor parvarishi
- C. Bemorni xo'qna qilish
- D. To'shakni almashtirish
- E. Bemorni davolash

5. Rasmda ko'rsatilgan jarayon nima deb ataladi?



- A. Bemorni davolash
- B. Infeksiya profilaktikasi
- C. Bemorni xo'qna qilish
- D. Bemor parvarishi
- E. To'shakni almashtirish

XIRURGIYADA ANTISEPTIKA ASOSLARI. ANTISEPTIKLARNI QO'LLASH USULLARI.

Antiseptika – jarohat, patologik o'choq yoki umuman organizmdagi mikroorganizmlarga qarshi kurashishga qaratilgan chora tadbirlar yig'indisi.

Tarixiy izoh. Jarohatlar yiringli asoratlarning etiopatologik faktorlarini to'g'ri baxolagan olim shubxasiz M.I. Pirogovdir (6-rasm).



6-rasm. M.I. Pirogov

Shunday qilib M.I. Pirogov yiringli-septik kasalliklarning etiologiyasida mikroorganizmlarning tutgan o'rni aniqlangunga qadar, chaqiruvchi faktor atrof muxitda, jarrox qo'llarida, instrumentlarda, parvarish buyumlarida bo'lgan qandaydir ko'rinmas, organik narsalar ekanligi haqida xulosaga keldi.



7-rasm. I.F.Zimmelveys

Qrim urushi yillari (1853 – 1856 yy.) buyuk olim shunday deb yozgan edi: *«Shuni ta'kidlash mumkinki, yaradorlarning ko'pchiligi jarohatning o'zidan emas, balki gospital infeksiyadan vafot etishadi».*

Shunday vaqt keladiki, travmatik va gospital infeksiyani chuqur o'rganish jarrohlik faniga yangi bir rivojlanish yo'lini ochib beradi...

Venger vrachi I.F. Zimmelveys 1847 yilda antiseptikani amalda qo'llay boshladi (7-rasm). U tug'ayotlan ayolning tug'ruq yo'llarini, akusherning qo'llarini, instrumentlar va tug'ruq yo'llari bilan kontaktda bo'lgan barcha vositalarni xlorli ohak eritmasi bilan ishlov berishni taklif etdi. Bu usul akusherlik klinikasida o'limni uch barobarga kamaytirdi.

Xirurgiyada antiseptika usullarining ishlab chiqilishiga 1863 yil Lui Paster tomonidan bijg'ish va chirish jarayonlarining ochilishi ilmiy asos bo'lib xizmat qildi.

Lui Paster bu jarayonlarni spetsifik mikroorganizmlar chaqirishini kashf etdi (8-rasm).



8-rasm. Lui Paster



9-rasm. Djozef Lister

Ingliz xirurgi Djozef Lister operatsiyadan keyingii bemorlar o'limining sabablarini o'rganar ekan, bu asoratlarga operatsion jarohatga tushgan mikroorganizmlar sababchi degan xulosaga keldi va 1867 yil antiseptika usullarini tashkil qiladigan chora – tadbirlar yig'indisini ishlab chiqdi (9-rasm).

1. Operatsion xonaga maxsus apparat yordamida karbol kislota eritmasi purkalar edi (10-rasm).



10-rasm. Operatsion xonaga maxsus apparat yordamida karbol kislota eritmasi purkalmogda

2. Xirurgik instrumentlar, chok va bog'lov materiallari, shuningdek xirurg qo'li 2 – 3% li karbol kislota eritmasi bilan dezinfeksiya qilinar edi.

3. Operatsion maydonga 2 – 3% li karbol kislota eritmasi bilan ishlov berilgan.

4. Operatsiyadan so'ng operatsion jarohat 5% li karbol kislota shimdirilgan maxsus bog'lama bilan yopilgan.

Lister usulining amaliyotga tadbiiq etilishi bilan xirurgiya rivojlanishining antiseptik davri nomi bilan ataluvchi yangi bosqichiga qadam qo'yildi. Biroq Lister antiseptika usulining ijobiy tomonlari bilan bir qatorda salbiy tomonlari ham kuzatila boshlandi. Operatsiya xonasi havosidagi karbol kislota bug'laridan nafas olish tibbiy personal va bemorning zaharlanishiga, xirurg qo'lini 2 - 3% li karbol kislota eritmasi bilan qayta ishlash terini kuchli ta'sirlantirishiga, operatsion jarohatga qo'yilgan karbol kislota eritmasi shimdirilgan bog'lama mikroblarni o'ldirishi bilan bir qatorda to'qimalarning keng nekroziga ham sababchi bo'ldi.

Mikrobiologiyaning keyingii rivojlanishi natijasida mikroorganizmlarni yuqori harorat ta'sirida ham o'ldirish mumkinligini isbotladi. Xirurglar Subbotin M.S. va E.Bergman xirurgik instrumenlar, operatsion choyshablar, bog'lov va chok materiallardagi mikroblarni qaynoq suv va bug' bilan yo'qotish mumkinligini isbotlab berdilar. E.Bergman va uning shogirdi Shimmelbush xirurgiyada aseptikani ishlab chiqishdi. 1980 yilda Berlinda o'tkazilgan xirurglar X xalqaro kongressida E.Bergman dokladidan so'ng aseptika to'liq tan olindi. Dastlabki yillarda aseptikani amaliy xirurgiyada antiseptik vositalarsiz faqat o'zini qo'llash uning kamchilik tomonlarini ham ochib berdi. Antiseptik vositalardan vos kechish o'zini oqlamadi. Ximiyaning rivojlanishi bilan kam zaharli antiseptik vositalar yaratildi, bu esa aseptikani turli antiseptik vositalar bilan birga qo'llashga imkon yaratdi.

Antiseptikaning quyidagi usullari mavjud:

1. *Mexanik antiseptika*

2. *Fizik antiseptika*

3. *Ximiyaviy antiseptik*

4. *Biologik antiseptika*

Bu antiseptik usullarning bir nechtasi birgalikda bajarilishi *aralash antiseptika* deb nomlanadi.

Mexanik antiseptika. Jarohatda bakteriyalar rivojlanshining oldini olishda mexanik usullar bilan mikroblar uchun oziq muxit bo'lishi mumkin bo'lgan nekrozlangan to'qimalarni, yot jismlarni jarohatdan olib tashlashning ahamiyati katta. Buning uchun jarohatga birlamchi xirurgik ishlov beriladi va birlamchi xirurgik chok qo'yiladi: jarohat qirralari va devorlari tubiga qadar sog'lom to'qima chegarasida kesib olinadi va to'qima butunligi chok qo'yilib tiklanadi.

Jarohatga mexanik ishlov berish usulini 1836 yil A.A. Charukovskiy qo'llay boshlagan.

Fizik antiseptika. Jarohatda bakteriyalar rivojlanishiga noqulay sharoitlar tug'dirish, ularning toksinlari va o'qimalar parchalanish maxsulotlari so'rilishini kamaytirishga qaratilgan fizikaviy omillarni qo'llash fizik antiseptikani tashkil qiladi.

Fizik antiseptikaning asosiy vazifasi – jarohat ajralmasining bog'lamaga chiqishi va so'rilishi gigroskopiklik hodisaga asoslangan, bu tibbiy dokaning o'zicha jarohat ajralmasini (ekssudat) ni shimib olish xususiyati orqali amalga oshadi. (M.Ya. Preobrajenskiy, 1894).

Fizik antiseptika turlari quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval)

1-jadval

Fizik antiseptika turlari.



Yiringli yaradan yoki bo'shliqdan ekssudatni faol usulda chiqarish usuli drenajlash nomini olgan. U drenaj naychalar yordamida amalga oshiriladi. *Drenaj naychaning* eng ko'p tarqalgan turi har xil uzunlikda va kenglikdagi doka pilikcha hisoblanadi.

Yiringli yara yoki bo'shliqlarni drenajlash uchun drenaj naycha sifatida rezina naycha va pilikchalar ishlatiladi. Ba'zan klinik amaliyotda jarohatlarni drenajlash uchun rezina va doka drenajlar birgalikda ishlatiladi.

Doka ishlatish uning gigroskopik hususiyati borligiga va bu hususiyatning *natriy xloridining gipertonik (5-10%) eritmasi* shimdirilganida kuchayishiga asoslangan. Jarohat bo'shlig'ida siyrak joylashgan doka drenaj uning chekkalarini ochib, yiringning to'planishiga to'sqinlik qiladi. Drenajlanganda jarohatdagi ekssudat passiv (bog'lamga, jarohatda Byulau drenajiga) va faol-vakkum Redon drenajiga chiqishi mumkin.

Jarohatlarni ochiq usulda davolash, ultrabinafsha nurlari, lazer nurlari va ultratovush ishlatish ham fizik antiseptikaga kiradi.

Jarohatlarni ochik usulda davolashda to'qimalarning qurishi hisobiga mikroblar rivojlanishi uchun noqulay sharoit tug'iladi, ayniqsa jarohat yuzasi maxsus apparatlar yordamida yaratiladigan abakterial muxit sharoitida bo'lsa.

Drenaj naychalar

Jarohatlardagi to'plangan yiring va umuman jarohat suyuqligini chiqarib yuborish uchun fransuz xirurgi Shassanyak tomonidan taklif qilingan qizil kauchukdan yasalgan yon teshikchalari bo'lgan naychalar ishlatiladi.

Oldinlari shishadan, alyuminiydan, qalaydan yasalgan naychalar ishlatilgan. Hozirgi davrda drenajlarni ishlatish cheklangan bo'lib, asosan tananing sun'iy qilingan yoki tabiiy bo'shliqli jarohatlariga nisbatan ishlatiladi. Masalan, plevra bo'shlig'ida ko'p miqdorda yiring yig'ilishi – empiemada plevra bo'shlig'iga drenaj naycha o'rnatiladi va so'ruvchi apparatga ulanadi. Undan tashqari drenaj naychalar dori vositalari bilan kamaytirib bo'lmaydigan umumiy shishlarda ham ishlatila boshlandi. Odatda naychalar yo'g'on-ingichkaligiga qarab 16 raqamda tayyorlanadi. Ularni dezinfeksiya qilishga suvda yuvish (silkitish bilan), sulemaning 0,5% eritmasiga 3 hafta davomida solib qo'yish bilan erishiladi. Drenaj naychalarning yon teshikchalari

(aylanasining 1/3 qismidan oshmasligi lozim) bevosita o'ratishdan oldin qaychilar yoki maxsus qirqqichlar yordamida qilinadi. Uncha katta bo'lmagan jarohatlar, oqmalar va boshqalarga drenaj naychalarning o'rniga, uzunasiga kesilgan naychalardan yasalgan tarnovchalar o'rnatiladi. Drenaj naychalar u yoki bu tomonga siljib ketmasligi uchun jarohat yuzasiga biror usulda mahkamlanadi.

Byulau drenaji (G. BULAU, 1835-1900, nemis shifokori) – naysimon drenaj yordamida plevra bo'shlig'idan suyuqlik va havoni chiqarish usuli bo'lib, u ko'krak qafasi devori orqali troakar yordamida o'rnatiladi va tutash idishlar tamoyilida ishlaydi. Drenajning tashqi uchida rezina qo'lqopdan yasalgan klapan bo'lib, havoning qayta kirishiga to'sqinlik qiladi.

Eng ko'p tarqalgan drenaj turlariga Redon drenaji kiradi.

Ultrabinafsha nurlari bakteritsid ta'sir qiladi, immunitetni stimullaydi va jarohatlardagi tozalanish, regeneratsiya jarayonlarini jadallashtiradi.

Past energiyali lazer nurlari to'qimalardagi kimyoviy reaksiyalarni, qizil va infraqizil nurlanishga bo'lgan sezgirlikni o'zgartiradi.

Boshqa fizik omillardan klinik amaliyotda *diadinamik tok (bernar toki)*, *har xil antiseptik vositalarni elektroforez qilish*, *rentgenoterapiya* keng ishlatilishga joriy qilindi.

Ultratovushning bakteriotsid ta'siri kavitatsiya jarayoni – mikroob hujayrasiga bosim impulsining tovush tezligidan yuqori tezlik bilan ta'sir qilishiga asoslangan.

To'qimalarda lazer nurining yuqori energiyasi ostida quyidagi o'zgarishlar sodir bo'ladi:

- 1) harorat keskin oshib, termik kuyishni eslatadi;
- 2) qisqa vaqt davomida qattiq va suyuq moddalarning gazsimon holatga o'tishi natijasida hujayra ichi va to'qima ichi bosimi keskin ortadi, ya'ni «portlash samarasi» sodir bo'ladi;
- 3) elektr ko'rsatkichlarni, solishtirma og'irlikni, to'qimalar dielektrik o'tkazuvchanligini o'zgartiruvchi elektr maydon paydo bo'ladi, natijada ularning yuzasida toksinlarning so'rilishiga to'sqinlik qiluvchi, steril koagulyatsion parda paydo bo'ladi.

Lazer nurlari

Tibbiyotda lazer nurlarining ikki - yuqori va past energiyali turi ishlatiladi.

Yuqori energiyali lazer nurlari quyidagi ta'sirlarga ega:

To'qimalardagi harorat bir necha yuz gradusga yetadi. To'qimalarda kuzatiluvchi o'zgarishlar termik kuyishni eslatadi;

To'qimalarda paydo bo'ladigan «portlash samarasi» - «zarba oqimi» qattiq va suyuq moddalarning bir lahzali gaz holatiga o'tishi natijasida sodir bo'ladi. Buning natijasida esa hujayra va to'qima ichi bosimi keskin oshadi;

Lazer nurlari yuqori energiyasi to'qimalarda elektr maydoni paydo bo'lishiga olib kelib, elektr ko'rsatkichlarini, solishtirma og'irligi, dielektrik o'tkazuvchanlik va boshqalarni o'zgarishi ko'rinishida elektrokimyoviy samaraga sabab bo'ladi. Natijada to'qimalar yuzasida steril koagulyatsion parda paydo bo'lib, toksinlarni so'rilishiga va infeksiyaning tarqalishiga to'sqinlik qiladi.

Past energiyali lazer atayin to'qimalardagi reaksiyalarni o'zgartiradi.

Kam quvvatli lazer qizil va infraqizil nurlanishga sezgir kimyoviy reaksiyalarning optik katalizatori rolini o'ynaydi.

Monoxromatik qizil rang yallig'lanishga qarshi va qon tomirlarni kengaytiruvchi ta'sir ko'rsatadi, modda almashuv jarayonlarini yaxshilaydi, suyak ko'migi va taloqdagi yosh hujayralar ko'payish jarayonini, qon tomirlarining o'sishi va rivojlanishini tezlashtiradi.

Abakterial boshqariluvchi muhit — jarohat va kuyishlarni ochiq davolash usuli bo'lib, yara jarayoni uchun mo'tadil, lekin jarohatda ko'payuvchi mikroblar uchun noqulay bo'lgan steril muhit va mikroklimat yaratishga asoslangan. Abakterial boshqariluvchi muhit sharoitida davolash faol xirurgik muolajalar bilan hamkorlikda (jarohatdagi hayotga layoqatini yo'qotgan to'qimalarni kesib olish, munosib drenajlash) olib borilib, keyinchalik jarohat yuzasi choklar yordamida yoki teri plastikasi yo'li bilan bekitiladi. Abakterial boshqariluvchi muhit uchun maxsus aeroterapevtik qurilmalar yaratilgan. Atmosfera havosi aeroterapevtik qurilmalarda filtrlangandan keyin kichik dispers changdan, mikroblardan ozod bo'ladi va sterilga aylanadi. Keyinchalik harorat, bosim, havo oqimi kattaligi va uning nisbiy namligi har bir bemor uchun alohida sozlanadi. Abakterial boshqariluvchi muhitning barcha fizik omillari oshiqcha arterial qon

oqimini kamaytiradi, venoz qon oqimini tezlashtiradi, to'qimalar shishini yo'qotadi. Shu tariqa jarohat yuzasida yumshoq, osongina olinadigan qoplama paydo bo'ladi. Mikroblari bo'lgan qoplamani muntazam ravishda olib tashlash jarohatni tozalanishiga olib keladi. Abakterial boshqariluvchi muhitda davolash grammanfiy patogen mikroflora ko'payish darajasini qisqa vaqtda (5-7 sutka) 4 – 6 baravariga kamaytiradi. Jarohatdagi 1 g to'qimaga to'g'ri keluvchi mikrob tanachalarining soni keskin kamayadi.

Ximiyaviy antiseptika.

Ximiyaviy antiseptika – jarohatda, patologik o'choqda, yoki bemor organizmida va o'choq atrof muxitidagi mikroblarni kimyoviy moddalar bilan yo'qotishga aytiladi. Bakteriotsid yoki bakteriostatik ta'sirga ega bo'lgan turli ximiyaviy moddalarni qo'llash ximiyaviy antiseptikani tashkil qiladi. Ximiyaviy antiseptiklarning umumiy va mahalliy ta'siri mikroorganizm va uning to'qima hujayralari uchun yetarlicha xavfsiz va mikroblar uchun o'ldiruvchi bo'lishi kerak. Antiseptikalar mikroblarga oksidlovchi, adsorbtsiyalovchi, oqsillarni denaturatsiyalovchi, degidrotatsiyalovchi va boshqa ta'sirlarga ega. Hozirgi vaqtda ko'p sonli antiseptiklar qo'llaniladi. Quyida keltirilgan gruppalardagi moddalar hammadan ko'p ma'lum.

Ximiyaviy antiseptiklarning asosiy guruhleri

Galoidlar guruhi

Xloramin B. 1 – 3 % li eritmasini qo'llarni, metal bo'lmagan instrumentlarni, kateter, drenajlar va perchatkalarni dezinfeksiyalash uchun qo'llaniladi.

Yod. Yodning 5 – 10% li spirtli eritmasi - kuchli antiseptik vosita bo'lib, bakteriotsid, bakteriostatik, kuydiruvchi va oshlovchi ta'sirga ega.

Yodonat. 1% li eritmasi operatsion maydonga ishlov berishda qo'llaniladi.

Yodopiron. 0,1 % li eritmasi xirurg qo'liga ishlov berishda, 1% li eritmasi operatsion maydonga ishlov berishda, 0,5 – 1% li eritmasi esa yiringli jarohatlarni davolashda qo'llaniladi.

Lyugol eritmasi (yod – 1 qism, kaliy yodit – 2 qism, suv – 17 qism). Ketgutni sterillash, bakteriya tashuvchilarda tomoq va halqumni artishda ishlatiladi. Tireotoksik bo'qoq bilan bemorlarni operatsiyaga tayyorlashda 10 – 15 tomchidan 2 maxal ichkariga tavsiya qilinadi.

Yodobak. Preparat shilliq pardalar, teri, jarohatlar, yara, yotoq yaralar, operatsion maydonga ishlov berishda qo'llaniladi. Bakteriotsid, sporotsid va virulitsid xususiyatga ega. Sil mikobakteriyalarini o'ldirish xususiyatiga ega.

Xloran, xlorantoin. Bu dezinfeksiyalovchi eritmalar tayyorlashga mo'ljallangan poroshok yoki tabletka ko'rinishidagi vosita.

Yodditserin. Yiringli infeksiyani davolashda qo'llaniladi.

Oksidlovchilar

Vodorod peroksidi. Vodorod peroksidining 3% li suvli eritmasi jarohatlarga ishlov berishda qo'llaniladi. 6% li eritmasi esa xirurgik instrumentlarni dezinfeksiyalashda qo'llaniladi.

Kaliy permanganati. Bu kuchli oksidlovchi. Suvli eritmalarini og'izni chayish, oshqozonni yuvish, yiringli jarohatlarga ishlov berish (0,1 – 0,5%) va kuyishlarni davolashda (2 – 5%) qo'llaniladi.

Og'ir metal tuzlari

Sulema eritmasi (1:1000 – 1:2000) kuchli bakteriotsid ta'sirga ega. Ipakni sterillashda, terini, choyshablar, kiyimlar, qo'lqoplar, metal kateterlar, bemorlar parvarishi jixozlarini dezinfeksiya qilishda qo'llaniladi.

Simob oksitsianidi – dezinfeksiyalovchi vosita bo'lib, 1:1000 va 1:5000 nisbatda siydik pufagini yuvishda, optik instrumentlar, sistoskop, rektoskop, laparoskoplarni dezinfeksiya qilishda qo'llaniladi.

Diotsid. Diotsidning 1:5000 nisbatdagi eritmasi qo'lga ishlov berishda qo'llaniladi. 1:1000 nisbatdagi eritmasi Tikuv iplari (ketgut), jixozlar, instrumentlarni sovuq sterillashda qo'llaniladi.

Kumush nitrat. 0,1 – 0,2% li eritmasi jarohatlarni va yiringli bo'shliqlarni yuvishda, 1 – 2% li eritmasi yara va yoriqlarni davolashda, 5 - 10% lisi esa ortiqcha granulyatsiyani kuydirishda qo'llaniladi.

Protargol. 1 – 5% li eritmasi urologik amaliyotda shilliq qavatlarga surtish uchun qo'llaniladi.

Kollargol (kolloidli kumush). 0,2 – 1% li eritmasi jarohatlarni davolashda qo'llaniladi. 2% li eritmasi esa sepsisda vena ichiga yuboriladi.

Noorganik kislota va ishqorlar

Borat kislotasi. 2 – 3% li suvli eritmasi ko'k yiring tayoqchasi bilan infitsirlangan yiringli jarohatlar, oqmalar, bo'shliqlarni yuvishda qo'llaniladi.

Nashatir spirti eritmasi. 0.5% li eritmasi mikroblarga qarshi va sporatsid ta'sirga ega. Spasokukotskiy – Kochergin usulida xirurg qo'liga ishlov berishda qo'llaniladi.

Natriy gidrokorbonat eritmasi. 2% li eritmasi qaynash haroratini 104 – 106°C gacha oshiradi, meditsina instrumentlarini sterillashda qo'llaniladi. 1% li nashatir spirti va 3% li vodorod peroksidi bilan aralashmasi esa drenajlar va kateterlarni zararsizlantirishda qo'llaniladi.

Spirtlar

Etil spirti. 70% li eritmasi dezinfeksiya qilishda, 96% li eritmasi esa xirurg qo'llarini oshlashda, steril ipakni saqlashda, o'tkir tig'li instrumentlarni dezinfeksiya qilishda qo'llaniladi.

Aldegidlar

Formaldegid eritmasi yoki formalin (36,5 – 37,8% formaldegid saqlovchi suvli eritma). Kuchli bakteritsid ta'sirga ega. Rezina qo'lqoplar, drenajlar, tibbiy instrumentlarni dezinfeksiya qilishda qo'llaniladi.

Lizofom. 40 qism formalin, 40 qism kaliyli sovun, 20 qism etil spirtidan tashkil topgan. Dezinfitsirlovchi va dezodorirlovchi ta'sirga ega. 1 – 3% li eritmasi tibbiy instrumentlarni va xirurg qo'llarini dezinfeksiya qilish uchun qo'llaniladi.

Karzoleks – Bazik. Bu vosita termolabil va termostabil tibbiy asboblarni dezinfeksiya qilish uchun mo'ljallangan.

Fenollar

Fenol, yoki karbol kislotasi. 2 – 3% li eritmasi drenajlar, kateterlar, qo'lqoplar, tibbiy asboblarni dezinfeksiya qilishda qo'llaniladi.

Lizol. 10% li eritmasi choyshablarni dezinfeksiya qilish, operatsion va bog'lov xonalarini artishda, 1 – 3% li eritmasi esa qo'llarni dezodoratsiya qilishda qo'llaniladi.

Qayin qatroni (degot berezovyy). Dezinfeksiya qilish xususiyatiga ega bo'lib, jarohatlarni davolashda qo'llaniladigan Vishnevskiy malhami tarkibiga kiradi.

Pikrin kislotasi. 5% li eritmasi terini dezinfeksiya qilishda qo'llaniladi.

Ixtiol. 5 – 20% li malham, shuningdek shamchalar ko'rinishida qo'llaniladi. Yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega.

Uch tarkibli eritma (Krupenin eritmasi). Tarkibi: karbol kislota (3 g), natriy korbonat (15 g), formalin (20 g), distillangan suv (100 g). O'tkir tig'li asboblarni, yelim buyumlarni, polietilen naychalarni sterillashda qo'llaniladi.

Organik kislotalar

Salitsil kislota. 1 – 2% li spirtli eritmasi, 2 – 5% li upa va 1 – 10% li malhamlari antiseptik vosita sifatida qo'llaniladi.

Pervomur (S – 4 preparati). 2,4% li eritmasi qo'llarga va operatsion jarohatga ishlov berishda qo'llaniladi. 4,8% li eritmasi bilan qo'lqoplar, xirurgik asboblarni va tikuv iplari sterillanadi.

Bo'yovchi moddalar

Brilliant yashili. 1 – 2% li suvli yoki spirtli eritmasi ketgutni sterillash, operatsion maydon va jarohat yuzasiga ishlov berishda qo'llaniladi.

Etakridin laktat (rivanol). 0,05 – 0,1% li suvli eritmasi piodermiyani davolashda qo'llaniladi.

Metilen ko'ki. 1 – 3% li spirtli eritmasi yuzaki jarohatlarga ishlov berishda va piodermiyani davolashda qo'llaniladi.

Detergentlar

Serigel. Qo'lga ishlov berishda qo'llaniladi.

Degmitsid. 1% li eritmasi qo'lga va operatsion maydonga ishlov berishda qo'llaniladi.

Xlorgeksidin. Xlorgeksidin biglyukonatning 20% li suvli eritmasi ko'rinishida ishlab chiqariladi. Qo'lga ishlov berishda 5% li spirtli eritmasidan foydalaniladi.

Rokal. 1:1000 nisbatdagi eritmasi xirurg qo'lga ishlov berishda, 1% li eritmasi operatsion maydonga ishlov berishda, 1:1000 nisbatdagi eritmasi xirurgik asboblarga ishlov berishda, 10% li eritmasi rezinali qo'lqoplarni sterillashda qo'llaniladi.

Tabiiy kelib chiqishga ega organik moddalar

Xlorofillipt. Yiringli jarohatlarni davolashda qo'llaniladi. 1% li spirtli eritmasi 1:5 nisbatta 0,25% li novokoin eritmasi bilan aralashtiriladi.

Nitrofuran unumlari

Furatsilin (0,1 g va 0,02 g li tabletkalar ko'rinishida ishlab chiqariladi). 0,02% li suvli eritma yoki 0,066% li spirtli eritma ko'rinishida yiringli jarohatlarni davolashda va 0,2% li malham

ko'rinishida degidratatsiya fazasidagi jarohatlarni, yotoq yaralarni, kuyishlarni davolashda qo'llaniladi.

Furazolidon (trioxofurin, 0,05 g li tabletka). Ichish uchun.

Furagin. Ichish uchun 0,05 g li tabletka ko'rinishida ishlab chiqariladi.

Furadonin. Ichish uchun 0,05 g li tabletka ko'rinishida ishlab chiqariladi.

Klinik amaliyotda shuningdek **nitrofurantoin**, **aponitrofurantoin** (**nifurantin**), **nifurtoinol** (**levantina**), **nifuroksazidlar** qo'llaniladi.

Sulfanilamid preparatlar

Sulfanilamidlar aktiv mikrobgga qarshi vositalar xisoblanadi.

Ular bakteriostatik ta'sirga ega, ammo yuqori konsentratsiyalarda bakteriotsid ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Terapevtik ta'siriga ko'ra sulfanilamidlar 2 guruhga bo'linadi:

1) tizimli infeksiyalarda qo'llaniladigan va ichkariga buyuriladigan preparatlar;

2) ichak infeksiyalarida qo'llanadigan preparatlar: **sulgin**, **suksinilsulfatiazol**, **srtalazol**, **salitsilazosulfapiridin** va boshqalar.

Ta'sir davomiyligiga ko'ra:

1. *Qisqa muddatli ta'sirga ega vositalar:* **norsulfazol** (0,5 g li tabletka), **norsulfazol-natriy** (5% li eritma), **sulfazin** (0,5 g li tabletka), **sulfadimezin** (0,5 g li tabletka), **sulfatsil-natriy** (30% li eritma), **sulfafurazin** (0,5 g li tabletka), **etazol** (0,25 va 0,5 g li tabletka), **etazol-natriy** (10% va 20% li eritma).

2. *O'rta muddatli ta'sirga ega vositalar:* **sulfametoksazol** (0,5 g li tabletka), **sulfazimozin** (0,5 g li tabletka), **sulfafenazol** (0,5 g li tabletka).

3. *Uzoq muddatli ta'sirga ega vositalar:* **sulfadimetoksin** (**madribon**; 0,2 va 0,5 g li tabletkalar), **sulfametoksin** (0,5 g li tabletka), **sulfapiridazin-natriy** (10% li eritma), **sulfamonometoksin** (0,5 g li tabletka), **sulfalen** (**kelfizin**; 0,2 g li tabletka), **sulfalen** (18,5% li eritma), **Trimetoprim**.

Sulfanilamidlar shuningdek malhamlar ko'rinishida ham qo'llaniladi: 10% li streptotsidli malham va boshqalar.

Xinoksalinlar

Dioksidin. 1% li suvli eritmasi yiringli jarohatlarni yuvishda, 5% li malhami esa kuyishlar va trofik yaralarni davolashda qo'llaniladi.

Sepsisda 0,5% li eritmasi vena ichiga tomchilab yuboriladi (preparat 5% li glyukoza yoki natriy xloridning izotonik eritmasiga aralashtirib yuboriladi).

Xinoksidin. Yiringli yallig'lanish jarayonini davolashda qo'llaniladi.

Nitronidazol unumlari

Metronidazol (0,25 va 0,5 g li tabletkalar, 0,5 g li shamchalar, 100 ml li flakonlarda 500 mg metronidazol saqlovchi eritmalar ko'rinishida ishlab chiqariladi).

Naftiridinlar va xinolinlar

Nevigramon (nalidiksovaya kislota, negrali; 0,5 g li kapsula va tabletkalar ko'rinishida). Siydik chiqarish yo'llarining infeksiyalarida qo'llaniladi.

Gramurin (oksolinovaya kislota: 0,25 g li tabletkalar). Siydik chiqarish yo'llarining infeksiyalarida qo'llaniladi.

8-oksixinolin xosilalari

Xlorxinaldol (kvezil, xlorxinaldin; 0,1 g li tabletkalar). Intestopan (0,2 va 0,04 g li tabletkalar). Ichak infeksiyalarida qo'llaniladi.

5-NOK (nitroksolin, nibiol, nitroks; 0,05 g li tabletkalar). Siydik chiqarish yo'llarining infeksiyalarida qo'llaniladi.

Yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega bo'lgan preparatlar.

Dimeksid (10 va 25 ml li ampulalarda, 50 va 100 ml li flakonlarda chiqariladi). 20 - 30% li dimeksid eritmasi chuqur kuyishlar va jarohatlarni davolashda, 25 - 50% li eritmasi kompresslar uchun, 10 - 15% li eritmasi mikroklizmalar uchun qo'llaniladi.

Mefenamin natriyli tuzi (0,1 - 0,2% li suvli eritmasi yoki 1% pasta ko'rinishida chiqariladi).

Antiseptik ta'sir ko'rsatuvchi boshqa vositalar

Sterilium – qo'llarni xirurgik va gigiyenik dezinfeksiya qiluvchi vosita. Bakteritsid va fungitsid ta'sir ko'rsatadi. Gepatit V virusi, herpes virusi, rotavirus, odam immuniteti tanqisligi virusi (OIV)ni inaktivirlash xususiyatiga ega. Sil mikobakteriyalarini o'ldiradi.

Sterilium virugard – qo'llarni dezinfeksiya qiluvchi vosita. Bakteritsid, fungitsid va virulitsid ta'sirga ega (OIV, hepatit V virusi va boshqalar). Sil mikobakteriyalarini o'ldiradi.

Kutasept – operatsion maydonga operatsiyadan oldin va operatsiyadan keyin ishlov berishga mo'ljallangan (rang berilgan)

vosita. Bakteritsid, fungitsid, virulitsid ta'sirlarga ega. Sil mikobakteriyalarini o'ldiradi.

Kutasept F – teri va jarohatga operatsiyadan oldin va operatsiyadan keyin ishlov berishga mo'ljallangan (ranglanmagan) vosita. Bakteritsid, fungitsid, virulitsid ta'sirlarga ega.

Yodobak – teri, shilliq pardalar va boshqalarni dezinfeksiya qilish uchun vosita. Bakteritsid, fungitsid, sporotsid va virulitsid ta'sirga ega. Sil mikobakteriyalarini o'ldiradi.

Baktolin Bazik – qo'llar va tanani yuvishga mo'ljallangan universal vosita. O'zida sovun va ishqor saqlamaydi.

Biologik antiseptika

Biologik antiseptikaning asoschisi Lui Paster. Bakteriotsid yoki bakteriostatik ta'sirga ega bo'lgan turli biologik moddalarni qo'llash biologik antiseptikani tashkil qiladi. Biologik antiseptiklarning umumiy va mahalliy ta'siri makroorganizm va uning to'qima xo'jayralari uchun yetarlicha xavfsiz va mikroblar uchun o'ldiruvchi bo'lishi kerak.

Biologik antiseptiklarga **antibiotiklar, bakteriofaglar va anatoksinlar** kiradi. Ular jarohat va uning atrofida bakteriyalar rivojlanishiga noqulay sharoit yaratib, toksinlar va to'qimalar parchalanish maxsulotlarining so'rilishini kamaytiradi.

Bu guruhga yana **proteolitik fermentlar** ham kirib, ular o'lgan to'qimalar, fibrin va yiringni eritib, jarohatning tezroq tozalanishiga yordam beradi, shuningdek shishni kamaytiradi va yallig'lanishga qarshi ta'sir ko'rsatadi.

Antibiotiklar biologik antiseptiklar hisoblanib, ular mikroob hujayralari moddalar almashinuvining turli bosqichlariga ta'sir ko'rsatadi.

Antibiotiklarning quyidagi guruhlari mavjud.

Ftorxinollar

Oksoflatsin (tarivid, zinotsin, menefloks; 0,2 g li tabletkalar).

Pefloksatsin (abaktal, peflobid; 0,5 g li tabletkalar; 0,4 g pefloksatsin saqlovchi 5 ml li ampulalar).

Siprofloksatsin (arfloks, afenoksin, ifitsipro, sifloks, layprokvin, sifran, sipronal; 0,25; 0,5 va 0,75 g li tabletkalar; 0,2% li eritma 50 va 100 ml li flakonlarda; 1% li eritma 10 ml li ampulalarda, 5% li glyukoza eritmasiga qo'shib yuboriladi). Klinik amaliyotda shuningdek lomefloksatsin ham qo'llaniladi.

Penitsillin guruhi

Benzilpenitsillinning natriyli (kaliyli) tuzi (250000, 500000 va 1000000 TB li flakonlarda chiqariladigan kukun).

Benzilpenitsillinning novokainli tuzi (300000, 600000 va 1200000 TB li flakonlarda chiqariladigan kukun).

"Novotsin" benzilpenitsillinning novokainli va natriyli tuzining aralashmasi (300000, 600000, 1200000 va 2400000 TB li flakonlarda kukun ko'rinishida ishlab chiqariladi).

Bitsillin-3 (300000, 600000, 900000 va 1200000 TB li flakonlarda kukun ko'rinishida).

Bitsillin-5 (1500000 TB li flakonlarda kukun ko'rinishida).

Fenoksimetilpenitsillin (0,1 va 0,25 g li tabletka, flakonlarda 0,3, 0,6 va 1,2 g li kukun).

Oksatsillin natriyli tuzi (flakonlarda 0,25 va 0,5 g kukun, 0,25 va 0,5 g li tabletka ko'rinishida).

Dikloksatsilin natriyli tuzi (flakonlarda 0,125 va 0,25 g kukun ko'rinishida, 0,25 g kapsulalar).

Ampitsillin (0,25 g tabletka va kapsula, suspenziya tayyorlash uchun flakonlarda 5 g kukun ko'rinishida chiqariladi).

Ampitsillin trigidrat (0,25 va 0,5 g li tabletka va kapsula ko'rinishida).

Ampitsillinning natriyli tuzi (flakonlarda 0,25 va 0,5 g kukun).

Ampioks-natriy (flakonlarda 0,1, 0,2 va 0,5 g kukun).

Karbenitsillinning dinatriyli tuzi (flakonlarda 1 g kukun).

Unazin (sulfabaktam va ampitsillin aralashmasi; flakonlarda 0,75, 1,5 va 3 g kukun ko'rinishida).

Azlotsillin (flakonlarda 0,5; 1,0; 2,0; 4, 5 va 10 g kukun ko'rinishida).

Amoksitsillin (1 g li tabletka, 0,25 va 0,5 g kapsuly).

Amoksiklav (amoksitsillin + klavulanat; 0,375 va 0,625 g li tabletkalar, flakonlarda 0,6 va 1,2 g kukun ko'rinishida chiqariladi).

Sefalosporinlar guruhi

Sefaloridin (seporin; flakonlarda 0,25; 0,5 va 1,0 g kukun ko'rinishida).

Sefalozin (reflin, kefzol, sefazolin bioxemi; flakonlarda 0,25; 0,5; 1,0 va 2,4 g kukun ko'rinishida).

Sefalotin natriyli tuzi (keflin; flakonlarda 0,5; 1 va 2 g kukun ko'rinishida).

Sefaleksin (sporideks); 0,25 g li kapsulalar va 0,5 g li tabletkalar, flakonlarda 2,5 g kukun ko'rinishida (suspenziya tayyorlash uchun).

Sefuroksim (zinotsef, sefogen, zinat; flakonlarda 0,75 g li kukun ko'rinishida).

Sefuroksim-aksetil (flakonlarda 0,75 g kukun ko'rinishida).

Sefotoksin (flakonlarda 0,5 va 2 g kukun ko'rinishida).

Seftriakson (rotsefin, oframaks; flakonlarda 0,25 g kukun ko'rinishida).

Sefoperazon (medotsef; flakonlarda 0,5 – 1,0 g kukun ko'rinishida).

Seftazidim (fortum; flakonlarda 0,25; 0,5; 1 va 2 g kukun).

Sefpiram (flakonlarda 2 g kukun ko'rinishida).

Oframaks (flakonlarda 0,25 va 1 g kukun ko'rinishida).

Sefobid (flakonlarda 1 va 2 g kukun ko'rinishida).

Zinatsef (flakonlarda 250 mg kukun ko'rinishida).

Aminoglikozidlar

Neomitsin sulfat (1 va 0,25 g li tabletkalar, flakonlarda 0,5 g kukun ko'rinishida, 0,5% va 2% malham).

Monomitsin (flakonlarda 0,25 va 0,5 g kukun ko'rinishida, 0,25 g li tabletkalar).

Kanamitsina sulfat (flakonlarda 0,5 g kukun ko'rinishida, ampulalarda 5 - 10 ml 0,5% li eritma ko'rinishida).

Gentamitsina sulfat (flakonlarda 0,08 g kukun ko'rinishida, 1 va 2 ml li ampulalarda 4% li eritma).

Tobramitsin (brulamitsin; flakonlarda 40, 50, 75 va 80 mg kukun ko'rinishida).

Sizomitsin sulfat (1 ml li ampulalarda 5% li eritma).

Monomitsin (flakonlarda 0,25 va 0,5 g kukun ko'rinishida, 0,25 g li tabletkalar).

Amikatsin (2 ml li ampulalarda).

Neogelazol (neomitsin saqlovchi aerosol).

Sofradeks (neomitsin saqlovchi ko'z va quloq tomchilari).

Garozon (5 g li malham, 5 ml flakonax tomchilar, gentamitsin saqlovchi).

Makrolidlar

Eritromitsin (0,1 va 0,25 g li tabletkalar).

Eritsiklin (0,25 g li kapsulalar).

Oleandomitsin fosfat (0,125 g li tabletkalar).

Oletetrin – kombinirlangan preparat (oleandomitsin fosfat + tetratsiklin; 0,125 va 0,25 g li tabletkalar, 0,25 g li kapsulalar).

Makropen (400 mg li tabletkalar).

Klaritromitsin (250 mg li tabletkalar).

Linkomitsin guruhi

Linkomitsin gidrobromid (30% li eritma 1 ml li ampulalarda, kapsulalarda 0,5 g kukun).

Klindamitsin (0,25 va 0,075 g li kapsulalar).

Streptomitsin guruhi

Streptomitsin sulfat (flakonlarda 0,25 va 0,5 g kukun ko'rinishida).

Streptomitsin xlorkalsiyli kompleks (flakonlarda 0,1; 0,2 va 0,5 g kukun ko'rinishida).

Levomitsetin guruhi

Levomitsetin (0,25 va 0,5 g li tabletkalar, 0,25% li ko'z tomchilari, malham "Levomekol", "Levosin", aerosol "Levovinizol").

Levomitsetin stearat (0,25 g li tabletkalar).

Levomitsetin suksinat (flakonlarda 0,5 va 1 g li eruvchi kukun).

Sintomitsin (sintomitsin linimenti).

"Iruksol" (o'zida levomitsetin saqlaydi).

Tetratsiklin guruhi

Tetratsiklin (0,05 va 0,25 g li tabletkalar, 0,1% li ko'z malhami).

Tetratsiklin gidrokslorid (0,1 g li tabletkalar, ko'z uchun malham, flakonlarda 0,1 g kukun ko'rinishida va 0,25 g li kapsulalar).

Oksitetratsiklin digidrat (0,25 g li tabletkalar, "Oksizon" malhami).

Oksitetratsiklin gidrokslorid. "Poksizon" malhamini, "Oksitsiklazol", "Oksikort", "Geokorton-sprey" aerosollarini tayyorlash uchun qo'llaniladi.

Xlortetratsiklin gidrokslorid (10 g malham, ko'z uchun malham).

Morfotsiklin (flakonlarda 0,1 va 0,15 g kukun ko'rinishida).

Metatsiklin gidrokslorid (0,15 va 0,3 g li kapsulalar).

Doksitsiklin gidrokslorid (vibramitsin, 0,05 va 0,1 g li kapsulalar).

Rifampitsinlar

RifampitsinSV (rifotsin; 125 va 250 mg asosiy modda saqlovchi 1,5 va 3 ml li ampulalar, 500 ml asosiy modda saqlovchi 10 ml ampulalarda).

Rifampitsin (beneritsin; 0,05 va 0,15 g li kapsulalar).

Tienamitsinlar

Tienam (imipenema va silastin natrining kombinatsiyasi), sutkalik me'yor 1 – 2 g.

Aztreonam (flakonlarda 0,5 – 1 g kukun ko'rinishida).

Meropekam (flakonlarda 0,5 va 1 g kukun ko'rinishida).

Zamburug'larga qarshi antibiotiklar

Nistatin (500 000 TB saqlovchi tabletkalar, 30 va 50 g li malham).

Levorin (500 000 TB saqlovchi tabletkalar, 30 va 50 g li malham).

Levorin natriyli tuzi (flakonlarda 200 000 TB kukun ko'rinishida, ingalyasiya qilish va chayish uchun).

Amfoteritsin V (flakonlarda 50 000 TB kukun ko'rinishida, vena ichiga yuborish va ingalyasiya uchun, shuningdek malham ko'rinishida).

Amfogyukamin (100 000 TB li tabletkalar).

Mikoseptin (50 000 TB li tabletkalar).

Ekonazol (10 g - 1% li krem).

Mikonazol ("daktarin" malhami 15 g li tyubiklarda).

Mikrospor ® (bifonazol; 10 g krem).

Lamizil ® (terbinafin; 125 va 250 mg li tabletkalar, 1% li krem).

Klotrimazol (15 g krem).

Turli guruh antibiotiklari

Ristomitsin sulfat (flakonlarda 100 000 va 500 000 TB kukun ko'rinishida).

Fuzidin-natriy (0,125 va 0,5 g li tabletkalar).

Dietanolamin fuzinat (flakonlarda 0,25 va 0,5 g kukun ko'rinishida).

"Fuzidin" geli 2% (15 g tyubiklarda).

"Prefuzin" geli (15 g alyumin tyubiklarda).

Polimiksin – M sulfat (500 000 TB li tabletkalar, flakonlarda 500 000 va 1 000 000 TB kukun ko'rinishida, 10 va 30 g tyubiklarda malham).

Polimiksin – V sulfat (flakonlarda 25 va 50 mg kukun ko'rinishida, mushak orasiga yuborish uchun).

Gramitsidin (2% li spirtli eritmasi, gramitsidinli pasta).

Gramitsidin S (0,5 mg - 1500 TB li tabletkalar).

Proteolitik fermentlar.

Hayvonlardan olinadigan (**tripsin, ximotripsin, ribonukleaza**), bakteriyalardan olinadigan (**streptokinaza, terilin, kollagenaza, ribonukleaza, iruksol, asperaza**) va o'simliklardan olinadigan (**papain, bromelain**) proteolitik fermentlar mavjud. Proteolitik fermentlarni maxalliy (jarohatga), mushak orasiga, suyak ichiga yuborish, ingalyatsiya ko'rinishida va endobronxial qo'llash mumkin.

Aktiv va passiv immunizatsiya

Organizmning ximoya xususiyatlarini kuchaytirish va immunitetni oshirish maqsadida aktiv va passiv immunizatsiya qo'llaniladi.

Aktiv immunizatsiya uchun anatoksinlar (stafilokokkli, qoqsholga qarshi), **passiv immunizatsiya** uchun xirurgik infeksiya qo'zg'atuvchilariga qarshi antitela saqlovchi preparatlar (antistafilokokkli gamma-globulin, qoqsholga qarshi gamma-globulin, qoqsholga qarshi zardob) qo'llaniladi.

Organizmning rezistentligini oshirib, jarohatda regeneratsiya jarayonlarini kuchaytiruvchi vositalarga interferon, prodigiozan, lizotsim, levamizol, T - aktivin va timalin, mielopid, tarkibida immunoglobulin IgG, IgM va IgA saqlovchi kompleks immunoglobulinli preparat kiradi.

Aralash antiseptika.

Klinik amaliyotda ko'pincha bir nechta antiseptik vositalarning birgalikda ishlatilishi va bir necha xil antiseptika usullarining birgalikda qo'llanishi kuzatiladi. Bu esa bemorlarni davolash samaradorligini oshiradi. Chunki ko'p holatlarda bitta antiseptika usulini qo'llash bilan to'liq samaradorlikka erishish qiyin bo'lgadi va shunda antiseptikaning boshqa turlarini kompleks qo'llash eng afzal usul hisoblanadi.

Aralash antiseptika hozirga davrda amaliyotda juda ko'p qo'llaniladi. Masalan:

1. Jarohatga birlamchi ishlov berish jarayonida nekrotik to'qimalar kesib olinadi (mexanik antiseptika);

2. Jarohat yuzasiga ultratovush bilan ishlov beriladi (fizik antiseptika);

3. Yiringli yaralarga doka tamponlar kiritiladi (fizik antiseptika);

4. Ularni bor kislotasi eritmasi bilan shimdiriladi (kimyoviy antiseptika);

5. Antibiotiklar ishlatiladi (biologik antiseptika).

Antiseptiklarni qo'llash usullari:

– Enteral qo'llash-antiseptik moddalar me'da - ichak tizimi orqali yuboriladi.

– Tashqi (yuzaki) qo'llash - antiseptik moddalar jarohatlarga kukun, mazli va eritmali shaklda qo'llaniladi.

– Bo'shliqlarga yuborish- antiseptik moddalar bo'g'im, qorin yoki plevra bo' shlig'iga yuborish orqali.

– Parenteral qo'llash- vena yoki arteriyaga yuborish yo'li bilan.

– Endoskopik qo'llash - o'pka absessi bo'shlig'iga bronxoskop orqali, qizil o'ngach, me'da va o'n ikki barmoq ichakga fibrogastroskop orqali.

– Endolimfatik qo'llash - peritonit yoki yiringli jarayonlarda antiseptik moddalar (antibiotik, ferment) limfatik tugun yoki tomirlarga yuborish orqali.

Test savollari:

1. Palatalarni necha marta ho'l yig'ishtirish amalga oshiriladi?

A. Har kuni.

B. Zaruriyat tug'ilganda.

C. Zaruriyat tug'ilganda, lekin bir kunda ikki marta.

D. Bir kunda uch marta.

E. Zaruriyat tug'ilganda, lekin bir xaftada uch marta.

2. Infiltrati bor, flyuktuatsiya belgisi bilan bemor qaysi palataga yotqizilishi kerak?

A. Izolyatorga.

B. Alohida palataga.

C. Operatsiyadan keyingii intensiv nazorat palatasiga.

D. Umumiy palataga.

E. Yiringli bo'lim palatasiga.

3. Yotoq oqliklar va kiyimlar necha marta almashtirilishi kerak?

- A. 10 kunda 1 marta.
- B. Diskomfort holatining kuchayishiga qarab.
- C. 3 kunda 1 marta.
- D. Kirilanish holatiga qarab, kamida 10 kunda 1 marta.
- E. Har xaftada, dush yoki vanna qabul qilgach.

4. Aseptika va antiseptika qoidalari buzilganda in'yeksiyadan so'ng qanday asorat kuzatilishi mumkin?

- A. In'yektsiyadan keyingii infiltrat va abscess rivojlanishi.
- B. Zardobli gepatit B, C kasalligi.
- C. Teri dermatiti.
- D. Havo va yog'li emboliya.
- E. Allergik reaktsiya.

Vaziyatli masalalar:

1. Bemor kasalxonaga burnida og'riq, burundan oqishga, tana haroratining $38,5^{\circ}$ C gacha ko'tarilishiga, umumiy bezovtalikka shikoyatlari bilan yotqizilgan. Unga o'tkir yiringli sinusit tashxisi qo'yilib, yuqori jag' bo'shlig'ini drenajlash amalga oshirildi. Bu holatda qanday turdagi antiseptik qo'llaniladi?

- A. Fizikaviy.
- B. Kimyoviy.
- C. Biologik.
- D. Mexanik.
- E. Aralash.

2. Uyda diklofenak in'yektsiyasidan so'ng bemor 2 kundan keyin dumba sohada zich og'riqli infiltrat rivojlandi, u kasalxonada ochildi va drenajlandi. Dumba xo'ppozini ochishda qaysi guruh antiseptiklarini qo'llash yaxshiroq?

- A. Sulema.
- B. Furatsillin.
- C. Dimeksid.
- D. NaCl.
- E. Vodorod peroksid.

3. Bemor qurilish maydonchasida ishlayotgan vaqtida o'ng oyog'iga mix kirdi. Bir kundan keyin shish, o'ng oyoqda giperemiya va o'tkir og'riq paydo bo'ldi. Tovon yuzasida 0,5 sm diametrli yara, yara atrofida giperemiya, shish, infiltratsiya bor, yiringli ajralma bor. Jarroh antiseptikaning qanday birinchi usulini qo'llashi kerak?

- A. Biologik.
- B. Fizikaviy.
- C. Kimyoviy.
- D. Mexanik.
- E. Aralash.

4. Bemor qorin bo'shlig'idagi diffuz og'riqlarga shikoyati bilan klinikaga yotqizilgan. Uch kundan beri kasal. U tibbiy yordamga murojaat qilmagan. Qabul qilinganida bemorga keng tarqalgan peritonit tashxisi qo'yilgan. Reanimatsiya bo'limida operatsiyadan oldingi tayyorgarlik o'tkazildi. Bemor operatsiya xonasiga yuborildi. Ushbu bemorda mexanik antiseptika nimadan iborat?

- A. Laparoskopiya.
- B. Laparotomiya.
- C. Biopsiya.
- D. Tomografiya.
- E. Rentgenoskopiya.

5. 76 yoshli bemor taxminan 30 yildan beri tomirlar varikozidan aziyat chekadi. Uch yil oldin o'ng oyoqda trofik yara paydo bo'lgan. Bemor davolanish uchun turli hil malhamlardan foydalangan, yarani davolay olmagan. Biologik antiseptik nima?

- A. Yaraga dimeksid yuborish.
- B. Yaraga antibiotik yuborish.
- C. Yaraga furatsillin yuborish.
- D. Yaraga dioksidin yuborish.
- E. Yaraga proteolitik ferment yuborish.

6. 30 yoshli bemor jarrohlik bo'limiga jarohatdan 6 soat o'tgach, chap bilakning kesilgan jarohati bilan yetkazilgan. Ko'zdan kechirilganda: chap bilakning o'rta uchdan bir qismining tashqi yuzasida teri va teri osti to'qimalarining 3x7 sm o'lchamdagi kesilgan yarasi bor, qon quyqalari, kiyim parchalari bor, qon ketmaydi. Yarani davolash uchun qanday mexanik antiseptik usulini qo'llash kerak?

- A. Jarohatga birlamchi xirurgik ishlov berish.
- B. Jarohatga ikkilamchi xirurgik ishlov berish.
- C. Qirralarini kesish.
- D. Yara tubini va devorini kesish.
- E. Birlamchi chok qo'yish.

7. 36 yoshli bemorda appendektomiyadan keyingii 4-kuni operatsiyadan keyingii yarada og'riq paydo bo'ldi. Tana harorati 38°C ga ko'tarildi. Tekshirishda: operatsiyadan keyingii yaraning chetlari qizargan, shishgan, paypaslanganda yara joyi og'riqli, yara sohasida teri harorati ko'tarilgan. Ushbu asoratni davolashning birinchi bosqichida qanday antiseptika usulini qo'llash kerak?

- A. Kimyoviy.
- B. Fizikaviy.
- C. Mexanik.
- D. Biologik.
- E. Aralash.

8. 45 yoshli bemor qurilish maydonchasida ishlayotgan vaqtida chap sonning yirtilgan jarohatini olgan. Shikastlangandan keyin 10 soat o'tgach klinikaga yetkaziladi. Ko'rib chiqilganda: chap sonning old yuzasida teri va teri osti to'qimalarining 4x6 sm o'lchamdagi yirtilgan yarasi bor. Yarada qon quyqalari, kiyim parchalari, qoldiqlar bor. Yaraning chetlari normal rangda, terining giperemiyasi yo'q, yara atrofida shish yo'q. Yara joyini palpatsiya qilishda o'rtacha og'riqli, yaradan qon ketmaydi. Ertasi kuni bog'lama almashtirishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asoratlarni oldini olish uchun qanday turdagi antiseptikadan foydalanish kerak?

- A. Kimyoviy.
- B. Mexanik.
- C. Fizikaviy.
- D. Aralash.
- E. Biologik.

9. 68 yoshli bemor jarrohlik bo'limiga in'yeksiyadan keyingii chap dumba xo'ppozi bilan olib kelindi. Xo'ppoz ochildi. Qayta ko'rish paytida xo'ppoz bo'shlig'i 500 ml gacha bo'lgan hajmga ega. Ushbu kasallikning davolash vaqtini qisqartirish uchun biologik antiseptikaning qanday usullaridan foydalanish mumkin?

- A. Dimeksid qo'llash.
- B. Antibiotik qo'llash.
- C. Furatsillin qo'llash.
- D. Dioksidin qo'llash.
- E. Proteolitik ferment qo'llash.

10. Klinikaga 7 kun oldin o'ng yelkasidan jarohat olgan (daraxtdan yiqilgan) bemor yotqizilgan. U tibbiy yordamga murojaat qilmadi. Taxminan ikki kun oldin bemorda shikastlangan joyda og'riqli xosila paydo bo'lgan, uning ustidagi teri qizargan, tana harorati 3° C gacha ko'tarilgan. Terining giperemiyasi markazida ko'rilganda, fluktuatsiya belgisi aniqlanadi. Bemorda qanday holat rivojlangan? Bu holda mexanik antiseptikaning qanday usulini qo'llash kerak?

A. Yelkaning yumshoq to'qimalarining postravmatik gematomasini yiringlashi. Xo'ppozni ochish.

B. Yelkaning yumshoq to'qimalarining postravmatik gematomasini yiringlashi. UVCh terapiyasi.

C. Yelkaning yumshoq to'qimalarining infiltrati. Antibiotiklarni yuborish, kompresslar.

D. O'ng yelkaning infeksiyalangan yarasi. Yaraga birlamchi jarrohlik ishlov berish.

E. O'ng yelkaning infeksiyalangan yarasi. Yaraga ikkilamchi jarrohlik ishlov berish.

Rasmi testlar:

1. Antiseptik usulni tashkil etuvchi chora-tadbirlar tizimi quyidagilar tomonidan ishlab chiqilgan:



A. Dj. Lister;

B. I. Zemmelveys;

C. N.I. Pirogov;

D. L. Paster;


E. E. Bergman.

2. Endogen infeksiyaning yuqish yo'llarini ko'rsating:



- A. kontakt;
- B. havo-tomchi;
- C. aksirganda;
- D. gematogen;
- E. implantatsion.

3. Mexanik antiseptika o'z ichiga oladi:



- A. aktiv aspiratsiya;
- B. oquvchi-yuvuvchi drenaj;
- C. jarohat qirralari, devori va tubini sog' to'qimagacha kesish;
- D. antibakterial muhitni yaratish;
- E. jarohatni bog'lash.

4. Fizikaviy antiseptika uchull o'z ichiga oladi:



- A. jarohat qirralarini kesish;
- B. jarohatni drenajlash;
- C. yod, spirt eritmalarini qo'llash;
- D. lazer nurlarini qo'llash;
- E. proteolitik fermentlarni qo'llash.

5. Biologik antiseptikani qo'llashni o'z ichiga oladi:



- A. antibiotiklar;
- B. UFO;
- C. vodorod peroksid;
- D. proteolitik fermentlar;
- E. jarohat qirralarini kesish.

XIRURGIYADA ASEPTIKA ASOSLARI. INFEKSIYA MANBALARI. HAVO-TOMCHI, KONTAKT, IMPLANTATSION INFEKSIYA PROFILAKTIKASI. SHIFOXONA ICHI INFEKSIYASI.

Aseptika bu jarohatga infeksiya tushishining oldini olishga qaratilgan chora – tadbirlar yig'indisi.

Tarixiy izoh. Antiseptikaga asos solingandan so'ng 25 yil o'tgach jarohatga tegadigan barcha jismlarni sterillashga asoslangan yangi usul paydo bo'ldi.

Aseptikaning oltin qoidasi – Jarohat bilan kontaktda bo'ladigan hamma narsa steril bo'lishi shart.



11-rasm. E. Bergman

Antiseptikaning asoschilari bo'lib nemis xirurgi E. Bergman (11-rasm) va uning shogirdi K. S. Himmelbush hisoblanadi.

1890 yil Berlinda bo'lib o'tgan xirurglar kongressida Bergman jarohat infeksiyasi bilan kurashishning yangi usuli haqida ma'ruza qildi va aseptik sharoitda operatsiya o'tkazgan bemorlarni misol tariqasida keltirib o'tdi. Kongressda raislik qilayotgan Djozef Lister E. Bergmanni yutuq bilan tabriklab, aseptika usulini xirurgiyaning ajoyib yutug'i bo'lganini ta'kidladi.

Aseptikaning asosini jarohatga aloqasi bo'lgan asbob uskunalarni, tikish materiallarini, oqliklarni sterillash tashkil qiladi. Ushbu qonunlarni amaliyotga tadbiq qilish uchun mikroorganizmlarning asosiy manbaini bilishimiz kerak.

Hayotda **endogen** – ya'ni organizmning o'zida, hamda **ekzogen** – organizmdan tashqarida bo'ladigan mikroorganizmlar uchraydi.

Endogen infeksiyalar tana terisida, shilliq pardalarda, oshqozon – ichak yulida va yuqori nafas yo'llarida uchraydi. Ular jarohatga to'g'ridan – to'g'ri yoki qon hamda limfa suyuqligi orqali tushadi.

Ekzogen infeksiyalar esa havo, havo – tomchi (gapirganda, aksirganda), kontakt (notoza asboblarni tegib ketishi) yo'li va jarohatda abadiy yoki vaqtinchalik qoldirilgan tikuv material, drenajlar orqali (implantatsion – ko'chib o'tgan) yuqishi mumkin. Bulardan tashqari «mudroq» infeksiya ham tafovut qilinadi, ya'ni hamisha organizmda uchraydigan, ammo kasallik chaqirmagan mikroorganizm ma'lum vaqt o'tgach kishi organizmi immuniteti pasaysa kasallik chaqirish qobiliyatiga ega bo'lib qoladi. Misol uchun operatsiya muvaffaqiyatli tugab bemor kasalxonadan chiqib ketadi, 5 – 6 oy o'tgach, operatsiyadan keyingii chandiq yiringlashi yoki oqma yara paydo bo'lishi mumkin. Kontakt (tegib ketish) yo'li bilan yuqadigan mikroorganizmlarni yo'qotishning birdan-bir usuli, jarohatga tegishi mumkin bo'lgan barcha narsalarni sterillashdir. Buning uchun operatsion oqliklar, bog'lov va tikuv materiallari, qo'lqoplar, asboblari, xirurg qo'llari va operatsion maydon sterillanishi kerak. Tikish uchun ishlatiladigan kapron, ipak, ketgut va boshqalarni sterillash ham kontakt ham implantatsion infeksiyalarni oldini olishda ahamiyatlidir.

Sterillizatsiya – mikroblar va ularning sporalarini yo'qotish demakdir. Sterillizatsiyaga turli xil usullar: kuydirish, quruq issiqlik, cho'g'lantirish, qaynatish, avtoklavlash, ximiyaviy moddalar bilan tozalash tufayli erishish mumkin. Bog'lov materiallarini, asbob uskunalari va choyshablarni sterillash 4 bosqichdan iborat bo'ladi:

1 bosqich – materiallarni sterillashga tayyorlash;

2 bosqich – materiallarni joylashtirish;

3 bosqich – sterillash;

4 bosqich – sterillangan materiallarni saqlash.

Sterillashning ko'plab usullari bo'lib, quyida ularning har biriga ta'rif berilgan.

Bug' bilan bosim ostida sterillash.

Bu usul bilan choyshablar, bog'lov materiallari va xirurgik asboblari sterillanadi.

1,1 atm bosim ostida (120°C) 45 daqiqa, 2 atm bosim ostida (134°C atrofida) 20 daqiqa davomida sterillanadi. Sterillashdan oldin materiallar issiq bug' kirishiga mo'ljallangan kichik teshiklari bor maxsus metal bikslarga solinadi. Biks dastasiga sterillanayotgan material va sterillash sanasi yozilgan yorliq yopishtiriladi (12-rasm).



12-rasm. Avtoklav va bikslar

Quruq havo bilan sterillash.

Maxsus havoli sterilizatorlar (SS-200, SS-1, SHSS-80, ALV-IV va boshqalar) da amalga oshiriladi. Bu sterilizatorlarda havo 140 – 200° C gacha qizdiriladi. 200°C da instrumentlar 40 daqiqa, 180°C da – 60 daqiqa, 160° C da esa – 150 daqiqa davomida sterillanadi (13-rasm).



13-rasm. Havoli sterilizatorlar

Sovuq sterillash (ximiyaviy sterillash).

Bu usul ximiyaviy antiseptik eritmalar yordamida amalga oshirilib, asosan o'tkir tig'li xirurgik asbablari, rezina buyumlarini sterillashda qo'llaniladi. Bunda buyumlar 96% li etil spirti (2 soat), 6% li vodoroda peroksidi (6 soat yoki 3 soat 50 ° C haroratda), 4,8% li pervomur eritmasi (S – 4 preparati, 15 daqiqa), 1% li dezokson – 1 eritmasi (45 daqiqa), 1 – 2% li beta-propionlaktin eritmasi (1 soat), 2 – 3% li lizol eritmasi, 40 ° C gacha qizdirib (1 – 2 soat), mertiolatning suvli eritmasi (1:2500, 30 daqiqa), diotsid eritmasi (1:100) yoki 10% li

karzolin D eritmasi (60 daqiqa), karzoleks-Bazik kabi antiseptiklarga solib qo'yiladi (14-rasm).



14-rasm. Instrumentlarni «sovuq» (ximiyaviy) sterillash

Gaz bilan sterillash.

Bu usul endoskopik apparatlarning optik tizimini, sun'iy qon aylanish apparatini, yelim buyumlarni va ketgutni sterillashda qo'llaniladi. Gaz polietilen qadoqqa yaxshi kirib, u yerdagi havoning o'rmini egallaydi. Sterilizatsiya etilen oksidi va metilbromidning 1:2,5 nisbatdagi aralashmasi bilan 50 – 60 °C haroratda va 80 – 100% namlikda qog'oz yoki pergamentli paketlarda 6 soat davomida amalga oshiriladi. Bunda GGD – 250 va boshqa turdagi gazli sterilizatorlardan foydalaniladi (15-rasm).



15-rasm. Gazli sterilizatorlar

Gazli sterilizatorlar bo'lmagan holda formaldegitning etil spirtidagi 40% li eritmasi bilan paraformalinli sterilizatorlarda yoki og'zi maxkam yopilgan germetik idishlarda 80°C haroratda 3 soat davomida sterillash mumkin.

Gamma – nurlar bilan zamonaviy xirurgiyada qo'llaniladigan turli biologik preparatlar va to'qimalar sterillanadi. Nurlantirish ularning xususiyatlarini o'zgartirmaydi. Bu usulda sterillash gamma – nurlar erkin o'ta oladigan germetik polietilen yoki qog'oz peketlarda amalga oshiriladi (16-rasm).



16-rasm. Gamma-nurli sterilizatorlar

Sterillikni nazorat qilish

Sterillikni nazorat qilish doimiy amalga oshirilib borilishi kerak.

Termik nazorat uchun ma'lum haroratda suyuq holatga o'tadigan kukunsimon moddalardan foydalaniladi.

Bular:

oltingugurt – 111-120°C,

antipirin – 113°C,

rezorsin – 110-119°C,

benzoy kislota – 121°C,

mochevina – 132°C,

fenatsetin – 134 - 135°C kabi moddalardir.

Ular probirkalargaga solinib (0,5 – 1 ml dan), paxtali tampon bilan berkitilib, bikslarga joylanadi. Kukunning kompakt massaga aylangani steristerilizatsiyaning ishonchli bajarilganidan dalolat beradi.

Ba'zi holatlarda ximiyaviy usullar (Mikulich usuli) dan foydalaniladi. Oq qog'ozchalarga «sterillangan» so'zi yozilib, kraxmat eritmasi bilan ishlov beriladi va qurutiladi, shundan so'ng Lyugol eritmasi bilan ishlov beriladi. Kraxmalning yod bilan bog'lanishi natijasida qog'ozchalar ko'k rangga kiradi. Tayyor bo'lgan qog'ozchalar bikslarga joylanadi. Sterilizatsiyadan so'ng yodniig parlanib ketishi natijasida qog'ozchalardagi «sterillangan» so'zi yana ko'rinadigan bo'ladi (17-rasm).



17-rasm. Sterillikni nazorat qilish uchun ishlatiladigan indikatorlar

Sterillikni nazorat qilishning aniq usuli bakteriologik tekshirish hisoblanadi. Buning uchun bog'lov materiallari va oqlishlaridan ekma olinadi yoki biologik test o'tkaziladi. Shu maqsadda yana mikroorganizmlarning ma'lum patogen bo'lmagan kulturasi (senna tayoqchalari) solingan probirkalardan foydalaniladi. Bu probirkalar bikslarning tubiga solib qo'yiladi. Sterilizatsiya amalga oshirilgandan so'ng ular bikslardan olinib, laboratoriyaga jo'natiladi. Mikroblarning ko'paymaganligi sterilizatsiyaning yaxshi amalga oshirilganidan va avtoklav ishining ishonchliligidan dalolat beradi (18-rasm). Bog'lov materiallari va oqliklaridan har 10 kunda 1 marotaba ekma olish kerak (19-rasm).



18-rasm. Sterillikni nazorat qilish uchun bikslarga solinadigan probirkalardagi patogen bo'lmagan mikroblar



19-rasm. Oziq muxitiga bakteriologik ekma ekish orqali sterillikni aniqlash

Implantatsion infeksiyaning oldini olish uchun tikuv iplari, drenajlar, shtiftlar, endoprotezlar, allo- va getero transplantatlarni sterillash kerak.

Dezinfeksiya – bu xonalarda, idishlarda, kiyimlar, tibbiy asboblarda, bog'lov materiallari va boshqalarda infeksiyon kasalliklar chaqiruvchilarini yo'qotishga qaratilgan chora tadbirlar yig'indisi. Tibbiy asboblarda dezinfeksiyasi natriy gidrokarbonatning 2% li eritmasida 15 daqiqa mobaynida qaynatish, xloraminning 1% li eritmasiga 30 daqiqa mobaynida solib qo'yish, yoki 3% li vodorod peroksidi va 0,5% li yuvuvchi vosita aralashmasiga 80 daqiqaga solib qo'yish vositalarida amalga oshiriladi.

Sil qo'zg'atuvchisini yo'qotish uchun instrumentlar 5% li xloramin eritmasiga 4 soat yoki 6% li vodorod peroksid eritmasiga 3 soatga solib qo'yiladi.

Infeksiyon hepatit qo'zg'atuvchisini yo'qotish uchun instrumentlarni 3% li xloramin eritmasiga yoki 6% li vodorod peroksid eritmasiga 1 soatga solib qo'yiladi.

Gazli gangrena va qoqshol qo'zg'atuvchilarini yo'qotish uchun esa instrumentlarni 6% li vodorod peroksid eritmasiga 90 daqiqaga solib qo'yiladi. Dezinfeksiyadan so'ng har bir buyum oqar suvda 30 daqiqa

mobaynida chayiladi. Sterilizatsiyadan oldin instrumentlarga sterilizatsiya oldi ishlov berish kerak.

Sterilizatsiya oldi ishlov berish

I bosqich – yuvuvchi vosita eritmasida ivitish:

a) «Biolot» yuvuvchi vositasidan foydalanilganda instrumentlarni 40°C haroratda 15 daqiqaga ivitib qo'yiladi;

b) vodorod peroksidini yuvuvchi vositalar ("Progress", "Marichka", "Astra", "Lotos") bilan birga qo'llaganda instrumentlarni 50° C haroratda 15 daqiqaga ivitib qo'yiladi;

v) vodorod peroksidini yuvuvchi vositalar ("Lotos", "Lotos-avtomat") va korroziya ingibitorlari (natriy oleat) bilan birga qo'llaganda instrumentlarni 50° C haroratda 15 daqiqaga ivitib qo'yiladi;

II bosqich – har bir buyumni 30 daqiqa mobaynida cho'tka yoki paxta – dokali tampon yordamida yuvuvchi vositada yuvish.

III bosqich – oqar suvda chayish (agar "Biolot" yuvuvchi vositasidan foydalanilgan bo'lsa – 3 daqiqa, "Progress" dan foydalanilgan bo'lsa – 5 daqiqa mobaynida, "Astru" va "Lotos" dan foydalanilgan bo'lsa – 10 daqiqa mobaynida yuviladi).

IV bosqich – 30 daqiqa mobaynida har bir instrumentni distillangan suvda yuvish.

V bosqich – quritish shkafida 85° C haroratda namligi to'liq yo'qolguncha quruq havo yordamida quritish.

Termostabil va termolabil tibbiy instrumentlarga sterilizatsiya oldi ishlov berishda zamonaviy samarali dezinfeksiyalovchi vositalar: Bodefen (qon, oqsil, ajralma va yog'dan tez tozalaydi), biom, blanizoldan foydalaniladi.

Sterilizatsiya oldi ishlov berilishidan so'ng uning samarasini tekshirib ko'rish kerak. Shu maqsadda quyidagi sinamalar o'tkaziladi:

Benzidinli sinama. 1 – reaktiv (0,5 – 1% li benzidin digidroxlorid eritmasi va 3% li vodorod peroksid eritmasi bir xit nisbatda aralashtiriladi) va 2 – reaktiv (probirkaga 5 ml 5% li sirka kislotasi solinadi, 0,025 g benzidin sulfat qo'shiladi va benzidin to'liq eriguncha asta sekinlik bilan aralashtiriladi, 5 ml 3% li vodorod peroksidi qo'shiladi) tayyorlanadi. Nazorat qilinuvchi instrumentga 2 – 3 tomchidan 1- va 2 – reaktivlardan tomiziladi. Reaktiv rangining ko'k –

yashil rangga kirishi sterilizatsiya oldi ishlov berilishining noto'liq bajarilganidan dalolat beradi. Demak instrumentda oqsil qoldiqlari, ya'ni qon, yiring yoki boshqalar qolgan.

Ortotoluidinli sinama. 1 – reaktiv (5 – 10 ml 4% li ortotoluidinning 96% li etil spirtidagi eritmasi va 50% li sirka kislotasi bir xil nisbatda aralashtiriladi va 5 – 10 ml distillangan suv qo'shiladi) va 2 – reaktiv (probirkaga 5 ml 50% li sirka kislotasi solinib, 0,025 g ortotoluidin qo'shiladi va to'liq eriguncha asta sekinlik bilan aralashtiriladi, so'ng 5 ml 3% li vodorod peroksidi qo'shiladi), yoki 3 – reaktiv (1% li ortotoluidin eritmasi va 3% li vodorod peroksidi bir xil nisbatda aralashtiriladi) tayyorlanadi. Nazorat qilinayotgan instrumentga pipetka yordamida 2 – 3 tomchidan 2-reaktiv yoki 3-reaktivdan tomiziladi. Agar instrumentga 1-reaktivdan 2 – 3 tomchi tomizilsa, bu joyga yana 2 – 3 tomchi 20% li vodorod peroksidi surish kerak bo'ladi. Agar reaktivning rangi ko'k – yashil rangga kirsa, sinama musbat xisoblanadi. Bu esa instrumentda oqsil qoldiqlari – qon, yiring yoki boshqalar qolganligidan dalolat beradi.

Azopiramli sinama. Instrumentga azopiram surtiladi. Reaktiv rangining o'zgarishi – instrumentda qon qoldiqlari borligidan dalolat beradi.

Fenolftaleinli sinama. Nazorat qilinayotgan instrumentga pipetka yordamida 1 – 2 tomchi 1% li fenolftaleinning spirtli eritmasi surtiladi. Agar reaktiv pushti rangga kirsa, sinama musbat hisoblanadi va bu instrumentda yuvuvchi vosita qoldig'i qolganligidan dalolat beradi.

Xirurg qo'lga ishlov berish

Qo'lga ishlov berish – kontakt infeksiyani profilaktika qilishning muhim usulidir. Turli qo'lga ishlov berish usullarining asosida 3 ta muhim jarayon yotadi:

1. Qo'llarni steril shyotka va sovun yordamida mexanik tozalash.
2. Dezinfeksiya – qolgan bakteriyalarni antiseptik vositalar yordamida yo'qotish.
3. 70% yoki 90% li etil spirti yordamida qo'l terisini oshlash.

Ahamiyatli jarayonlardan biri qo'l yuvishning ketma – ketligidir. Avvaliga shyotka va sovun yordamida chap qo'l har bir barmog'ining kaft yuzasi, so'ng esa orqa yuzasi, oralari va tirnoq yotoqlari yuviladi. Xuddi shu tartibda o'ng qo'l barmoqlari yuviladi. Keyingii bosqichda

avval chap, keyin o'ng qo'l kaftining, va nihoyat bilaklarning orqa va oldingi yuzalari yuviladi. Yana bir marotaba tirnoq yotoqlari shyotka bilan ishqalab yuviladi. Sovun ko'pigi oqar suvda yuviladi. Bunda suv oqimi barmoqlardan tirsakka qarab yo'nalgan bo'lishi kerak (20 - rasm).



20-rasm. Xirurg qo'llariga ishlov berish texnikasi

Fyurbringer usuli – qo'llar issiq suvda shyotka bilan sovunlab 10 daqiqa mobaynida yuviladi. So'ng qo'llar steril kalfetka bilan artilib, 3 daqiqa mobaynida 70% li etil spirti bilan ishlov beriladi. 0,5% li simob dixloridi bilan 3 daqiqa mobaynida ishlov berilgach, barmoq uchlariga yodning spirtla eritmasi surtiladi.

Alfeld usuli – qo'llarning har biri 5 daqiqadan oqar suvda shyotkalab yuviladi. Qo'llarni yuvish vaqtida kaft qismi bilak qismidan yuqoriroqda bo'lishi kerak. So'ng qo'llar steril sochiq bilan artilib, 5 daqiqa mobaynida 96% li etil spirti bilan ishlov beriladi. Tirnoq yotoqlariga yodning spirtli eritmasi surtiladi.

Spasokukotskiy – Kochergin usuli. Qo'lni yuvish uchun mo'ljallangan quruq tog'oraga 5 ml 96% li spirt quyib, yoqiladi.

Tog'orani har tomonga qiyshaytirib, uning ichki satxi kuydiriladi. Tog'oraga 1 l distillangan suv quyiladi va 5 ml nashatir spirti (0,5% li nashatir spirti eritmasi) quyiladi. Shunday eritmada qo'lni 2 ta tog'orachada 3 daqiqadan yuviladi. Qo'lni oldin shyotka bilan sovunlab yuvish shart emas. Qo'lni amalda toza bo'lishining o'zi kifoya qiladi. Yuvish texnikasi: 1) steril salfetka bilan avval har qaysi barmoqning kaft, so'ngra chap panjaning kaft va kaft orqa yuzasini, so'ngra o'ng qo'lniki, shundan so'ng chap, keyin o'ng qo'lning bilak oldi qismini va nihoyat bilaklar yuviladi, keyin qo'llarni xuddi shu tariqa va yana 3 daqiqa mobaynida boshqa tog'orachada yuviladi; 2) qo'l steril sochiq bilan quritiladi; 3) qo'lni 96% li spirtga ho'llangan salfetka bilan 5 daqiqa mobaynida artiladi; 4) teri burmalari va tirmoq yuzalariga yodning 5% li spirtidagi eritmasi surtiladi.

Xlorgeksidin biglyukonat bilan qo'llarga ishlov berish. Xlorgeksidin 20% li suvli eritma ko'rinisha 500 ml li shisha idishlarda ishlab chiqariladi. Qo'llarga ishlov berish uchun 0,5% li spirtli eritmasidan foydalaniladi. Preparat eritmasini 70% li etil spirti bilan 1:40 nisbatda aralashtirish kerak. Avval qo'llar sovun bilan yuviladi va steril sochiq bilan artiladi, so'ng 0,5% li xlorgeksidin biglyukonat eritmasida namlangan paxtatampon bilan 2 – 3 daqiqa mobaynida ishlov beriladi. SHuningdek novoklens (novosol) – 4% li xlorgeksidin glyukonatning spirtli eritmasi ham qo'llaniladi.

Qo'llarga degmin eritmasi bilan ishlov berish. Qo'llar 3 daqiqa mobaynida yuvilib, yaxshilab chayilgandan so'ng steril sochiq bilan artiladi va 1% li degmin eritmasida namlangan ikkita tampon bilan (har biri bilan 3 daqiqadan) ishlov beriladi.

Qo'llarga S – 4 (pervomur) eritmasi bilan ishlov berish. S – 4 preparati quyidagicha tayyorlanadi: shisha idishga vodorod peroksidi va chumoli kislotasi (1 l eritma uchun 17,1 ml 30 – 33% li vodorod peroksidi, 6,9 ml 100% li va 8,1 ml 85% li chumoli kislotasi) solinib aralashtiriladi. Idish sovuq suvga 1 – 1,5 soatga solib qo'yilib, shisha tiqin bilan maxkam yopiladi va chayqab turiladi. Amaliyotda S – 4 preparatining 2,4% li eritmasidan foydalaniladi.

Avval qo'llar suv va sovun bilan 1 daqiqa mobaynida yuviladi, so'ng suv bilan yaxshilab chayiladi va steril sochiq bilan artiladi va 1 daqiqa mobaynida emallangan idishga solingan S-4 preparati bilan

ishlov beriladi. SHundan so'ng qo'llar steril sochiq bilan artib, quritiladi va qo'lqoplar kiyiladi.

Qo'llarga ritosept bilan ishlov berish. Avval qo'llar 2 daqiqa mobaynida iliq oqar suvda steril shyotka bilan sovunlab yuviladi va steril sochiq bilan artiladi. SHundan so'ng ikki marotaba 2 daqiqadan ritosept eritmasida namlangan steril sochiqchalar bilan ishlov beriladi.

Diotsid eritmasi bilan ishlov berish. Diotsid – suvda eruvchi oq kukun. Uzoq muddat saqlangan diotsid qo'ng'ir tusga kiradi va qo'lansa hid tarata boshlaydi. Shuning uchun uning tarkibiy qismlari alohida – alohida tabletkalar ko'rinishida chiqariladi. Qo'llarga 3 daqiqa davomida diotsid eritmasida namlangan steril sochiqchalar bilan, so'ng yana 2 daqiqa mobaynida 96% li etil spirti bilan ishlov beriladi.

Agar qo'llarga suvsiz ishlov berilishi kerak bo'lsa, quyidagi usullar qo'llaniladi.

Braun usuli – qo'llarga 10 daqiqa mobaynida 96% li etil spirti bilan ishlov berish.

Zabludovskiy usuli – qo'llarga 5% li spirt – tanin bilan 2 – 5 daqiqa mobaynida ishlov berish.

Serigel bilan ishlov berish. Serigel – bakteritsid hususiyatga ega yopishqoq suyuqlik. Ochiq havoda tez quriydi. Qo'llarga serigel bilan ishlov berilganda, ularda plyonka (steril «qo'lqop») hosil bo'ladi.

Quruq kaftlarga 5 ml serigel quyilib, 8 – 10 daqiqa mobaynida tez – tez ishqalagab surtiladi. Eritma barmoqlar, kaft old va orqa yuzalari hamda bilak bo'g'imini qoplashi kerak. SHundan so'ng qo'llar, barmoqlarni bir – biriga tekkizmagan holatda 2 – 3 daqiqa mobaynida quritiladi. Bu plyonka spirtida namlangan tampon yordamida osonlik bilan artiladi.

Novosept bilan ishlov berish. Qo'llar novoseptning 3% li suvli eritmasi bilan 2 – 3 daqiqa mobaynida yuviladi.

Qo'llarni yuvish uchun maxsus ultratovushli vannalar yaratilgan. Buning uchun qo'llar 1 daqiqa mobaynida antiseptik eritmaga solib turilab, undan ultratovush to'lqinlar o'tkaziladi.

Qo'llar va teriga ishlov berish uchun yana quyidagi zamonaviy dezinfeksiyalovchi eritmalar qo'llaniladi:

Sterilium – bakteritsid va fungitsid ta'sirga ega bo'lib, OIV, gepatit V va herpes viruslarini inaktivirlaydi. U uzaytirilgan ta'sirga ega bo'lib, kasbiy dermatozlar chaqirmaydi.

Sterilium virugard – yuqumli kasalliklar shifoxonalarida qo'llaniladi.

Baktolin – Bazik – antiseptik qo'shimchalarga ega emulsiya bo'lib, qo'lga ishlov berishda effektiv vosita hisoblanadi. U sovun va ishqor saqlamaydi, gipoallergik.

Yuvuvchi vositani surtish usulida qo'lning xirurgik antiseptikasi

1 – bosqich. Qo'llarni yuvuvchi vosita bilan yuvib, yaxshilab chayish (21-rasm. a).

2 – bosqich. Qo'llarni yaxshilab bir marotaba foydalaniladigan sochiqlar bilan quritish (21-rasm. b).

3 – bosqich. Dozator yordamida (tirsak bilan dastakni bosib) antiseptik vositani quruq kaft chuqurchasiga quyish (21-rasm. v).

4 – bosqich. Birinchi navbatda qo'l kaft va barmoqlari, so'ng esa bilak va tirsak bukilmalarini antiseptik vosita bilan namlash (21-rasm. g).

5 – bosqich. Antiseptik vosita alohida porsiyalarda ishlab chiqaruvchi tomonidan ko'rsatilgan vaqt mobaynida qo'llarga suriladi. Bunda qo'l kaftlari tirsak bukilmalaridan yuqorida turishi kerak (21-rasm. d).

6 – bosqich. Antiseptik vosita surilgandan so'ng sochiq ishlatmasidan, qo'llarning qurishini kutish kerak. Shundan keyingiina qurigan qo'llarga qo'lqoplar kiyiladi (21-rasm. e).





v



g



d



e

21-rasm. Yuvuvchi vositani surtish usulida qo'lning xirurgik antiseptikasi bosqichlari

EN 1500 ga muvofiq qo'llarga antiseptiklar bilan ishlov berish

1 – bosqich: barmoqlar bir – biriga jipslangan holda kaft kaftga ishqalanadi (22-rasm. a).

2 – bosqich: o'ng qo'l kafti chap qo'lning orqa yuzasiga va chap qo'l kafti o'ng qo'lning orqa yuzasiga ishqalanadi (22-rasm. b).

3 – bosqich: kaft kaftga kesishgan barmoqlar bilan ishqalanadi (22-rasm. v).

4 – bosqich: barmoqlarning tashqi tomoni qarama – qarshi qo'l kaftida kesishgan barmoqlar bilan ishqalanadi (22-rasm. g).

5 – bosqich: chap qo'l katta barmog'ini o'ng qo'l yopiq kafti bilan aylana harakatlar yordamida ishqalash va teskarisiga ishqalash kerak (22-rasm. d).

6 – bosqich: o'ng qo'l yopilgan barmoq uchlarini chap qo'l kaftiga ishqalash va teskarisiga ishqalash kerak (22-rasm. e).



a.



b.



v.



g.



d.



e.

22-rasm. EN 1500 ga muvofiq qo'llarga antiseptiklar bilan ishlov berish

Qo'l terisiga ishlov berishda yana **AXD-2000, xospisent, xospidermin, betadin, braunozol** kabi antiseptiklardan foydalaniladi.

Ammo xech qaysi bir usul qo'llarning to'liq antiseptikasini ta'minlay olmaydi. Qo'llarning to'liq sterilligini faqat rezina qo'lqoplar ta'minlab beradi. Rezina qo'lqoplar birinchi marotaba rossiyalik xirurg Sege-Menteyfel (1884), ipakligi Mikulich (1897) va yupqa rezina qo'lqoplar Fridrix (1898) tomonidan taklif etilgan. Hozirda vinil, tabiiy kauchuk (lateks) va nitrildan tayyorlangan qo'lqoplardan foydalaniladi.

Qo'lqoplar qo'yidagi usullar bilan sterillanadi:

- a) avtoklavda (1,1 atm, 120 ° C, 20 daqiqa);
- b) natriy gidrokarbonatsiz suvda 15 daqiqa mobaynida qaynatish;
- v) 15 daqiqa 2% li xloramin eritmasiga yoki 30 – 60 daqiqa 1:1000 nisbatdagi sulema eritmasiga solib qo'yish;
- g) gamma-nurlar yordamida.

Operatsion maydonni tayyorlash

Operatsiyani aseptik sharoitlarda bajarish uchun operatsion maydonni operatsiyaga tayyorlash muhim o'rin tutadi.

Operatsion maydonni tayyorlash. Operatsiyadan oldin bemor gigiyenik vanna yoki dushga tushiriladi. Bemorning ichki kiyimlari va choyshab, yostiq jildlari alishtiriladi. Operatsion maydon zonasini operatsiya kuni usturada (yaxshisi quruq usul bilan) qiriladi. Undan so'ng shu sohani etil spirti bilan artish maqsadga muvofiq bo'ladi. Operatsion maydonni obrabotka qilishning bir necha usullari bor.

Filonchikov-Grossix usuli. 5 - 10% li yodning spirtli eritmasini 4 marta albatta quyidagicha surtishdan iborat:

- 1) operatsion maydonni steril oqlik bilan bekitilgunga qadar keng miqyosda obrabotka qilish (2 marotaba);
- 2) steril oqlik bilan bekitilgandan so'ng obrabotka qilish (kesishdan oldin);
- 3) chok solishdan oldin jarohat chetlarini obrabotka qilish;
- 4) chok solishdan keyingii obrabotka.

Agar teri nozik bo'lsa va bolalarda kuyishni oldini olish uchun yod eritmasini spirt bilan qisman artib olinadi.

Xozirda 10% li yoddan ishlov berish ta'qiqlangan. Uning o'miga quyidagi vositalardan foydalanish tavsiya etilgan: taninning 5% li eritmasi, pikrin kislotasi, serigel, 1% li brilliant yashili, 1% li yodonat eritmasi, 4% li yodopiron eritmasi, 2,4% li pervomur eritmasi.

Hozirgi davrda operatsion maydonga ishlov berish uchun Kutasept G, Kutasept F, yodobak, betadin, braunozal kabi zamonaviy vositar qo'llanilmoqda. Ular bakteritsid, fungitsidi virulitsid (lipofil viruslar, OIV, gepatit V virusiga) xususiyatga ega bo'lib, sil mikobakteriyalariga ham nobud qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

Bakkal usuli terisi nozik kishilarda qo'llaniladi. Operatsion maydon brilliant yashilining 1% li eritmasi bilan obrabotka qilinadi.

Performiat kislota bilan obrabotka qilish. Tayyorlash usuli yuqorida bayon qilingan. Bu holda spirt va yod qo'llanilmaydi.

Operatsion maydonni obrabotka qilish uchun 1% li degmin eritmasi va 1:30 konsentratsiyadagi degmitsid, shuningdek 1% li rokkal eritmasidan foydalanish mumkin.

Bemorni operatsiyaga tayyorlashda, operatsion maydon sohasida yiring yig'ilgan joy bo'lsa, planli operatsion bajarmay turish lozim.

Operatsiya uchun xirurg, uning assistentlari va operatsion meditsina hamshirasi maxsus kiyimlar kiyadi. Ko'pchilik xirurgik muassasalarda meditsina hodimlari salat rangidagi yoki havo rang maxsus yengil kiyim kiyadilar.

Operatsion blok

Operatsion blok – operatsiya va uni ta'minlash uchun o'tkaziladigan jarayonlar bajariladigan maxsus xonalar yig'indisidir.

Operatsion blok binoning alohida qanotida joylashgan bo'lib, xirurgik bo'lim bilan koridor orqali aloqada bo'lishi, yoki ko'p qavatli binoning alohida qavatida joylashgan bo'lishi kerak.

Yiringli xirurgik bo'limlar boshqa xirurgik bo'limlardan ajratilgan bo'lishi maqsadga muvofiq. Agarda buning imkoniyati bo'lmasa, «toza» va «yiringli» operatsiyalar bajarilishi uchun alohida – alohida operatsion xonalar tashkil etilishi lozim.

Sterillik darajasiga qarab hududlar:

1. Steril rejim hududi

(operatsion xona, operatsiya oldi xonasi va sterilizatsiya xonalari kiradi)

2. O'tkir rejim hududi

3. Cheklangan rejim hududi

4. Umumiy rejim hududi.

Operatsion blok ishining tartibi unga kirish – chiqishni cheklashni nazarda tutadi. Steril tartib hududida faqat operatsiyada ishtirok etuvchi xirurglar, ularning assistentlari, operatsion hamshiralar, anesteziologlar va ularning hamshiralari, hamda operatsiya xonasida joriy tozalashni amalga oshiradigan farrosh bo'lishi kerak. Steril tartib hududiga talabalar va amaliyotchi vrachlar kirishiga ruxsat beriladi.

Operatsion blokda ishlaydigan hodimlar boshqa bo'lim hodimlaridan rangi bilan farq qiladigan maxsus kiyimda bo'lishlari kerak.

Operatsion blok sterilligini nazorat qilish vaqt- vaqti (oyiga 1 marta) bilan operatsiya xonasi devorlari, shifti va jixozlaridan ekma olish, hamda xona havosini bakteriologik tekshirish orqali amalga oshiriladi.

Mikroorganizmlar havoda va jixozlar yuzasida kamdan kam holatlarda erkin ko'rinishda bo'ladi. Ular asosan mikroskopik chang zarrachalariga birikkan holatda bo'ladi. Shuning uchun ham operatsion

xonadagi changlarni tozalab artish va xonaga chang kirishining oldini olish maqsadga muvofiqdir.

Operatsiya xonasini tozalashning quyidagi turlari bor:

1. dastlabki
2. joriy
3. operatsiyadan keyingii
4. yakunlovchi
5. umumiy (generalnaya).

Operatsiya boshlanishidan oldin barcha buyumlar, jixozlar, deraza tokchalariga kechasi bilan o'tirib qolgan chang nam sochiq bilan artib chiqiladi (dastlabki tozalash). Operatsiya davomida pastga tushgan salfetka, sharik, xirurgik asboblari yig'ishtirib olinadi (joriy tozalash). Operatsiyalar oralig'ida bemor operatsiya xonasidan chiqarilgach, choyshablar va xirurgik asboblari yig'ishtirib olinadi, operatsiya stoli antiseptik eritma bilan namlangan sochiqcha bilan artib chiqiladi va steril choyshab yoziladi, pol nam lattalar bilan artib chiqiladi (operatsiyadan keyingii tozalash). Ish kuni tugagach yakunlovchi tozalash amalga oshiriladi. Bunda shift, devorlar, deraza tokchalari, barcha buyumlar va jixozlar, hamda pollarni dezinfeksiyalovchi eritma bilan artiladi. So'ng bakteritsid lampa yoqib qo'yiladi.

Hafta oxirida operatsiya xonasini umumiy tozalash amalga oshiriladi. Bu operatsiya xonasini dezinfeksiya qilishdan boshlanadi: xona shifti, devorlari, barcha jixozlar, hamda poliga dezinfeksiyalovchi eritma sepiladi va artib olinadi. Shundan so'ng umumiy nam tozalash amalga oshiriladi va bakteritsid ultrabinafsha lampalar yoqib qo'yiladi. Operatsiya xonasi axlat, ichak maxsulotlari bilan ifloslanganda yoki anaerob infeksiya (gazli gangrena) bilan kasallangan bemorda operatsiya o'tkazilgandan so'ng navbatdan tashqari umumiy tozalash amalga oshiriladi.

SHIFOXONA ICHI INFEKSIYASI VA UNING OLDINI OLISH.

Kasalxona infeksiyasi- bemorni kasalxonaga yotqizish yoki simptomatik yallig'lanishni davolash natijasida ta'sir qiladigan mikroblar kelib chiqishi klinik jihatdan aniqlangan har qanday kasallik. Kasalxonadan bo'shatish, shuningdek tibbiy tashkilot hodimining ushbu muassasada ishlayotgan vaqtida infeksiyasi tufayli yuqumli kasalligi. Bunday ta'rif 1979 yilda Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining Yevropa

mintaqaviy byurosi tomonidan berilgan, kasalxona ichidagi infeksiyalarning konsonant tushunchasi "Tibbiy faoliyat bilan shug'ullanadigan tashkilotlar uchun sanitariya-epidemiologiya talablari" (SanPiN 2.1.3.2630 - 10) da mustahkamlangan. 2011 yil Rossiya Federatsiyasining iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va inson farovonligini nazorat qilish Federal xizmati (Rosпотребнадзорning Rossiya Federatsiyasi Departamenti) Tibbiy yordam bilan bog'liq infeksiyalarning oldini olish bo'yicha Milliy kontseptsiyani (AIMP) ishlab chiqdi (2011 yil 6 noyabrda tasdiqlangan). Ushbu siyosat hujjati Sog'liqni saqlash bilan bog'liq infeksiya (HAI) atamasini kiritadi. Bu aniqroq bo'lsa, hozirgi kunda ham ilmiy adabiyotlarda, ham JSST nashrlarida va dunyoning ko'pgina mamlakatlari qoidalarida qo'llaniladi. INFEKTSION holatlarini HAI deb tasniflashning umumiy mezonlari ularning paydo bo'lishining tibbiy yordam ko'rsatish (davolash, diagnostika testlari, immunizatsiya va boshqalar) bilan bevosita bog'liqligidir. Shunday qilib, HCAI nafaqat kasalxonaga yotqizilgan bemorlarda asosiy kasallikka qo'shiladigan infeksiyalar, balki har qanday turdagi tibbiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq infeksiyalar (poliklinika, ta'lim, sanatoriy va sog'liqni saqlash muassasalari, aholini ijtimoiy himoya qilish muassasalarida) hisoblanadi. Nozokomial infeksiyalarning etiologik tabiati mikroorganizmlarning keng doirasi (300 dan ortiq) bilan belgilanadi, ular patogen va opportunistik florani o'z ichiga oladi, ular orasidagi chegara ko'pincha loyqadir. Shunday qilib, an'anaviy (banal patogenlar) 15%, opportunistik flora esa 85% ni tashkil qiladi. Nozokomial infeksiya, birinchidan, hamma joyda uchraydigan mikroflora sinflarining faolligi bilan bog'liq, ikkinchidan, aniq tarqalish tendentsiyasi harakterlidir. Ushbu tajovuzkorlikni tushuntiruvchi sabablar orasida muhim tabiiy va orttirilgan gramm-manfiy tayoqchalar: enterobakteriyalar oilasi, shu jumladan 32 avlod va fermentativ bo'lmagan gramm-manfiy bakteriyalar (NGOB), eng mashhuri *Ps.aeruginosa*; opportunistik va patogen zamburug'lar: hamirturushga o'xshash *Candida* zamburug'lari (*Candida albicans*), mog'or zamburug'lari (*Aspergillus*, *penicillium*), chuqur mikozlarning qo'zg'atuvchisi (gistoplazma, blastomitsetlar, koksidiomitsetlar); viruslar: oddiy herpes va suvchechak patogenlari (gerpviruslar), adenovirus infeksiyasi (adenoviruslar), gripp (ortomiksoviruslar), parainfluenza, parotit, RS-infeksiyalari (paramiksoviruslar),

enteroviruslar, rinoviruslar, reoviruslar, rotaviruslar, virusli gepatitlarning patogenlari. Hozirgi vaqtda stafilokokklar, gramm-manfiy opportunistik bakteriyalar va respirator viruslar kabi nozokomial infeksiyalarning etiologik agentlari eng dolzarb hisoblanadi. Har bir tibbiyot muassasasida vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin bo'lgan nozokomial infeksiyalarning yetakchi qo'zg'atuvchisi o'z qatoriga ega. Misol uchun, yirik jarrohlik markazlarida operatsiyadan keyingii nozokomial infeksiyalarning yetakchi patogenlari Staphylococcus aureus va epidermal stafilokokklar, streptokokklar, Pseudomonas aeruginosa va enterobakteriyalar; kuyish kasalxonalarida yetakchi rol Pseudomonas aeruginosa va Staphylococcus aureusga tegishli; bolalar shifoxonalarida bolalar tomchilari infeksiyasini kiritish va tarqatish katta ahamiyatga ega - suvchechak, qizilcha, qizamiq, parotit. Yangi tug'ilgan chaqaloqlar bo'limlarida immunitet tanqisligi, gematologik bemorlar va OIV bilan kasallangan bemorlar uchun herpes viruslari, sitomegaloviruslar, Candida jinsi qo'ziqorinlari va pnevmokistlar ayniqsa xavflidir. Kasalxona ichidagi infeksiyalarning manbalari bemorlar va sog'liqni saqlash muassasalari hodimlari orasidan bemorlar va bakteriya tashuvchilardir. Ular orasida eng katta xavf nozokomial infeksiyaning oldini olish, uzoq muddatli tashuvchilar guruhiga kiruvchi tibbiyot hodimlari va shakllari o'chirilgan bemorlar; ko'pincha chidamli nozokomial shtammlarning tashuvchisiga aylangan uzoq muddatli kasalxonaga yotqizilgan bemorlar. Kasalxonaga tashrif buyuruvchilarning nozokomial infeksiyalar manbalari sifatidagi roli juda ahamiyatsiz.

Kasalxona ichi infeksiyaning yuqish mexanizmlari va yo'llari

- fekal-og'iz;
- havodan;
- o'tkazuvchan;
- aloqa;
- transmissiya omillari.

Kontaminatsiyalangan asboblar, nafas olish va boshqa tibbiy asbob-uskunalar, choyshablar, ko'rpa-to'shaklar, bemorlarni parvarish qilish buyumlari, bog'lamlar va tikuvlar, endoprotezlar va drenajlar, transplantlar, kombinezonlar, poyabzallar, hodimlar va bemorlarning sochlari va qo'llari ham ahamiyatga ega. Kasalxona sharoitida patogenlarning ikkilamchi, epidemik xavfli rezervuarlari paydo bo'lishi

mumkin, ularda mikroflora uzoq vaqt davomida omon qoladi va ko'payadi. Bunday rezervuarlar suyuq yoki namlik o'z ichiga olgan narsalar bo'lishi mumkin - infuzion suyuqliklar, ichimlik eritmalari, distillangan suv, qo'l kremlari, gulli vazalardagi suv, konditsionerlar uchun namlagichlar, dush, kanalizatsiya va suv qulflari, qo'l yuvish uchun cho'tkalar, tibbiy asboblarning ba'zi qismlari, diagnostika asboblari, hatto faol moddaning past konsentratsiyasi bo'lgan dezinfeksiyalash vositalari.

Nozokomial infeksiyalarning oldini olish.

Nozokomial infeksiyalarning oldini olish ko'p qirrali bo'lishi kerak va bir qator tashkiliy, epidemiologik, ilmiy va uslubiy sabablarni ta'minlash juda qiyin. Kasalxona ichidagi infeksiyalarga qarshi kurash samaradorligi sog'liqni saqlash muassasalarining eng so'nggi ilm-fan yutuqlari, zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta'minlanganligi hamda bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatishning barcha bosqichlarida epidemiyaga qarshi rejimga qat'iy rioya etilishi bilan belgilanadi. Sog'liqni saqlash muassasalarida, profilidan qat'i nazar, infeksiyani kiritish imkoniyatini minimallashtirish, shifoxona ichidagi infeksiyalarni istisno qilish va infeksiyaning sog'liqni saqlash muassasasidan tashqarida tarqalishini istisno qilish kerak. Nozokomial infeksiyalarning oldini olish, albatta, murakkab va ko'p qirrali masala. Kasalxona ichidagi infeksiyalarning oldini olishning har bir yo'nalishi kasalxonada yuqumli qo'zg'atuvchining yuqishining u yoki bu yo'lining oldini olish uchun sanitariya-gigiyena va epidemiyaga qarshi choralarni ko'radi. Ushbu sohalarga binolarni, jihozlarni, inventarlarni sanitariya holatida saqlashga qo'yiladigan umumiy talablar, bemorlar va tibbiyot hodimlarining shaxsiy gigiyenasi, dezinfeksiyani tashkil etish, sterilizatsiyadan oldingi ishlov berish va tibbiy asboblarni sterilizatsiya qilish talablari kiradi. Barcha binolar, jihozlar, tibbiy va boshqa inventarlarni toza saqlash kerak. Binolarni nam tozalash (pollarni, mebellarni, jihozlarni, deraza tokchalarini, eshiklarni va boshqalarni yuvish) kuniga kamida 2 marta, kerak bo'lganda esa tez-tez yuvish va dezinfeksiyalash vositalaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Barcha tozalash uskunalari (chelaklar, lavabolar, lattalar, moplarni va boshqalar) binolarni va tozalash ishlarining turlarini ko'rsatgan holda aniq belgilanishi, qat'iy belgilangan maqsadlarda ishlatilishi va alohida saqlanishi kerak. Bo'limlar va boshqa funktsional binolar, idoralar

binolarini umumiy tozalash har oyda kamida bir marta yaxshilab yuvish va dezinfeksiya qilish bilan tasdiqlangan jadvalga muvofiq amalga oshirilishi kerak. Devorlar, pollar, barcha jihozlar, shuningdek, mebellarni, lampalarni, changdan himoya pardalarni tozalash zarur.

Operatsiya bo'limi, kiyinish xonalari, tug'ruq xonalarini umumiy tozalash (yuvish va dezinfeksiya qilish) haftada bir marta binolarni jihozlar, mebellar va boshqa inventarlardan bo'shatish bilan amalga oshiriladi. Maxsus sterillik, aseptika va antiseptika talab qilinadigan binolar (operatsiya xonalari, kiyinish xonalari, tug'ruq xonalari, reanimatsiya bo'limlari, protsessual, yuqumli qutilar, bakteriologik va virusologik laboratoriyalarning qutilari va boshqalar). Tozalashdan so'ng, shuningdek ish paytida uni vaqti-vaqti bilan xonaning 1 m³ uchun 1 Vt quvvatda ultrabinafsha statsionar yoki mobil bakteritsid lampalar bilan nurlantirish kerak. Shamollatish teshiklari, transomlar, to'siqlar orqali toza havoga kirishga muhtoj bo'lgan palatalarni va boshqa xonalarni ventilyatsiya qilish kuniga kamida 4 marta amalga oshirilishi kerak. Maxsus ahamiyatga ega bo'lganligi sababli, biz zig'ir rejimi masalalariga to'xtalamiz. Statsionar bemorlar jihozlar ro'yxatiga muvofiq, yetarli miqdorda zig'ir bilan ta'minlanishi kerak. Bemorlar uchun zig'ir ifloslanganligi sababli o'zgartiriladi, muntazam ravishda, lekin 7 kun ichida kamida 1 marta. Bemorlarning sekretsiyasi bilan ifloslangan choyshabni darhol almashtirish kerak. Nozokomial infeksiyalarning oldini olishda dezinfeksiyada juda muhim yo'nalish hisoblanadi. U kasalxona bo'limlarining palatalari va funktsional binolarining tashqi muhitida, tibbiy asboblari va jihozlarda patogen va opportunistik mikroorganizmlarni yo'q qilishga qaratilgan. Dezinfeksiya kichik va o'rta tibbiyot hodimlarining murakkab va ko'p vaqt talab qiladigan kundalik vazifasi bo'lib qolmoqda. Kasalxona ichidagi infeksiyalarning oldini olishda dezinfeksiyaning alohida ahamiyatini ta'kidlash kerak, chunki bir qator hollarda (GSI, shifoxona ichidagi ichak infeksiyalari, shu jumladan salmonellyoz) dezinfeksiya kasalxonada kasallanishni kamaytirishning deyarli yagona usuli bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, nozokomial patogenlarning barcha shifoxona shtammlari deyarli to'liq antibiotik qarshiligi bilan birga, tashqi omillarga, shu jumladan dezinfeksiyalash vositalariga sezilarli qarshilikka ega. Masalan, shifoxonadagi salmonellyoz *S. typhimurium* qo'zg'atuvchisi xlor o'z ichiga olgan dezinfeksiyalash vositalarining

ishchi eritmalariga sezgir emas va kamida 30 daqiqa ta'sir qilish bilan faqat 3% xloramin eritmasi va 5% vodorod peroksid eritmasi ta'sirida o'ladi. Fokal dezinfeksiya uchun past konsentratsiyali eritmalaridan foydalanish shifoxonalarda tashqi ta'sirlarga yanada chidamli bo'lgan shtammlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Operatsiyadan keyingii yiringli asoratlarni oldini olish va nazorat qilish uchun sanitariya-gigiyena tadbirlari majmuasi tashkil etiladi va amalga oshiriladi. INFEKTSION manbalarini aniqlash va izolyatsiya qilish va tarqalish yo'llarini to'xtatishga qaratilgan sanitariya-gigiyena tadbirlari majmui: operatsiyadan keyingii davr yiringli-septik kasallik bilan asoratlangan bemorlarni o'z vaqtida aniqlash va maxsus bo'limlarga joylashtirish; patogen stafilokokk tashuvchilarni o'z vaqtida aniqlash va ularni sanitariya qilish; tibbiy hodimlarning qo'llarini va jarrohlik sohasi terisini dezinfeksiyalashning yuqori samarali usullaridan foydalanish; zig'ir, kiyim-kechak, asboblari, shpritslarni markaziy sterilizatsiya qilishni tashkil etish; tashqi muhitning turli xil ob'yektlarini (to'shak, yumshoq inventar, kiyim-kechak, poyabzal, idish-tovoq) davolash uchun dezinfeksiyalash usullari va vositalaridan foydalanish. Operatsiyadan keyingii asoratlarga qarshi kurashish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni o'tkazish uchun javobgarlik bosh shifokor va jarrohlik bo'limlari boshliqlariga yuklanadi. Bo'lim boshliqlari katta hamshira bilan birgalikda rejimdan chiqarishga rioya qilish bo'yicha ko'rsatmalarning bajarilishini tashkil qiladi va nazorat qiladi. Katta hamshira o'rta va kichik tibbiyot hodimlariga epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalar beradi. Dezinfeksiya va sterilizatsiya tadbirlari kasalxona ichidagi infeksiyalarning oldini olish va ularga qarshi kurashish maqsadida tizimli ravishda profilaktik dezinfeksiya (hozirgi va umumiy tozalash) va agar kasalxona ichidagi infeksiyalar yuzaga kelsa, joriy (kasal bemor bilan aloqada bo'lgan barcha narsalarni dezinfeksiya qilish) yoki yakuniy (bemor boshqa bo'limga o'tkazilgandan keyin bo'limdagi barcha narsalarni dezinfeksiya qilish, tiklanish, va boshqalar) dezinfeksiya qilish. Dezinfeksiyani o'tkazishda kimyoviy vositalar, dezinfeksiyaning fizik usullari va kombinatsiyalangan usullari qo'llaniladi. Tibbiy tashkilotlarda dezinfeksiya va sterilizatsiya tadbirlarini o'tkazishda faqat tibbiy muassasalarda foydalanish uchun belgilangan tartibda ruxsat etilganlardan foydalanishga ruxsat beriladi.

sharoitga; 3. organizm qo'zg'alish faollashuvining darajasiga va boshqalar. Agoniya holatining davomiyligi klinik o'lim bosqichining qisqarishiga olib keladi. Bu davr quyidagi hollarda qisqaradi: 1. modda almashinuvi kuchayganda; 2. isitmali holatlarda; 3. uzoq muddatli kechuvchi kasalliklarda. Klinik o'limni cho'zilishiga olib keladigan sabablar: 1. chuqur gipotermiya; 2. yuqori oksigenatsiya sharoitida qon aylanishining to'satdan to'xtashi; 3. gipoksiyaga organizmning moslashuvi. Chuqur gipotermiyada (-20°C) klinik o'lim davri 45 minutgacha cho'zilishi mumkin. Shuning uchun ba'zi hollarda odam sovuq suvda bir soat cho'kkanda ham reanimatsion chora- tadbirlar yaxshi yordam berishi mumkin. Agar klinik o'limda ko'rsatiladigan tadbirlar naf bermasa biologik o'lim kuzatiladi. Klinik o'lim belgilari: 1. Yurak faoliyatining to'xtashi – qon aylanishini to'satdan to'xtashining asosiy belgilaridan biri. 2. Hushning bo'lmasligi – qon aylanishi to'xtashi bilan 10 sek ichida yuzaga chiqadi. 3. Qaltirash - hush yo'qotilganda yuzaga chiqadi. Ko'p hollarda qaltirashni atrofdagilar payqashadi. 4. Nafas harakatining to'xtashi – qon aylanishi to'xtashidan keyin 20-30 sekunddan keyin kuzatiladi. Qo'shimcha belgilar: qorachiq kengayishi va uning yorug'likka reaksijasining yo'qolishi, qon aylanishi to'xtashidan keyin 30-40 sekunddan keyin kuzatiladi.

Biologik o'lim – bu qaytmas jarayon bo'lib, xech qanday chora tadbirlar yordam bermaydi. Bu holat klinik o'lim holatidan keyin yuzacha chiqadi va butun organizm tiriklik faoliyatining to'xtashi bilan kechadi. Biologik o'lim belgilari: 1. Hushning bo'lmasligi. 2. Yurak urishining bo'lmasligi. 3. Nafas harakatlarining bo'lmasligi. 4. Ko'z shox pardasining qurishi. Qorachiqning kengayishi va tashqi ta'sirotlarga reaksiyasi bo'lmasligi. 5. Organizm ostki qismlarida o'lim dog'lari paydo bo'lishi (o'limdan 2 soatdan keyin). 6. Organizning qotishi (mushak to'qimasining qotishi) o'limdan keyin 6 soatdan keyin yuzaga chiqadi. 7. Tana haroratining tushishi (tashqi muxit Haroratigacha).

Reanimatsion chora-tadbirlar o'tkazilishiga ko'rsatmalar.

Reanimatsion chora-tadbirlarning o'tkazilishi va to'xtatilishi qonun bilan belgilangan. Bunday tadbirlar to'satdan o'lim holatining hamma ko'rinishlarida ko'rsatiladi va shu bilan birga qarshi ko'rsatmalar ham mavjud. Qarshi ko'rsatmalar: 1. xayotga noloyiq jarohatlar (boshning tanadan uzilishi, ko'krak qafasi butunlay ezilishi); 2. biologik o'limning

yaqqol belgilari. Reanimatsion chora-tadbirlarga qarshi ko'rsatma bo'lgan holatlar: 1. agar o'lim to'liq intensiv davo natijasida va hozirgi kundagi tibbiyotda o'z yechimini topmagan kasalliklar natijasida ro'y bergan hollarda; 2. agar bemorda surunkali kasalliklar terminal bosqichi va ko'rsatiladigan reanimatsion choralar foydasizligi kasallik tarixida batafsil bayon qilingan hollarda (bularga og'ir onkologik kasalliklar va og'ir xayotga noloyiq jarohatlar kiradi); 3. agar yurak faoliyatining to'xtaganiga 25 minutdan ko'p vaqt bo'lgan bo'lsa (tana Harorati tashqi muxit harorati bilan bir xil); 4. agar bemor oldindan o'tkaziladigan reanimatsion chora- tadbirlardan qonunda ko'rsatilgan tartibda bosh tortgan bo'lsa.

Qon aylanishi va nafas harakatlari to'xtaganda birinchi yordam. O'pka-yurak reanimatsiyasi bajarilishidan oldin bemor bilan kontakt aloxida o'rin tutadi. Bemor bilan kontakt orqali biz bemor hushini holati va shikoyatlarini bilishimiz mumkin. Yurak faoliyatini dastlab qo'l arteriyalarida va keyinchalik uyqu arteriyasida aniqlanadi. Nafas harakatlari ko'krak qafasi harakatiga qarab emas balki bemor burniga yaqinroq borib quloq solish yoki burun oldiga mayin ip oborish orqali aniqlanadi. Qorachiq holatini baholash yuqori qovoqni ko'tarish orqali bajariladi. Agar bemorda nafas va yurak faoliyati to'xtagan bo'lsa, dastlab biologik o'lim belgilari bor yoki yo'qligiga e'tibor beriladi. Agar bemorda klinik o'lim belgilari kuzatilsa «Yordam bering!» so'zlari orqali atrofdagilarni yordamga chaqirish kerak yoki uyali aloqadan foydalanish orqali yordam chaqirish kerak bo'ladi. Shundan keyin o'pka-yurak reanimatsiyasiga kirishiladi: yurak bilvosita massaji, ustki kiyimlarini yechish va qattiq yerga yotqizish (yurak faoliyati to'satdan to'xtagan hollarda prekardial zarba yaxshi yordam beradi).

O'pka-yurak reanimatsiyasi texnikasi. Quyidagi komponentlardan iborat: «A – airway» - nafas yo'llari o'tkazuvchanligini tiklash. «V – breathing» - sun'iy nafas (O'SV). «C – circulation» - sun'iy qon aylanishi (yurak yopiq massaji). Uchlik usulini qo'llashdan oldin yuqori nafas yo'llari va og'iz bo'shlig'i ko'zdan kechiriladi va tozalanadi (qusuq massalarni olib tashlash, qon laxtalarini va singan tishlardan tozalash). Uchlik metodi. Yuqori nafas yo'llari o'tkazuvchanligini tiklash uchlik metodi «A – airway» bilan olib boriladi 1. Bosh orqaga qayiriladi. 2. Pastki jag' pastga tortiladi. 3. Og'iz ochiladi. Yuqori nafas yo'llari o'tkazuvchanligini tiklash

statsionar sharoitda maxsus instrumentlar orqali bajariladi (og'iz ochgich, til ushlagich, xavo o'tkazgich). O'pkalar sun'iy ventilyatsiyasi (USV). «B – breathing» bemorga “og'izdan og'izga va “og'izdan burunga” ekspirator usullar orqali nafas beriladi (bevosita yoki nafas o'tkazgich orqali). Reanimator bemor yon tomonida turadi. Og'iz bo'shligi tozalangandan va uchlik usuli bajarilgandan keyin reanimator chuqur nafas olib bemor o'pkalariga kuch bilan puflaydi va bunda bemorning burni yoki og'zi reanimator qo'li bilan xavo chiqib ketmasligi uchun bosiladi. Sun'iy nafasni xavo o'tkazgich orqali ham amalga oshiriladi. Xavo o'tkazgich – egilgan rezina trubka (S harfiga o'xshash) bo'lib og'izni yopilishiga to'sqinlik qiladi. Xavo o'tkazgich og'iz bo'shligi tozalangandan keyin xavo beriladigan teshigi pastga qaratilgan holda og'iz bo'shligiga kiritiladi va og'iz bo'shlig'iga aylanirilib til ustida xavo o'tkazgich teshigi tepaga chiqariladi (tilni orqaga ketishiga to'sqinlik qiladi). Tashqi teshigi orqali reanimator xavoni bemor o'pkalariga puflaydi va bunda burunlar teshigi yopilgan holatda bo'ladi. O'SV ni portativ apparat «RDA-1» yordamida qilish mumkin (AMBU qopi). Bu apparat elastik qopchadan iborat bo'lib, xavo beruvchi maska klapan orqali bog'langan bo'ladi. Yuqori nafas yo'llarini va og'iz bo'shligini tozalangandan so'ng xavo o'tkazgichga rezinali maska germetik yopiladi va bu o'z navbatida AMBU qopchasiga klapan orqali birikadi, shu tarzda AMBU qopchasining bosilishi o'pkalar ventilyatsiyasiga olib keladi. AMBU qopchasining siqilishi natijasida kerakli xajmdagi va chastotadagi xavo o'pkalarga puflanadi. Nafas berish faol ravishda jo'natiladi, xavoning chiqishi atmosferaga erkin holda. Nafas chiqarish paytida AMBU qopchasi cho'ziladi va xavoga to'ladi. Bunda nafas ritmiga e'tibor berish kerak bo'ladi, chunki nafas olish chiqarishdan deyarli 2 barobar qisqa bo'ladi. Bu usulning afzalligi shundaki, reanimatorga infeksiyon xavfsizlik tug'diradi va bemorga toza xavo jo'natiladi. O'SV AMBU qopchasi orqali bajarilishi, reanimatorga osonlik va gigiyenik tomondan ishini yengillashtiradi. Reanimatsion choralarni agar bir kishi qiladigan bo'lsa yurak va nafas harakatlari 10:2 (10 marta bilvosita yurak massaji va 2 marta sun'iy nafas), agar ikki kishi bajaradigan bo'lsa 30:2 nisbatda bajariladi.

Yurak yopiq massaji. Yurak yopik massaji qilinishi uchun bemor qattiq joyga yotqizilishi kerak «C – circulation» va unda keyin: 1.

reanimator bemorning yon tomonida turadi; 2. to'sh suyagining pastki 1/3 qismidan, ya'ni 2 barmoq enligida xanjarsimon o'simtadan yuqoridan bosish; 3. ko'krak qafasining bosilishi bitta qo'l bilan bajariladi va qo'shimcha kuch sifatida 2 chi qo'l ustidan bosadi; 4. bunda barmoqlar to'g'ri holatda bo'ladi, qovurg'alarga tegmaydi (qovurg'alar sinishini profilaktikasi); 5. massaj reanimatorning butun og'irligini bosilishi bilan bajariladi va bunda tirsak bo'g'imi bukilmadan maksimal darajada ochilgan holatda bo'ladi; 6. ko'krak qafasiga bosilishi – kuchli, faol, tez bo'lishi kerak va ko'krak kafasi 4-5 sm bosilishi kerak; 7. qo'llar bosilgandan keyin tez qo'yib yuboriladi. Reanimatorlar bemorni yon tomonlarida bo'lishlari kerak, chunki yurak massaji og'ir va jismoniy kuch talab qiladigan muolaja bo'lganligi uchun tez-tez o'rin almashinib turishadi. Yurak yopik massaji samaradorligi markaziy va periferik arteriyalarda pulsatsiyaning paydo bo'lishi bilan ifodalanadi.

Tiriltirish samaradorligi kriteriyalari. Reanimatsion chora-tadbirlar samarali hisoblanadi: 1. O'SV paytida ko'krak qafasi evakuatsiyasi; 2. markaziy va periferik arteriyalarda pulsatsiyaning paydo bo'lishi; 3. qon bosimining aniqlanishi, (100/10 mm.sim.ust.); 4. kengaygan qorachiqning torayishi; 5. spontan nafas, yurak urishi, qon bosimi, hushning paydo bulishi, shilliq qavatlarining pushti rangga kirishi.

O'pka-yurak reanimatsiyasi to'xtatilishiga ko'rsatma. Quyidagi hollarda to'xtatiladi: 1. ko'rilgan chora-tadbirlarning 30 min davomida samara bermasligi. 2. choralar ko'rilayotgan maxalda 30 minut ichida yurak faoliyatining nointensiv ravishda ishlashi va to'xtashi.

Jarrohlik bo'limlarida murda bilan qonuniy harakat. Biologik o'lim konstatatsiya qilingandan so'ng tibbiyot hamshirasi bajarishi kerak bo'lgan harakatlar: 1. Murdani kiyimlarini yechib olish va uni katalkada yostiqsiz qattiq o'rindiqqa yotqizish. 2. davolovchi shifokor guvoxligida qimmatbaxo narsalarini yechib olish, yozib qo'yish va katta hamshiraga topshirish. Agar qimmatbaxo narsani murdadan yechishning iloji bo'lmasa kasallik tarixiga shu xaqida yozish va morgga jo'natish. 3. qovoqlarini yopib qo'yish (agar ochiq bo'lsa). 4. og'izni yopish (agar ochiq bo'lsa) va pastki jag'ni bog'lab qo'yish. 5. qo'llarini qoriga qo'yib bir-biriga bog'lash. 6. oyoqlarini to'g'irlab qo'yish va bir-biriga bog'lash. 7. murdani yopinchiq bilan yopib 2 soat davomida shu holatda

palatada yoki izolyatorda qoldirish (yaqqol biologik o'lim belgisi – o'lim dog'lari paydo bo'lgungacha). 8. qog'ozga bemor F.I.SH. va kasallik tarixi tartib raqamini yozib oyog'iga ilib qo'yish. 9. qarindoshlariga habar berish. 10. murda qarindoshlari bilan gaplashganda o'lim holatini tushuntirish, hurmat qilish va to'g'ri suxbatlashish. 11. yondosh qog'ozni to'ldirish va unda F.I.SH ni, kasallik tarixi tartib raqamini, o'lim sanasi va vaqtini ko'rsatish lozim. 12. 2 soatdan keyin yaqqol biologik o'lim belgilari kuzatilgandan so'ng (o'lim dog'lari) patologoanatomik bo'limga sanitarlar orqali jo'natish.

Evtanaziya muammosi. Evtanaziyani 2 xil turi mavjud: faol va passiv. 1.Faol evtanaziya. Bunda bemorning o'zi yoki yaqinlari ko'rsatmasiga asosan bemorga ortiqcha azob bermaslik uchun o'ldirish nazarda tutiladi. Bu shifokor faol harakati bilan yoki «to'liq shprints usuli» orqali amalga oshiriladi. Shunga o'xshash holatlar ko'pchilik davlatlarda ta'qiqlangan va qasddan o'ldirish deb hisoblanadi. 2.Passiv evtanaziya. Passiv evtanaziya – juda qiyin bo'lgan davo muolajalari qo'llanilishini chegaralash va qo'llamaslik, qaysiki ularning qo'llanilishi bemor xayotining uzayishiga olib kelishi mumkin, lekin darddan to'liq sog'aymaydi. Boshqacha qilib aytganda «kechiktirilgan shprints usuli». Bunday holatlar ayniqsa o'ta og'ir bo'lgan bemorlar, tuzalmas o'ta og'ir kasalliklar, dekortikatsiyada va tug'ma og'ir nuqsonlarda hozirgi kunda juda dolzarbligicha qolmoqda. Bunday holatlarda shifokorlarining bu usulni qo'llashi va maqsadga yo'naltirilganligi hozirgacha jamiyatda o'z o'rnini topmagan va ko'plab davlatlarda bunday xatti-harakatlar tavsiya qilinmaydi. O'zbekistonda evtanaziya qat'iyan ta'qiqlanadi.

Terminal holatdagi bemorlarga yordam ko'rsatish, ahvoli haqida axborot berish. Qusayotgan bemorlarga yordam ko'rsatish. Jarohatlangan sohaga muz qo'yish

Terminal holat (lat. terminalis ohirgi, chegara holat) – bu hayot va o'lim o'rtasidagi chegara holat bo'lib, hayotiylik ko'rsatkichlarini kritik darajada buzilishi qon bosimining keskin tushib ketishi, metabolizm va havo almashinishining chuqur buzilishi bilan kechadigan holat. Terminal holatlarni keltirib chiqaruvchi omillaridan jarohatlar, kuyishlar, elektr bilan jarohatlanish, cho'kish, mexanik asfiksiya, miokard infarkti, yurak ritmini o'tkir buzilishi, anafilaksiya (hashoratlarni chaqishi, dorilarni yuborilishi) bo'lib hisoblanadi. Yurak

to'xtashini patogenezi bitta etiologik faktor ta'sirida bo'lishi mumkin. Sirtmoq xiqildoqni yuqori sohasida siqilishi sababli mexanik asfiksiyada dastlab nafas olishni reflektor to'xtashi to'g'ridan to'g'ri karotid sinuslarni bosilishi sababli kelib chiqadi. Boshqa holatlarda bo'yinni yirik tomirlari, traxeyani bosilishi, ayrim xollarda bo'yin umurqalarini sinishi, yurak to'xtashiga bir muncha boshqacha patogentik ko'rinish beradi. Cho'kish vaqtida suv tezda nafas yo'llarini to'ldirishi mumkin, bu alveolalardagi oksigenatsiya jarayonini to'xtatadi. Boshqa holatlardagi o'limlarda ovoz tirqishini kritik spazmi sababli gipoksiyani kritik darajasi kelib chiqadi. Tana orqali elektr tokini o'tishida, hayotiy funktsiyalarni kritik buzilishi mexanizmi kuzatiladi. Terminal holatni uch bosqichli tasnifi keng tarqalgan: predagoniya, agoniya, klinik o'lim. Undan tashqari, reanimatsion muolajalardan keyingii holat ham kiritiladi. Predagonal holat: umumiy karaxtlik, hushida emas, qon bosimi aniqlanmaydi, pereferik qon tomirlarda puls aniqlanmaydi, lekin son va uyqu arteriyalarida aniqlanadi; nafas olishni buzilishi xansirash, sianoz va teri qoplamlari va shilliq qavatlarini rangparligi kuzatiladi. Agonal holat: quyidagi simptomokompleks asosida aniqlanadi: hushini yo'qligi va ko'z reflekslarini yo'qligi, qon bosimi aniqlanmaydi, yirik arteriyalarda juda sust va pereferik tomirlarda aniqlanmaydi; auskultatsiyada yurak tonlari sust eshitiladi; EKGda yurak ritmini buzilishi va gipoksiya belgilari qayd qilinadi. Klinik o'lim: qon aylanishini butunlay to'xtashidan keyin, nafas va markaziy nerv sistemasini funksional aktivligini yo'qolishi bilan qayd qilinadi. O'pkalarni ishlashini to'xtashidan so'ng almashinuv jarayonlari keskin susayadi, lekin anaerob glikoliz hisobiga to'liq to'xtamaydi. Shu sababli klinik o'lim holatidan qaytarish mumkin, uni davomiyligi nafas va qon aylanishini to'liq to'xtashidan keyingii bosh miyani yashashi bilan bog'liq bo'ladi. Shu o'rinda miya va biologik o'lim tushunchalarini eslatib o'tish mumkin. "Miya o'limi" holati (dekortikatsiya) - miya yarim sharlarini orqaga qaytmas zararlanishida qayd qilinadi. Lekin erta davrlarda (klinik o'limni birinchi soat va kunlarida) bu tashxisni qo'yish juda murakkab. Biologik o'lim umumlashtirilgan ko'rinishda hayotiylikni orqaga qaytmas buzilishida aniqlanadi. Uni ob'yektiv belgilari bo'lib gipostatik dog'lar paydo bo'lishi ko'rsatadi, haroratni tushishi va murda tanasia mushaklarni qattiqlashishi aniqlanadi. Ko'pincha potensial sog'lom odamlarda tez

o'lim holatlarida bosh miyani o'rtacha yashashi 3 daqiqani tashkil qiladi. Undan so'ng bosh miyada orqaga qaytmas o'zgarishlar yuzaga keladi. Halok bo'lishni erta davrlarida o'limni barcha turlarida uchta klinik belgilar triadasi aniqlanadi; nafasni yo'qolishi (apnoe), qon aylanishini to'xtasht (asisitoliya), hushini yo'qolishi (koma). Spontan nafasni to'liq to'xtashi (apnoe) vizual aniqlanadi – nafas ekskursiyasini yo'qligi bilan. Apnoeni vizual diagnostikasi reanimatologdan kuchli diqqatlilikni, aniq va tez harakatni talab qiladi. To'liq obturatsiya tashhisi sun'iy nafasni bosim ostida berganda o'tmasligida qo'yiladi. Nafas yo'llarini o'tqazuvchanligini shoshilinch tiklash quyidagi harakatlarni bajarish bilan erishiladi: bemor qulay holatda yotqiziladi; boshini orqaga qilinadi, o'pkaga havo yuborishga harakat qilinadi. Yurak urishini to'xtashi simptomiga – son va uyqu arteriyalarida puls yo'qolishiga asoslanadi. Puls yo'qligi – yurakni yopiq massajiga o'tishga belgi hisoblanadi. Yurak va nafas faoliyatini tiklanish zahotiyoq miya va organizmni sovutish choralariga o'tiladi, ya'ni miyani va a'zolarni gipoksiyaga chidamliligini oshiruvchi dorilarni yuboriladi.

Xulosa qilish murakkab, agarda reanimatsion muolajalardan so'ng qon aylanishi tiklansa-yu, lekin xushiga kelmasa, sun'iy nafas berish davom ettiriladi. Jonlantirishni erta bosqichlarida “miya o'limi” haqida gapirish murakkab, shu sababli reanimatsion muolajalarni davom ettirish lozim. Koma holatini 6 soatdan uzoq davom etishida miya faoliyatini to'liq tiklanishiga umid kamayadi; chuqur komada 24 soatdan keyin keskin kamayadi; 48 soatdan keyin yo'qoladi. Agonal holatdagi bemorlarni parvarishi. Agoniya – o'lim oldi holati, modda almashinuvini chuqur buzilishi va organizmni hayotiy funksiyalarini so'nishi bilan karakterlanadi. Agoniyadan so'ng bir necha soniyadan bir necha daqiqagacha davom etadigan terminal (oxirgi) pauza holati yuzaga keladi. Bu qisqa vaqt ichida nafas olish dastlab tezlashadi, keyin vaqtincha to'xtaydi, yurak faoliyati sekinlashadi, ko'z qorachiqdari kengayadi, to'r parda refleksi yo'qoladi. Undan so'ng yuzaga keladigan bir nechta soniyadan soatgacha davom etadigan agonal holatda nerv tizimini yuqori bo'limlarini faoliyatini buzilishi; bosh miya funktsiyalarini so'nishi (hushini yo'qotish), uzunchoq miyani xaotik funksiyasi (nafas olish juda sustlashadi, noto'g'ri bo'lib qoladi). Arterial qon bosimi nolgacha tushib ketadi, puls ipsimon bo'lib keyinchalik

butunlay yo'qoladi. Tana harorati tushib ketadi, umumiy talvasa va sfinkterlar paralichi (siydik va axlat tuta olmaslik) kuzatiladi. Agar agonal holat davom etsa o'pka shishi yuzaga keladi. Agonal holatdagi bemorlarni holati, tashqi ko'rinishi: rangpar va ko'kargan yuzi, sovuq ter bosadi, ko'zni shox pardasi xiralashadi. Nafas va yurak faoliyatini to'htashi bilan klinik o'lim holati yuzaga keladi. Agonal holatga tushgan bemor reanimatsion muolajalarga muxtoj. Odatda nafas va yurak-qon tomir, miya faoliyatini jonlantiruvchi dori vositalari yuboriladi. Halok bo'layotgan bemorlarni oldida ortiqcha gaplashishni to'xtatish lozim, chunki ular eshitishi mumkin va bu holatini yanada og'irlashtiradi. Ularni alohidalash kerak yoki izolyatorga joylash kerak. Agarda klinik o'lim holati operatsiyadan so'ng yoki jarohatlanish sababli kelib chiqqan bo'lsa, reanimatsion muolajalarni davom ettirish lozim. Klinik o'lim holatida bajarilgan davo choralari yordam bermaganda biologik o'lim yuzaga keladi: nafas va yurak faoliyati to'xtaydi, mushaklar bo'shashadi, tana haroratini tushishi kuzatiladi. Keyinchalik tanani pastki qismlarida ko'kimtir rangdagi murda dog'lari paydo bo'ladi. Vrach o'limni qayd qiladi va kasallik tarixiga kun va vaqtini qayd qiladi. Murdani yechintirib oyoqlarin cho'zib yotqiziladi, pastki jag'i bog'lanadi, qovoqlari yopiladi, ustini yopib 2 soatga qoldiriladi. Hamshira murda oyoqlariga ismi sharifi va kasallik tarixi sonini yozib qo'yadi. Undan tashqari ma'lumotlari kiritilgan yo'naltiruvchi ma'lumotnoma to'ldiriladi. Murdani yorish uchun patologoanotamik bo'limga o'limni yaqqol belgilari (murga dog'lari, qattiqlashish, ko'z kosalarini yumshashi) paydo bo'lgach olib chiqiladi. Barcha murdalar yorib tekshiriladi va shundan so'ng qarindoshlariga beriladi. Murdadan qimmatbaho buyumlar yechiladi va akt tuziladi. Shundan so'ng qarindoshlariga tilxat ostida beriladi.

Qusayotgan bemorlarga birinchi yordam ko'rsatish. Qusish – oshqozon massalarini to'satdan og'iz orqali chiqishi. Qusish uzunchoq miyada joylashgan qusish markazini buyrug'i bilan yuzaga keladi. Bu markazga impulslar oshqozondan, ichaklardan, jigar, buyrak, bachadon, vestibulyar apparatdan va oliy nerv tizimidan (masalan yoqimsiz hid sababli) kelishi mumkin. Shu qatorda qusish har xil toksik moddalar va dorilarni qusish markaziga ta'siri natijasida yuzaga kelishi mumkin. Ko'p holatlarda qusishdan oldin ko'ngil aynashi, so'lak ajralishi, tez va chuqur nafas olish bilan boshlanishi mumkin.

Qusishni qayt qilishdan farqlash lozim. Qayt qilish odatda qorin mushaklari va diafragmani harakatisiz, bu oshqozonni ovqat yoki havo bilan to'lishi sababli yuzaga keladi. Bolalarda, ayniqsa erta yoshli bolalarda, qusish ko'p uchraydi. Bolalarda qusish ximoya funksiyalarini rivojlanmaganligi, qusuq massalarini nafas yo'llariga tushishi xavfi bilan ayniqsa xavfli.

Qusishda dastlabki yordam ko'rsatish. 1. Agar bolada qusish kuzatilsa uni yolg'iz qoldirmaslik kerak. 2. Qusuq massalarini nafas yo'llariga tushishini oldini olish maqsadida bolani yonbosh holatida yotqizish lozim. 3. Har bir qusishdan so'ng bolani og'zini toza suv bilan yuvish lozim (20 grammlik shprints yoki sprinsofka yordamida) va terini qusuq massalari tushgan sohalarini yuvish kerak. 4. Qusish sababini aniqlamaguncha bolani ovqatlantirish yoki unga dori vositalarini bermaslik kerak.

Muz xaltasini qo'yish. Muz xaltasini qo'yish asosan tanani zararlangan sohasiga qon kelishini kamaytirish maqsadida qo'llaniladi. Xaltani qo'llash uy sharoitidagi fizioterapiya muolajasiga kiritish mumkin. Quruq sovuq gipotermik effekt sababli qon tomirlarini torayishiga olib keladi, Sovuq nerv ta'sirchanligini kamaytiradi va og'riq kamayadi. Xaltadagi muzni erishi sekin davom etganligi sababli tibbiyotda xozirgacha keng qo'llaniladi. Muz xaltasini qo'yishga ko'rsatma: 1. Qon ketish (ichki va tashqi) 2. Lat yeyishlar (dastlabki kunlarda). 3. Harorat ko'tarilganda. 4. Komatoz holatida 5. Hasharotlar chaqishida. 6. Qorin bo'shlig'idagi o'tkir yallig'lanish jarayonlarida. 7. Operatsiyadan keyingii davrlarda. Muolajaga tayyorlash: Muz bo'lakchalari yoki katta bo'lagi olinadi, 2-3 qavat choyshabga o'raladi, katta bo'lagi bo'lsa urib maydalanadi. Katta bo'lagini o'zini ishlatish ta'qiqlanadi. Toza choyshab yoki sochiq tayyorlanadi, muz uchun toza idish olinadi. Sovuq suvli idish tayyorlanadi. Muz xaltasini qo'llash texnikasi: Muz xaltasini qo'yishdan oldin qo'yiladigan sohani ko'zdan kechirish lozim. Yallig'lanish, timalish, qizarish yo'qligini aniqlash kerak. Muz xaltasi asosan boshni peshona va ensa sohalariga, ko'krak qafasiga, qorin sohasiga, yirik qon tomirlar sohasiga (chov, qo'ltiq osti sohalar) qo'yiladi. Ko'krak yoshidagi bolalarga bosh sohsiga muz xalta qo'yish mumkin emas. Bu holatlarda sovuq kompresslar qo'llash mumkin.

Reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limi tuzilishi va ishini tashkillashtirish

Reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limida barcha hodimlar muayyan rangdagi maxsus kiyimlarni kiyadi, (xalat va qalpoqchani har kuni almashtirishadi). Hodimlar oyog'ida almashtiriladigan oyoq kiyim bo'lib, ular doimo dezinfeksiya qilib turiladi. Tibbiy qalpoqchalar va niqoblarni taqish shart hisoblanadi (niqoblar har 4-5 soatda almashtiriladi). Barcha manipulyatsiyalarni bajarish maxsus qo'lqoplarda amalga oshiriladi. Boshqa bo'limlarga kirishda tibbiy hodimlar boshqa tibbiy kiyimini kiyishadi. Reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limi eshiklari doimo yopiq, eshiklarida quyidagi yozuv bo'ladi: **"REANIMATSIYA! KIRISH MUMKIN EMAS!"**. Reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limining asosiy talabi kiruvchilarni sonini qat'iy cheklash, shuningdek reanimatsiyaga bevosita aloqasi bo'lmagan hodimlarni ham. Kasal qarindoshlari faqat muayyan holatlardagina kiritiladi (kasalning qarindoshlari bilan aloqasini ta'minlash uchun bevosita telefon yoki televizion aloqa ta'minlanadi). Reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limining asosiy tuzilmalari: 1. Reanimatsion zal. 2. ITP (intensiv terapiya palatasi). 3. Hamshira posti. 4. Izolyator. 5. Biokimyoviy tadqiqotlar uchun ekspress laboratoriya. 6. Giperbarik oksigenatsiya kamerasi. 7. «Sun'iy buyrak» apparati. 8. Ekstrakorporal detoksikatsiya o'tkazish uchun xona. 9. Gnotobiologik kamera. 10. Yordamchi xonalar: apparat; manipulyatsion; choyshab; dush; bufet; tualet; hamshiralar; ordinator; bo'lim mudiri kabineti; katta hamshira kabineti.

Reanimatsion zal. Reanimatsion zalda kasalga quyidagi muolajalar o'tkaziladi: 1. sutkalik nazorat; 2. qat'iy parvarish; 3. jonlashtirish chora-tadbirlar; 4. o'pkaning uzoq vaqtli sun'iy ventilyatsiyasi; 5. magistral tomirlarning kateterizatsiyasi; 6. markaziy venalarga massiv infuziya; 7. traxeotomiya (kerak bo'lsa); 8. miya gipotermiyasi; 9. diurezni jadallashtirish; 10. gemosorbtsiya seanslari. Zalda 2 tadan 6 tagacha kasallar bo'lishi mumkin, ular maxsus yengil pardalar orqali bir biridan ajratiladi. Har bir krovat oldida barcha tomondan erkin kirish tomoni bo'lishi kerak. Reanimatsion zalda kasal organlar va sistemalar funksiyasi stabilizatsiyagacha bo'ladi, keyin esa uni ITP ga o'tkaziladi. Reanimatsion zal jihozlanishi. Nazorat-diaagnostik apparatura: 1. kasalning holatini uzluksiz nazorat qilib turuvchi monitor: PS, EKG,

AB. tana Harorati, nafas sig'imi, EEG, KAM va qonning gaz tarkibi; 2. harakatlanuvchi rentgen apparati. Davolash apparatura: 1. O'pkaning so'n'iy ventilyatsiya apparati; 2. narkoz apparati; 3. defibrillyatorlar; 4. Elektrso'rg'ichlar; 5. ingalyatorlar; 6. kardiostimulyatorlar; 7. bronxoskoplar; 8. laringoskoplar; 9. havo o'tkazuvchilar; 10. intubatsion naychalar; 11. tomir kateterlari; 12. bir martalik shpritslar; 13. venepunktsiya va venesektsiya, traxeotomiya, peridural va orqa miya punktsiyasi uchun steril to'plamlar; 14. steril stolchada: og'iz kengaytiruvchilar, til ushlovchilar, siydik kateterlari, oshqozon zondlari, drenaj naychalar, xirurgik asboblari, steril qayta bog'lov materiali; 15. markazlashtirilgan yoki ballonlarda kislorod, azot oksidi, suyultirilgan havo, vakuum; 16. kislorodni namlovchi (Bobrov bankasi bo'lishi mumkin); 17. vena ichi infuziya uchun sistema; 18. tomchili kiritish uchun ustun. Individual parvarish predmetlari: 1. idish; 2. siydik saqlovchilar; 3. buyraksimon tog'orachalar; 4. suv ichirgich; 5. yotoq yaraga qarshi quyiladigan xalqalar; 6. grelka; 7. muzli pufakchalar. Intensiv terapiya palatasi (ITP). ITP kasalni davolash va intensiv nazorat uchun moslashgan. Rejalashning ochiq sistemada ITPda 12-15 tagacha krovat bo'ladi. Markazlashtirilmagan tizimda esa ITPda 1-3tagacha krovat bo'ladi. Quyidagi palatalar bo'ladi: - yiringli kasalliklar uchun; - toza kasalliklar uchun; - izolyatsiyaga muhtoj kasallar uchun. Palatalar toza, tinch, issiq bo'lishi kerak. Krovatlar palatalarda shunday joylashtiriladiki, ularga uch tomondan kelish mumkin. Krovatlar ularni qayta ishlash qulay bo'lishi uchun metalli bo'lishi kerak, ular oson qimirlashi va kasalni holatini o'zgartishi oson bo'lishi kerak, maxsus yotoq yaraga qarshi matratslar – yotoq yarani oldini oladi. Har bir krovotda markazlashgan kislorod, azot oksidi, suyultirilgan havo, vaakum, individual chaqiruv uchun ovoz va yorug'lik signallari keladi. Uzluksiz dinamik kuzatuv uchun palatalarda maxsus monitorlar bo'ladi. Ular doimiy vizual nazorat amalga oshirish imkonini beradi. Krovat oldi stolchasida buyraksimon tog'oracha, suv ichdirgich va nafas gimnastikasi uchun uskuna bo'lishi kerak. Tibbiyot hodimi chaqirish uchun signal apparatura bo'lishi va u bemorga qulay bo'lishi kerak. Tibbiy hamshiralar posti. Hamshira posti xuddi xirurgik bo'limdagi hamshira posti kabi jihozlanadi (yozuv stoli, yozuv jihozlari, temperatura listlari toza blankalari, stol lampasi, telefon). Bundan tashqari bu yerda ish stoli bo'lib, bunda bog'lov xonasidagi

instrumental-material stol kabi jihozlanadi. Ish stoli bilan birgalikda bu yerda nafaqat bo'lim ichida balki boshqa bo'limlarda ham amalga oshirishi uchun aravacha bo'lishi kerak. Tez yordam ko'rsatuvchi aravacha uchun quyidagi jihozlar bo'lishi kerak: - havo o'tkazuvchilar, AMBU qopi, intubatsion naychalar; - narkoz apparaturasi, kardiostimulyator, elektrokardiograf, defibrillator, kislorod va azot oksid bilan ballonlar, mexanik so'rg'ich; - steril xirurgik asboblari, steril bog'lov materiallari, traxeotomiya va torakotomiya uchun to'plamlar, oshqozon zondlari; - markaziy vena kateterizatsiyasi va venesektsiya uchun to'plamlar, bir martalik shpritslar, infuziya uchun sistemalar, yurak ichi in'ektsiyalari uchun igna, infuzion muxitlar, farmakologik dorilar to'plami; - ikkita rozetkali uzun shnur. Ishga tushishdan oldin, navbatchi hamshira aravachani to'liq tekshirishi zarur.

Nazorat savollari:

1. Terminal holat – bu nima?
2. Terminal holatlarni qanday ko'rinishlarini bilasiz?
3. Terminal holatlarni qanday asosiy belgilari va simptomlarini bilasiz?
4. Terminal holatlar qanday diagnostika qilinadi?
5. Preagonal holat nima?
6. Agoniya nima?
7. Klinik o'lim nima?
8. Klinik o'limning qanday belgilari sizga ma'lum?
9. Biologik o'lim nima?
10. Biologik o'limning qanday belgilari sizga ma'lum?
11. Reanimatsion chora-tadbirlar o'tkazish uchun qanday ko'rsatmalarni bilasiz?
12. Qon aylanishi va nafas olish to'xtab qolganda birinchi yordam qanday ko'rsatiladi?
13. O'pka-yurak reanimatsiyasi qanday amalga oshiriladi?
14. O'pka sun'iy ventilyatsiyasi nima va u qanday amalga oshiriladi?
15. Yurakning yopiq massaji nima va u qanday bajariladi?
16. Tirilish effektivligining qaysi kriteriyalarini bilasiz?
17. O'pka-yurak reanimatsiyasini to'xtatish uchun qanday asosiy ko'rsatmalarni bilasiz?
18. Reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limining davolash – profilaktika rejimining 10 ta qoidasini ko'rsating?

19. Reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limining asosiy tarkiblarini ko'rsating?

20. Intensiv terapiya palatasi deganda nimani tushunasiz va ularning turlari?

21. Reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limidagi hamshira posti deganda nimani tushunasiz?

Test savollari:

1. Reanimatsion tadbirlar o'tkazishga ko'rsatma hisoblanadi:

- A. Hushning yo'qligi;
- B. Biologik o'lim;
- C. Klinik o'lim;
- D. Periferik arteriyalarda pul'sning yo'qligi;
- E. Preagonal holat.

2. Reanimatsiya - bu:

- A. Organizmning hayotiy muhim a'zolari funksiyasini pasayishi;
- B. Vrachlik mutaxassisligini nomi;
- C. Organizmning hayotiy muhim a'zolari funksiyasini pasayish mexanizmlari haqida ta'limot;
- D. Qon aylanishi va nafas olish to'xtaganda o'tkaziladigan intensiv terapiya;
- E. Davolash muassasasi nomi;

3. O'pka - yurak reanimatsiyasi vaqtida yurak bilvosita massajini nafas berishga nisbati qancha bo'lishi kerak (bitta reanimator bo'lganda)?

- A. 15:2;
- B. 5:1;
- C. 10:4;
- D. 2:1;
- E. 15:5

4. O'pka - yurak reanimatsiyasi vaqtida yurak bilvosita massajini nafas berishga nisbati qancha bo'lishi kerak (ikkita reanimator bo'lganda):

- A. 15:2;
- B. 5:1;
- C. 10:4;
- D. 2:1;
- E. 15:5

5. O'pka - yurak reanimatsiyasini asosiy elementlarini taklif qilgan olim kim?

- A. Gippokrat
- B. V. P. Safari
- C. Le Gran
- D. Ambruaz Pare
- E. N.I. Pirogov

6. Reanimatsion chora- tadbirlar o'tkazishga qarshi ko'rsatmalar qatorini belgilang.

- A. Yangi tug'ilgan chaqaloqlar.
- B. Keksa yoshdagi bemorlar.
- C. Biologik o'limni yaqqol belgilari bo'lganda.
- D. Klinik o'limni yaqqol belgilari bo'lganda.
- E. Agoniyani yaqqol belgilari bo'lganda.

7. Reanimatsion chora - tadbirlar vaqtida qo'llaniladigan o'pkani sun'iy ventilyatsiya qilish metodlarini ko'rsating?

- A. Hamma ko'rsatilganlar.
- B. Ambu qopi va maskasi yordamida.
- C. S - simon naycha yordamida.
- D. "Og'izdan burunga".
- E. "Og'izdan og'izga".

8. Quyida keltirilganlarni qaysi biri reanimatsiya bo'limi jihozlariga kirmaydi?

- A. Infuzion terapiya uchun qurilma va dozatorlar.
- B. Arterial bosimni monitoring qilish tizimi.
- C. Angiografik apparat.
- D. Defibrillyator.
- E. O'pkani sun'iy ventilyatsiya qilish uchun apparat va vositalar.

9. Terminal holatlarga kiradi:

- A. Predagoniya, agoniya, klinik o'lim, biologik o'lim;
- B. Predagoniya, terminal pauza, agoniya, klinik o'lim;
- C. Agoniya, terminal holat, biologik o'lim;
- D. Koma, miya o'limi, biologik o'lim;
- E. Shok, terminal pauza, klinik o'lim, biologik o'lim;

10. Cheyn-Stoksa tipidagi nafas olish harakterli:

- A. Gemotoraks uchun.
- B. Pnevmtoraks uchun.

- C. Sepsis uchun.
- D. Bosh miya travmalari uchun.
- E. Terminal holatlar uchun.

Vaziyatli masalalar:

Masala 1. 30 yoshli bemor ko'chada hushsiz holatda topildi. Bemor qabul bo'limiga yetkazildi. Qabul bo'limi vrachi tomonidan tekshirilganda bemorning ahvoli birdan yomonlashgan: bemorda apnoe, sianoz kuzatildi, uyqu arteriyasida pul'satsiya aniqlanmaydi. Qabul bo'limi vrachi reanimatologni chaqirdi va adrenalin eritmasini yuborish uchun periferik venani venepunktsiya qilmoqchi bo'ldi. Qabul bo'limi vrachining taktikasi to'g'rimi? Keyingii reanimatsion chora tadbirlarni o'tkazish algoritmini tuzing?

Masala 2. O't o'chiruvchi qichqirib yerga yiqildi. Siz bemorga yaqinlashganingizda talvasa huruji to'xtadi. Ko'zdan kechirilganda bemorni qo'lida qisilgan, elektr ustuniga osilgan yalang'och elektr simi aniqlanadi. Bemorga birinchi yordam berish algoritmini tuzing?

Masala 3. Sizning ko'zingiz oldida yomon xabardan so'ng, 82 yoshli ayolni yuragi huruj qilib qoldi, baqirdi, hushini yo'qotdi va nafas olmay qo'ydi. Harakatlaringiz algoritmini tuzing?

Masala 4. Jabrlanuvchi suvdan cho'kib ketganidan keyin 2 daqiqa o'tgach hayot belgilarisiz suvdan olib chiqildi. Bemorni hushi o'zida emas, nafas olish aniqlanmaydi. Birinchi yordam berish algoritmini tuzing?

Masala 5. Yong'in paytida bino ichidan behush jabrlanuvchi topildi. Bemorni terisi ko'k-binafsha rangda, nafas olish aniqlanmaydi. Bemorga yordam berish algoritmini tuzing?

Rasmi testlar:

1. Rasmda nima ko'rsatilgan?



- A. Defibrillyator
 - B. Havo o`tkazuvchi naylar
 - C. Nafas olish apparati
 - D. Pul'soksimetr
 - E. Laringoskop
2. Rasmda nima ko`rsatilgan?



- A. Laringoskop
 - B. Havo o`tkazuvchi naylar
 - C. Pul'soksimetr
 - D. Sun'iy nafas berish apparati
 - E. Defibrillyator
3. Rasmda nima ko`rsatilgan?



- A. Laringoskop
- B. Pul'soksimetr
- C. Ul'tratovushli ingalyator
- D. Defibrillyator
- E. Sun'iy nafas berish apparati

4. Rasmda nima ko`rsatilgan?



- A. Pul'soksimetr
 - B. Havo o'tkazuvchi naylar
 - C. Laringoskop
 - D. Sun'iy nafas berish apparati
 - E. Ul'tratovushli ingalyator
5. Rasmda nima ko`rsatilgan?



- A. Pul'soksimetr
- B. Laringoskop
- C. Sun'iy nafas berish apparati
- D. Gospital defibrillyator

TOPSHIRIQ JAVOBLARI

XIRURGIK QABUL BO'LIMI ISHI VA UNI TASHKIL ETISH.

Test savollari

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
D	A	C	B	B	A	A	D	C	C

Vaziyatli masalalar

1- masala. **Javob:** bemorga pedikulyozga qarshi vositalardan biri (karbofosning suvli-emul'siyali eritmasi yoki shunga o'xshash vositalar) bilan sanitar ishlovi berilishi kerak.

2- masala. **Javob:** dastlab bemorni pedikulyozga tekshirish kerak, keyin qisman sanitar ishlovi o'tkaziladi va bemorni katakaga yotqizgan holatda transportirovka amalga oshiriladi.

3- masala. **Javob:** 10% li ona eritmasiga tegishli miqdorda suv qo'shish orqali 1% li xloramin eritmasini tayyorlashi kerak.

4- masala. **Javob:** kleyonkani xloramin B ning 1% li eritmasi bilan artilishi kerak, 15 daqiqadan keyin qayta artilishi lozim va yana 15 daqiqadan keyin nam latta bilan artilishi kerak.

5- masala. **Javob:** bemorni katakada olib borish kerak, bemor katakaga o'tkazilayotgan vaqtida yog'och zambil bilan birga qimirlatmasdan o'tkazish kerak bo'ladi.

JARROHLIK BO'LIMINING TUZILISHI, ISH TARTIBI VA JIHOZLANISHI. Test savollari

1	2	3	4	5	6	7
C	B	A	C	D	B	A

Rasmi testlar

1	2	3	4
A	D	C	A

BEMORLARNI JARROHLIK AMALIYOTIGA TAYYORLASH. JARROHLIK AMALIYOTIDAN KEYINGII DAVRDA BEMORLAR PARVARISHI. Test savollari

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
B	C	A	D	A	E	A	B	B	D

Rasmi testlar

1	2	3	4	5
A	D	C	B	E

XIRURGIYADA ANTISEPTIKA ASOSLARI. ANTISEPTIKLARNI QO'LLASH USULLARI. Test savollari

1	2	3	4
C	B	D	A

Vaziyatli testlar

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
A	E	D	B	E	A	C	D	E	A

Rasmi testlar

1	2	3	4	5
A	D	C	B	A

XIRURGIYADA ASEPTIKA ASOSLARI. INFEKSIYA MANBALARI. HAVO-TOMCHI, KONTAKT, IMPLANTATSION INFEKSIYA PROFILAKTIKASI. SHIFOXONA ICHI INFEKSIYASI. Test savollari

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
A	C	B	E	A	D	D	C	A	B

Vaziyatli testlar

1	2	3	4	5	6	7	8	9
A	D	C	B	A	E	B	A	A

Rasmi testlar

1	2	3	4	5
E	D	A	C	D

XIRURGIYA BO'LIMIDA BEMORLARNI OVQATLANISHINI TASHKILLASHTIRISH. PARHEZ TAOMLARI. OG'IR BEMORLARNI OVQATLANTIRISH.

1	2	3	4	5	6	7	8	9
A	D	B	E	A	C	D	A	A

TERMINAL HOLATLAR VA REANIMATSIYA ASOSLARI. Test savollari

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
C	D	B	C	B	C	A	C	B	E

Vaziyatli masalalar

1- masala. Javobi: Bemorda klinik o'lim belgilari (hushni, nafas olishni, qon aylanishining yo'qligi) mavjud. Darhol o'pka-yurak reanimatsiyasini boshlash kerak: yurakni bilvosita massaji, yuqori nafas

yo'llarining o'tkazuvchanligini tiklash, o'pkani sun'iy ventilyatsiya qilish.

2- masala. Javobi: Avvalo, bemorni qo'lidan elektr simini olib tashlash kerak bo'ladi. Buning uchun siz tayoq, novda yoki tok o'tkazmaydigan har qanday ob'yektdan foydalanishingiz kerak. Simdan chiqarilgandan so'ng, umumiy qabul qilingan algoritmgaga muvofiq reanimatsion choralari boshlanishi lozim.

3- masala. Javobi: Ta'riflangan holat to'satdan bo'ladigan yurak o'limiga xosdir. Bemorning yoshi o'pka - yurak reanimatsiyasini o'tkazishga qarshi ko'rsatma emas. Bayonnoma bo'yicha yurak massajini o'tkazishni boshlash kerak.

4- masala. Javobi: Birinchi navbatda nafas yo'llaridan suvni chiqarish kerak. Keyin zudlik bilan o'pka- yurak reanimatsiyasini boshlash kerak: yurakni bilvosita massaji, yuqori nafas yo'llarining o'tkazuvchanligini tiklash, o'pkani sun'iy ventilyatsiya qilish.

5- masala. Javobi: Jabrlanuvchida is gazi bilan zaharlanishi tufayli klinik o'lim belgilari mavjud. Shu sababli jabrlanuvchini tezda ochiq havoga olib chiqish zarur va bayonnomaga muvofiq reanimatsiya chora - tadbirlarini boshlash kerak.

Rasmi testlar

1	2	3	4	5
A	B	E	C	A

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Гостищев В.К. Общая хирургия. -М., 2008.-487 с.
2. Петров С.С. Общая хирургия - СПб, 2010 - 247 с.
3. Охунов А.О. Понятие о хирургии. Организация работы хирургического отделения - Методическая рекомендация сценариев проведения практических занятий с использованием интерактивных методов обучения. Т, 2012 – 6 с.
4. Охунов А.О. Асептика. Сценарии для проведения практических занятий с использованием современных педагогических технологий составленные на основе единой методической систем. - Методическая рекомендация. Т.-2012.-15 с.
5. Охунов А.О. Антисептика. Сценарии для проведения практических занятий с использованием современных педагогических технологий составленные на основе единой методической систем - Методическая рекомендация. Т.-2012.-20 с.
6. Охунов А.О.Обследование хирургического больного. Курация больных. Схема академической истории болезни. Сценарии для проведения практических занятий с использованием современных педагогических технологий составленные на основе единой методической систем -Методическая рекомендация. Т.-2012.-29 с.
7. Бабаджанов Б.Д., Охунов А.О.Десмургия. Сценарии для проведения практических занятий с использованием современных педагогических технологий составленные на основе единой методической систем -Методическая рекомендация. Т.-2012.-18 с.
8. Бабаджанов Б.Д., Охунов А.О.Общая хирургия в модулях – Электронный учебник на русском языке – 2013 год.
9. Охунов А.О. ва бошқалар. Умумий хирургия.- Электрон учебник на узбекском языке – 2014 йил.
10. Охунов А.О., Каюмов Т.Х.Что такое хирургия?- Электронное учебное пособие на узбекском, русском и английском языках.-2014 год.
11. Охунов А.О., Каюмов Т.Х. История развития современной хирургии. - Электронное учебное пособие на узбекском, русском и английском языках.-2014 год.

12. Охунов А.О., Каюмов Т.Х. Пионеры хирургии.- Электронное учебное пособие на узбекском, русском и английском языках -2014 год.
13. Охунов А.О., Абдуллаев У.Р. Асептика и антисептика.- Электронное учебное пособие на узбекском, русском и английском языках.-2014 год.
14. Охунов А.О., Шарипов Ю.Ю. Десмургия.- Электронное учебное пособие на узбекском, русском и английском языках.-2014 год.
15. Охунов А.О., Тавашаров Б.Н. Сборник мультимедийных тестов по разделу «Асептика и антисептика». Электронное учебное пособие на узбекском, русском и английском языках. Т.-2015.
16. Охунов А.О., Тавашаров Б.Н. Сборник мультимедийных тестов по разделу «Десмургия». Электронное учебное пособие на узбекском, русском и английском языках. Т.-2015.
17. Охунов А.О., Сайназаров А.М. Асептика ва антисептика // дастурланган, ургатувчи ва назорат килувчи электрон укув-услугий кулланма/Тошкент, 2017 – 83 б.
18. Охунов А.О., Тавашаров Б.Н. Десмургия – боғламлар тутрисида таълим - Услугий кулланма-Тошкент, 2017 – 51 б.
19. Охунов А.О., Саттаров И.С. Хирургияда беморларни текшириш ва касаллик таризини езиш коидалари//услугий кулланма-Тошкент, 2017.- 44 б.
20. F. Charles Brunnicardi. Schwartz's principles of surgery.10th edition.2015-488 p.
21. S.Das. A manual clinical surgery. Special investigations and differential diagnosis.11th edition.2014-216 p.
22. John Lumley et all. Demonstrations of physical signs in clinical surgery. 19th edition.2013-185 p.
23. Peter F. Lawrence. Essentials of general surgery.15th edition.2013-379 p.
24. Norman Williams. Bailey Loves. Short practice of surgery.26th edition.2012-451 p.

U.A. Sherbekov, F.A.Daminov, J.P. Radjabov, Z.Ya. Saydullayev
TIBBIYOT KASBIGA KIRISH (XIRURGIYA)
(O'quv qo'llanma)

“ARTEX NASHR”

Mas'ul muharrir — Madina Mirzakarimova
Musahhah — Madina Mirzakarimova
Texnik muharrir — Raxmonov Shohimardon
Dizayner va sahifalovchi — Raxmonov Shahzod

“ARTEX NASHR” bosmaxonasida chop etildi.
Alisher Navoiy ko'chasi 186 - uy

Bosishga 02.11.2022 ruxsat etildi. Bayonnoma raqami: 3
Bichimi 60x84_{1/16}. “Times New Roman” garniturasida. 10.46 bosma taboq.
Adadi: 200 nusxa. Buyurtma raqami: 8 / 01.02.2023
Tel:(97) 897-80-00

9 789973 916081 6



ISBN 978-9160-81-608-1